

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**TA`LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR**

**“Pedagogika nazariyasi va tarixi” fani  
bo`yicha ta`lim texnologiyasi**

**( Pedagogika nazariyasi bo`limi)**

**Toshkent – 2015**

## “Pedagogika nazariyasi” bo`limi

### 1.1. Kirish ma`ruzasi ta`lim texnologiyasi modeli

**Mavzu: Pedagogika fan sifatida. Pedagogikaning tadqiqot metodlari.**

<i>Ma`ruzaga ajratilgan vaqt – 2s</i>	<i>Talabalar soni – 50 ta</i>
<i>O`quv mashg`ulotining shakli</i>	<i>Ma`lumotli kirish ma`ruza</i>
<i>Mashg`ulotning rejasi</i>	<p>Pedagogika fanining ob`ekti, predmeti, maqsad va vazifalari.</p> <p>Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari.</p> <p>Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.</p> <p>Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.</p>
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi</i>	Talabalarda pedagogika fanining o`ziga xosliklari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish
<p><b>Pedagogik vazifalar:</b></p> <p>pedagogika fanining tuzilishini sharhlash;</p> <p>pedagogika fani miqyosidagi metodik va tashkiliy ishlarning xususiyatlari, muddati va baholash mezonlari bilan tanishtirish;</p> <p>pedagogika fanining ob`ekti, predmeti, maqsad va vazifalarini aniqlashtirish;</p> <p>pedagogika fanining asosiy kategoriyalarini ajratib ko`rsatish;</p> <p>pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini bayon etish;</p> <p>pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini ajratib ko`rsatish.</p>	<p><b>O`quv faoliyati natijalari:</b></p> <p>pedagogika faniga ajratilgan umumiy soatlar, ularning auditoriya va auditoriyadan tashqari vaqtda taqsimlanishi, fanning modul-bloklari haqida tushunchaga ega bo`linadi;</p> <p>pedagogika fani bo`yicha mashg`ulotlarning borishi, BKMLarni nazorat qilish turlari, shakl, metod va vositalari, nazoratlarni o`tkazish vaqti va baholash mezonlari haqida aniq tasavvurlar shakllantiriladi;</p> <p>pedagogika fanining ob`ekti, predmeti, maqsad va vazifalarini bilib oladilar;</p> <p>pedagogika fanining asosiy kategoriyalarini o`zlashtiradilar;</p> <p>pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini taqqoslaydilar;</p> <p>pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlariga doir tasavvurlarga ega bo`ladilar.</p>
Ta`lim metodi	Ma`ruza, tushuntirish, suhbat, “B–B–B” grafik organayzeri
Ta`limni tashkil etish shakli	Ma`ruza, ommaviy
Didaktik vositalar	Ma`ruza matni, slayd-prezentasiya
Ta`limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
Nazorat <sup>2</sup>	O`z-o`zini nazorat qilish, refleksiya

### Kirish ma`ruzasining texnologik kartasi

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O`qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
<b>1-bosqich. O`quv mashg`ulotiga kirish (Da`vat bosqichi) (20 minut)</b>	1.1. Mavzuning nomlanishi, rejadagi masalalar va mustaqil o`qish uchun adabiyotlarni bayon etadi (1-ilova).	Tinglaydilar, yozib oladilar.
	1.2. “B–B–B” strategiyasining “Bilaman” ustunini to`ldirishni so`raydi (2-ilova).	“B–B–B” strategiyasining “Bilaman” ustunini to`ldirishadi.
	1.3. Fanning tuzilmaviy-mantiqiy chizmasini taqdim etadi: modullar va o`quv modullariga qisqacha ta`rif beradi (3-ilova).	Savollar bilan murojaat etadilar, aniq tasavvurlar tizimiga ega bo`lishadi
	1.4. Fan miqyosida bajariladigan metodik va tashkiliy ishlar bilan tanishtiradi (4-ilova).	
	1.5. Fanning reyting nazorat tizimi va baholash mezonlarini tushuntiradi (5-ilova).	Reyting qaydnomasini to`ldirishadi
<b>2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut)</b>	2.1. “B–B–B” strategiyasining “Bilmoqchiman” ustunini to`ldirish so`raladi (2-ilova).	“B–B–B” strategiyasining “Bilmoqchiman” ustunini to`ldirishadi.
	2.2. Pedagogika fanining ob`ekti, predmeti, maqsad va vazifalarini yoritib beradi (6-ilova).	Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etishadi,
	2.3. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalarini ajratib ko`rsatadi va har biriga ta`rif beradi (7-ilova).	muhim chizma va jadvallarni o`z daftarlariga qayd etishadi.
	2.4. Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini ko`rsatib beradi (8-ilova).	
	2.5. Pedagogika fanining ilmiy-taqdimot metodlari haqida ma`lumot beradi (9-ilova).	
<b>3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash</b>	3.1. “B–B–B” grafik organayzerining “Bilib oldim” ustunini to`ldirish so`raladi (2-ilova).	“B–B–B” grafik organayzerini “Bilib oldim” ustunini to`ldirishadi.

<b><i>bosqichi</i></b> <b><i>(10 minut)</i></b>	3.2.“B–B–B” chizmalarni o`qitish orqali talabalarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi.	O`z tasavvurlarini boshqalarniki bilan taqqoslaydi.
	3.3. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi.	O`z tasavvurlarini boyitadi va to`ldiradi.

## **1-ilova**

***Mavzu: Pedagogika fan sifatida. Pedagogikaning tadqiqot metodlari.***

### ***Reja:***

1. Pedagogika fanining ob`ekti, predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari.
3. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
4. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

### ***Mustaqil o`qish uchun adabiyotlar:***

1. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika. – T.: O`qituvchi, 2001.
2. Podlasъy I. P. Pedagogika. V 2-x kn. – M.: VLADOS, 2003.
3. Lixachev B. T. Pedagogika. - M.: YUrayt, 2003.
4. Slastenin V.A., Isaev I. F., SHiyonov E. N. Obщaya pedagogika. V 2-x kn. – M.: VLADOS, 2003.
5. Toxtaxodjaeva M., Nishonova S., Hasanboev J., Mad`yarova S., Kal`dybekova A va bosh. Pedagogika. – T.: Iqtisod-moliya, 2008.

## **2-ilova**

### ***B/B/B chizmasi***

***B/B/B chizmasi*** – Bilaman/ Bilishni hohlayman/ Bilib oldim. Mazkur grafik organayzer mavzu, matn, bo`lim bo`yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Talabalarda tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko`nikmalarini rivojlantiradi.

### ***Talabalar:***

Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida /kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.

“Mavzu bo`yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo`naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1 va 2-bo`limlarini to`ldiradilar.

Ma`ruzani tinglaydilar.



Mustaqil/kichik guruhlarda jadvalning 3 bo`limni to`ldiradilar

<b>B/BX/B JADVALI</b>		
Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

**3-ilova**

**“Pedagogika” fanining tuzilishi**

“Pedagogika” kursi, pedagogika-psixologiya ta'lim vʻnalishi, 1-kurs, bakalavriat



**4-ilova**

***Fanning hajmi***

	Mashg`ulot turi	Ajratilgan soat	Semestr
	Nazariy (leksiya)	54	I
	Seminar	44	I
	Amaliy	16	1
	Kurs ishi	-	-
	Mustaqil ish	76	I

**5-ilova**

***Reyting nazorati***

Talabalarning bilim, ko`nikma va malakalari har semestrda joriy nazorat (JN), oraliq nazorat (ON) va yakuniy nazorat (YAN) natijalari asosida baholanadi.

***Reyting nazorati jadvali***

***Kuzgi semestr***

<b><i>Nazorat turi</i></b>	<b><i>sentiyabr</i></b>					<b><i>oktyabr</i></b>				<b><i>noyabr</i></b>				<b><i>dekabr</i></b>				<b><i>yanvar</i></b>			<b><i>Ball</i></b>	<b><i>O`tish bali</i></b>		
	1 haf	2 hafta	3 hafta	4 hafta	5 haf	6 haft	7 haf	8 hafta	9 hafta	10 hafta	11 hafta	12 ha	13 hafta	14 ha	15 ha	16 hafta	17 haf	18 hafta	19 hafta	20 hafta			21 hafta	
<b><i>JB (amaliy mashg`ulo tlar)</i></b>																							0	2
<b><i>OB</i></b>								5										5					0	6,5
<b><i>YAN</i></b>																				0			0	6,5
<b><i>JAMI</i></b>																							00	5

***Joriy, oraliq va yakuniy baholash ballarining taqsimlanishi***

<i>Nazorat turi</i>	<i>Reyting baholashlar</i>			<i>jami</i>	<i>Saralash bali</i>
	1	2	3		
JB (amaliy mashg`ulot)	20	20		40	22
OB (yozma ish, test nazorati)	15	15		30	16,5
YAN (yakuniy yozma ish)			30	30	16,5
<b>JAMI:</b>				<b>00</b>	<b>55</b>

***JB ni baholash mezonlari***

“Pedagogika nazariyasi” fani bo`yicha joriy baholash talabning nazariy bilimlarni o`zlashtirishni hamda amaliy ko`nikmalarga ega bo`lganligini aniqlash uchun qo`llaniladi va umumiy reyting ballining 45% ni tashkil qiladi. U og`zaki savol javob va amaliy topshiriqlarni bajarish bilan amalga oshiriladi. Har bir amaliy mashg`ulotda JB so`rov, pedagogik masalalarni echish, seminarlar o`tkazish kabi shakllarda amalga oshiriladi. Talabalar JB da butun ballar qo`yiladi:

<b><i>Talabning o`zlashtirish darajasi</i></b>	<b><i>Talabaga qo`yiladigan ball</i></b>
<i>Pedagogika nazariyasi bo`yicha etarli nazariy bilimga ega. Savollarga javob berishda aniq misollar keltira oladi. Mashg`ulotlarda faol.</i>	<b>5 A`lo, 86-100%</b>
<i>Talaba savollarga aniq javob bera oladi. Misollar keltira oladi. Topshiriqlarni bajarishda jiddiy bo`lmagan xatolarga yo`l qo`yadi. O`z kasbiga qiziqadi.</i>	<b>4 Yaxshi 71-85%</b>
<i>Topshiriqlarni bajarishda ba`zi xatoliklarga yo`l qo`yadi. Qiziqishi sust. Tayanch tushunchalarga asoslanib o`quv materialini mazmun-mohiyatini bayon etib bera oladi.</i>	<b>3 Qoniqarli 55-70%</b>

***OB ni baholash***

Oraliq baholash “Pedagogika nazariyasi” fanining bir necha mavzularini qamrab olgan bo`limi bo`yicha, tegishli nazariy va amaliy mashg`ulotlar o`tib bo`lingandan amalga oshiriladi. Bundan maqsad talabalarning tegishli savollarni bilishi yoki muammolarni echish ko`nikmalar va malakalari aniqlanadi.

Fan bo`yicha 2 ta ON o`tkazish rejalashtirilgan. 1 ON yozma ish shaklida o`tkaziladi (15 ball). 2 ON test nazorati shaklida o`tkaziladi (15 ball).

## **YAB ni baholash**

Fan bo'yicha YAB yakuniy yozma shaklida o'tkaziladi. YAB ga 30 ball ajratilgan. YAKuniy nazorat ishini baholashda quyidagi omillar hisobga olinadi:

<b><i>Baholash tartibi</i></b>	<b><i>Baholash mezonlari</i></b>	<b><i>Yozma ishni baholash ballari</i></b>
Har bir savol uchun alohida baholanadi	1.Javobning to'g'riligi va to'liqligi	Har bir to'g'ri javob uchun 8 ball (jami 24 ball)
	2.Javob berishda ijodiy yondashish, o'z fikrlarini bayon etish, tanqidiy fikr yuritish, misollar keltirish, xulosa chiqarish	Har bir savol uchun 2 ball (Jami 6 ball)
<b><i>JAMI</i></b>		<b><i>15</i></b>


**6-ilova**

### ***Pedagogika fanining ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalari***

***Pedagogika – ta'lim va tarbiya jarayonini yaxlitlikda o'rganadigan fan sohasi***


***Pedagogika fanining ob'ekti – pedagogik voqelik***

***Pedagogika fanining predmeti – ta'lim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, shakl, metod va vositalari***







*Pedagogikaning asosiy kategoriyalari*



*Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi*



*Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari*

**1.2. “Kadrlar tayyorlash milliy modeli. Pedagoglik kasbining jamiyatdagi o`rni” mavzusidagi ma`lumotli ma`ruzaning texnologik modeli**

<i>Ma`ruzaga ajratilgan vaqt – 2s</i>	<i>Talabalar soni – 50 ta</i>
<i>O`quv mashg`ulotining shakli</i>	<i>Ma`lumotli ma`ruza</i>
<i>Mashg`ulot rejasi</i>	1.Kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning tarkibiy qismlari. 2.Demokratik jamiyatda pedagoglik kasbi. 3.O`qituvchi shaxsiga qo`yiladigan talablar.
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi</i>	Talabalarda Kadrlar tayyorlash milliy modelining mazmuni; pedagoglik kasbi; o`qituvchi shaxsiga qo`yiladigan talablar; SHarq va G`arb mutafakkirlarining pedagoglik kasbiga doir g`oyalari haqida yaxlit tasavvurlarni shakllantirish
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Kadrlar tayyorlash milliy modelining mohiyati va asosiy tarkibiy qismlari bilan tanishtirish; - pedagoglik kasbiga tavsif berish; - o`qituvchi shaxsiga qo`yiladigan talablar hamda SHarq va G`arb mutafakkirlarining pedagoglik kasbiga doir g`oyalari bilan tanishtirish.	<i>O`quv faoliyati natijalari:</i> - “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning tarkibiy qismlari” deb nomlangan chizma-slaydi yordamida Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlarini bilib oladilar; - “kasb”, “mutaxassis”, “pedagog”, “o`qituvchi” tushunchalari bilan tanishadilar; - “pedagog shaxsi modeli” bilan tanishish orqali pedagogning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini o`zlashtirishadi; - SHarq va G`arb mutafakkirlarining pedagoglik kasbiga doir g`oyalarni o`zlashtiradilar.
Ta`lim metodi	Ma`ruza, tushuntirish, suhbat, “Erkin yozish” interfaol metodi, “Klaster” grafik organayzeri
Ta`limni tashkil etish shakli	Ma`ruza, ommaviy, guruhli
Didaktik vositalar	Ma`ruza matni, slayd-prezentasiya
Ta`limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
Nazorat	O`z-o`zini nazorat qilish, refleksiya

**Kadrlar tayyorlash milliy modeli. Pedagoglik kasbining jamiyatdagi o`rni”  
mavzusidagi ma`lumotli ma`ruzaning texnologik kartasi**

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O`qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
<b>1-bosqich. O`quv mashg`ulotiga kirish (Da`vat bosqichi) (10 minut)</b>	1.1. Talabalarga besh minut vaqt mobaynida kadrlar tayyorlash milliy modeliga doir erkin yozish topshirig`ini beradi (1-ilova).	O`z daftarlariga erkin ravishda jamiyatning siyosiy tizimiga doir fikrlarini yozishadi.
	1.2. Ba`zi talabalarning erkin yozishlarini eshitadi.	O`z fikrlarini boshqalar bilan o`rtoqlashishadi.
	1.3. Mavzuning nomlanishi, rejadagi masalalar va mustaqil o`qish uchun adabiyotlar ro`yxati bilan tanishtiradi (2-ilova).	Tinglashadi, yozib borishadi.
<b>2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut)</b>	2.1. Kadrlar tayyorlash milliy modelining mohiyati va asosiy tarkibiy qismlari bilan tanishtiradi (3-ilova).	Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etishadi, muhim chizma va jadvallarni o`z daftarlariga qayd etishadi.
	2.2. Pedagoglik kasbi bilan bog`liq tushunchalarga ta`rif beradi (4-ilova).	
	2.3. O`qituvchi shaxsiga qo`yiladigan talablar hamda Sharq va G`arb mutafakkirlarining pedagoglik kasbiga doir g`oyalari bilan tanishtiradi (5-ilova).	
<b>3-bosqich. YAKuniy (Fikrlash bosqichi) (20 minut)</b>	3.1. Talabalarning pedagog shaxsi va unga qo`yiladigan talablar to`g`risidagi tasavvurlarini boyitish maqsadida “Klaster” grafik organayzerini taqdim etadi (6-ilova).	“Klaster” grafik organayzerini guruhlarda to`ldirishadi.
	3.2. “Klaster” grafik organayzerini namoyish ettirish orqali talabalarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi.	O`z fikrlarini boyitadi

	3.3. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi.	O`z tasavvurlarini qo`shimcha ma`lumotlar bilan boyitadi
--	--	--

## 1-ilova

### *“Erkin yozish”*

O`qituvchi talabalarga besh minut vaqt davomida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi haqida bilganlarini daftarlariga yozishni so`raydi. Vaqt tugagach, ba`zi talabalardan yozganlarini o`qib berishni so`raydi. Vaqtdan yutish uchun qolgan talabalar avval o`z yozganlarini o`qib bergan talabalarinikiga o`xshamagan fikrlarini aytishlari mumkin.

## 2-ilova

*Mavzu: Kadrlar tayyorlash milliy modeli. Pedagoglik kasbining jamiyatdagi o`rni*


### *Reja:*

1. Kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning tarkibiy qismlari.
2. Demokratik jamiyatda pedagoglik kasbi.
3. O`qituvchi shaxsiga qo`yiladigan talablar.

### *Adabiyotlar:*

1. Karimov I.A. YUksak ma`naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma`naviyat, 2008.
2. O`zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”// “Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobida. – T.: SHarq, 1997. – B.31-61.
3. Barkamol avlod orzusi. – T.: SHarq, 1999.
4. Toxtaxodjaeva M., Nishonova S., Hasanboev J., Mad`yarova S., Kal`dybekova A va bosh. Pedagogika. – T.: Iqtisod-moliya, 2008.
5. Ochilov M., Ochilova N. O`qituvchi odobi. – T.: O`qituvchi, 1997.
6. Ochilov.M. Muallim – qalb me`mori. – T.: O`qituvchi, 2001.

**“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning mohiyati va tarkibiy tuzilmasi**



**Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari**

**SHaxs** – uzluksiz ta`lim jarayonining ob`ekti, sub`ekti, iste`molchisi va amalga oshiruvchisi.


**Davlat va jamiyat** kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafilidir.

**Uzluksiz ta`lim** – malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo`lib, ta`limning barcha turlari, davlat ta`lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko`rsatish muhitini o`z ichiga oladi.

**Fan** yuqori malakali mutaxassisni tayyorlaydi va ulardan foydalanadi, ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqadi.

**Ishlab chiqarish** – kadrlarga bo`lgan ijtimoiy ehtiyojni shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo`yiladigan talablarni belgilovchi asosiy bu yurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnika jihatdan ta`minlash jarayonining qatnashchisi.

**Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari o`rtasidagi o`zaro aloqadorlik va bog`liqlik**



**4-ilova**


**“Kasb”, “mutaxassislik” va “pedagog” tushunchalari**

**Kasb** – shaxsga qo`yiladigan ma`lum bir talablar bilan tavsiflanuvchi mehnat faoliyatining alohida turi.

**Mutaxassislik** – biror kasb doirasidagi, ta`lim natijasida egallangan bilim, ko`nikma va malakalar yig`indisini tavsif etuvchi hamda ularning qo`yilishi va o`zlashtirayotgan malakasiga muvofiq muayyan kasbiy-pedagogik vazifalarni hal etilishini ta`minlovchi faoliyat turi.

**Pedagog** – ta`limiy faoliyatning xilma-xil turlari bilan shug`ullanuvchi shaxsga nisbatan qo`llaniladigan umumiy tushuncha.

**5-ilova**



### ***Qobiliyatlar***

1. Didaktik (o`quv).
2. Gnostik (bilishga doir).
3. Konstruktiv-tashkilotchilik.
4. Emotsionallik, ochiqlik.
5. Kommunikati.
6. Suggestiv.
7. Tadqiqotchilik.
8. Kreativ (ijodiy).
9. Kasbiy rivojlanishga qobiliyatlilik.

***Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar*** o`qituvchining ma`naviy-axloqiy jihatdan etuk bo`lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning fikrlaricha, yaxshi o`qituvchi boshqalardan shu jihati bilan farq qiladi: o`zi ega bo`lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o`rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo`la oladi.

***Abu Ali ibn Sino*** o`z asarlarida o`qituvchi bolalarga ta`lim berishdek mas`uliyatli burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvafaqiyatga erishish garovi bo`lgan quyidagi tavsiyalarni beradi: bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo`lish; berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o`zlashtirilishiga e`tiborni qaratish; ta`limda turli shakl va metodlardan foydalanish; talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi; fanga qiziqтира olishi; berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi; bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish; har bir so`zning boalar hissiyotini uyg`otish darajasida bo`lishiga erishish.

***Alisher Navoiy*** o`z davrining ayrim maktabdorlari ega bo`lgan sifatlar, xususan, qattiqqo`llik, ta`magirlik va johilliklarni qoralar ekan, o`qituvchining ma`naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo`yadi. Xususan, “mudarris kerakki, g`arazi mansab bo`lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko`rgazmasa va olg`irlik uchun gap-so`z va g`avg`o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo`lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o`rin



bo`lmasa. ... Yaramasliklardan qo`rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o`zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo`lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo`lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir”.


Ayni o`rinda o`qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta`kidlab o`tadi: “Uning ishi odam qo`lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to`da bolaga ilm va adab o`rgatadi, ko`rkim bunga nima etsin.

SHunisi ham borki, u to`dada fahm-farosati ozlar bo`ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo`ladi. Har qanday bo`lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko`pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi.

Haq yo`lida kim senga bir harf o`qitmish ranj ila,  
Aylamak bo`lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

**6-ilova**

***“Pedagog” mavzusidagi klaster garafik organayzerini tuzish uchun namuna***



**1.3. “Shaxs kamolati ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayon ob`ekti va sub`ekti sifatida” mavzusidagi muammoli ma`ruzaning texnologik modeli**

<i>Ma`ruzaga ajratilgan vaqt – 2 s</i>	<i>Talabalar soni – 50 ta</i>
<i>O`quv mashg`ulotining shakli</i>	<i>Muammoli ma`ruza</i>
<i>Mashg`ulot rejasi:</i>	1. SHaxs haqida umumiy tushuncha. 2. SHaxs rivojlanishiga ta`sir etuvchi omillar. 3. Rivojlanishning yosh va o`ziga xos xususiyatlari.
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi</i>	Talabalarda shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuviga doir bilimlarini tarkib toptirish
<i>Pedagogik vazifalar:</i> 1) muammoli savol, masala va vaziyatlarni o`quv birligiga muvofiq ravishda taqdim etish; 2) muammoni hal etish jarayonini boshqarish; 3) “individ”, “inson”, “shaxs” tushunchalarining farqli jihatlarini ajratib ko`rsatish; 4) shaxsning rivojlanishi bilan bog`liq nazariyalarning mohiyatini tushuntirib berish; 5) shaxsning rivojlanishiga ta`sir ko`rsatuvchi omillarni tavsiflash; 6) rivojlanish yosh davrlarini tasniflash va o`ziga xosliklarini ochib berish.	<i>O`quv faoliyati natijalari:</i> muammoli savol, masala va vaziyatlarni hal etish orqali o`z tasavvurlarini aniqlashtirishadi; shaxsning rivojlanishi bilan bog`liq nazariyalarning mohiyatini anglab oladilar; shaxsning rivojlanishiga ta`sir ko`rsatuvchi omillarni bilib oladilar; bilim, malaka va ko`nikmalarni baholash mezonlarini bilib oladilar; “individ”, “inson”, “shaxs” tushunchalarining farqli jihatlarini anglab olishadi; shaxsning rivojlanishiga ta`sir ko`rsatuvchi omillarni qiyoslaydilar; irsiyat (gender xususiyatlar), muhit va ta`lim-tarbiyaning shaxs rivojlanishiga ta`siriga doir xulosalarga keladilar; rivojlanish yosh davrlari tasnifini o`rganadilar.
Ta`lim metodi	Ma`ruza, tushuntirish, munozara, muammoli ta`lim
Ta`limni tashkil etish shakli	Ma`ruza, ommaviy, individual
Didaktik vositalar	Ma`ruza matni, slayd-prezentasiya
Ta`limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
Nazorat	O`z-o`zini nazorat qilish, refleksiya

**“Shaxs kamolati ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayon ob`ekti va sub`ekti sifatida”  
mavzusidagi muammoli ma`ruzaning texnologik kartasi**

<b><i>Ish bosqichlari va vaqti</i></b>	<b><i>Faoliyat mazmuni</i></b>	
	<b><i>O`qituvchi</i></b>	<b><i>Talaba</i></b>
<b><i>1-bosqich. O`quv mashg`ulotiga kirish (Da`vat bosqichi) (5 minut)</i></b>	1.1. Mavzuning nomlanishi, rejadagi masalalar va mustaqil o`qish uchun adabiyotlar ro`yxatini taqdim etadi (1-ilova).	Tinglashadi, yozib borishadi.
<b><i>2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut)</i></b>	2.1. Talabalar e`tiboriga birinchi masalaga doir muammoli savol, vazifa va topshiriqni taqdim etadi (2-ilova).	Muammoli savol, vazifa va topshiriqni hal etish orqali o`z tasavvurlarini aniqlashtiradi va boshqalarniki bilan taqqoslaydi. O`z tasavvurlarini boyitadi. Tinglaydilar, munozaralarda ishtirok etadilar.
	2.2. Talabalarni muammoli savol, vazifa va topshiriqni echishga da`vat etadi.	
	2.3. Muammoli savol, vazifa va topshiriqni hal etish orqali birinchi o`quv birligini bayon etadi.	
	2.4. Talabalarga rejadagi ikkinchi masalaga doir muammoli savol, vazifa va topshiriq bilan murojaat etadi (3-ilova).	
	2.5. Muammoli savol, vazifa va topshiriqni hal etilishi asosida ikkinchi o`quv birligi mazmunini ochib beradi.	
	2.6. Talabalarga rejadagi uchinchi masalaga doir muammoli savol va vazifani taqdim etadi (4-ilova).	
	2.7. Muammoli savol va vazifani hal etilishi asosida uchinchi o`quv birligini bayon etadi.	
	2.8. Mavzu yuzasidan yakuniy xulosalarni taqdim etadi.	
<b><i>3-bosqich. Yakuniy</i></b>	3.1. Mavzu bo`yicha yakuniy xulosalarni shakllantiradi.	

<i>(Fikrlash bosqichi)</i> <i>(25 minut)</i>	3.2. Talabalarning mashg`ulot yuzasidan fikr va mulohazalarini bilish maqsadida “Besh minutlik esse” yozishlarini tashkil qiladi (5-ilova).	“Besh minutlik esse” yozishadi. O`z fikrlarini boyitadi va to`ldiradi.
	3.2. “Besh minutlik esse”larni o`qitish orqali talabalarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi.	
	3.3. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi.	

**1-ilova**

***Mavzu: SHaxs kamolati ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayon ob`ekti va sub`ekti sifatida***

***Reja:***

1. SHaxs haqida tushuncha
2. SHaxs rivojlanishiga ta`sir etuvchi omillar.
3. Rivojlanishning yosh va o`ziga xos xususiyatlari.

***Mustaqil o`qish uchun adabiyotlar:***

1. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika. – T.: O`qituvchi, 2001.
2. Подласы́й И. П. Педагогика. V 2-x kn. – M.: VLADOS, 2003.
3. Лихачев Б. Т. Педагогика. - M.: YUrayt, 2003.
4. Сластенин В.А., Исаев И. Ф., ШИьянов Е. Н. Общaya pedagogika. V 2-x kn. – M.: VLADOS, 2003.
5. Toxtaxodjaeva M., Nishonova S., Hasanboev J., Mad`yarova S., Kal`dybekova A va bosh. Pedagogika. – T.: Iqtisod-moliya, 2008.

**2-ilova**

***1-o`quv birligiga doir muammoli savol, vazifa va topshiriqlar***

***1. Muammoli savol.*** Hech o`ylab ko`rganmisiz, nega qarg`a o`rtacha 200-300 yil yashaydi. Lekin uning bolaligi uzog`i bilan besh-olti oy davom etadi. Inson o`rtacha 60-70 yil umr ko`radi. Biroq u 20-25 yoshlarida mustaqil hayot boshlaydi. Mazkur holatni qanday izohlash mumkin?

**2. Muammoli vazifa.** Quyida keltirilgan jumalarni o`qing va jumlagi mos keladigan bir so`z bilan ifodalanadigan javobni toping.

1) o`zi istamagan holda birovga yomonlik qilib qo`ysa ham, mazkur ishidan afsuslanadi, vijdon azobida qiynaladi – .....

individlar ichida bir tur – .....

jamiyatda o`z o`rniga ega, ijtimoiy ahamiyatga ega maqsad yo`lida bir yoki bir nechta kishini o`z orqasidan ergashtira oladi – .....

**3. Muammoli topshiriq.** Quyida keltirilgan atamalar ierarxiyasiga e`tibor qarating va ularning joylashish tartibiga o`z munosabatingizni bildiring.

- 1) rivojlanish;
- 2) shakllanish;
- 3) tarbiya;
- 4) o`z-o`zini tarbiyalash;
- 5) o`z-o`zini takomillashtirish.

**3-ilova**

**2-o`quv birligiga doir muammoli savol, vazifa va topshiriqlar**

**Muammoli savol.** Quyidagi fikrlarga qo`shilasizmi?

“Agar bolalar muntazam tanqid qilinsa, aldashga o`rganadi”;

“Agar bolalar qanday bo`lsa, shundayligicha qabul qilinsa, dunyoni go`zal ko`rishga o`rganadi”;

“Agar bolalarga hurmat bilan munosabatda bo`linsa, ular oliyjanob va saxiy bo`lishni o`rganishadi”.

**2. Muammoli vazifa.** Quyidagi fikrlar bilan tanishing, ularda shaxs rivoji masalasi qaysi nuqtai nazardan o`rganilayotganligini tushuntiring.

1) inson tabiiy mavjudot bo`lib, uning butun xatti-harakatlari tug`ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo`ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi;


2) inson biologik mavjudot sifatida tug`iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarning ta`siri ostida ijtimoiylashadi;

3) insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo`nalganligi – qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi;

4) shaxs yaxlit tavsifga ega bo`lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o`ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta`sir ko`rsatadi. SHu bilan birga ijtimoiy

hayot natijalari – motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o`ynaydi.

**Muammoli topshiriq.** “SHaxsning rivojlanishiga ta`sir ko`rsatuvchi omillar” chizmasini tugallang.



#### 4-ilova

##### 3-o`quv birligiga doir muammoli savol va vazifa

**1. Muammoli savol.** Nega aynan shaxsning rivojlanish jarayonini davrlashtirishda uning yoshi asos qilib olinadi? Nima uchun shaxsning rivojlanish yosh davrlarini tasniflashda turli fanlar bilan bog`liqlikda xilma-xillik ko`zga tashlanadi?

**2. Muammoli vazifa.** O`zingizning bosib o`tgan hayot yo`lingizni ko`z oldingizga keltiring va quyidagi chizmaga asoslanib, rivojlanish bosqichlaringizni davrlashtiring.

<i>Yosh davrining nomlanishi</i>	<i>Etakchi faoliyat</i>	<i>Bilish faoliyati ob`ekti</i>	<i>Yosh davrining yangi xususiyati</i>

#### 5-ilova

##### “Besh minutlik esse”.

Yozma topshiriqning ushbu turida talabalardan quyidagi ikki topshiriqni bajarish: mazkur mavzu bo`yicha ular nimalarni o`rganganliklarini mustaqil bayon etish va ular baribir javobini ololmagan bitta savol berish so`raladi.

#### 1.4. “Yaxlit pedagogik jarayon” mavzusidagi ma`lumotli ma`ruzaning texnologik modeli

<i>Ma`ruzaga ajratilgan vaqt – 2 s</i>	<i>Talabalar soni – 50 ta</i>
<i>O`quv mashg`ulotining shakli</i>	<i>Ma`lumotli ma`ruza</i>
<i>O`quv mashg`ulotining tuzilishi</i>	1. Mashg`ulot mavzusiga kirish. 2. Avval egallangan bilimlarni mustahkamlash. Ma`ruza matnini tarqatish. Taqdimot texnologiyasi asosida ma`ruzani taqdim etish. Mavzuning asosiy tushunchalarini aniqlashtirish. Mavzuni yakunlash.
O`quv mashg`ulotining maqsadi	Talabalarda yaxlit pedagogik jarayon va uning o`ziga xosliklari; yagona pedagogik jarayonning tuzilishi; yagona pedagogik jarayonning qonuniyat va tamoyillari haqida yaxlit tasavvurlarni shakllantirish
<b>Pedagogik vazifalar:</b> - pedagogik jarayonni yaxlit hodisa sifatida tushunishning tarixiy asoslari bilan tanishtirish; - “yagona pedagogik jarayon” tushunchasi mohiyatini tushuntirib berish; -yagona pedagogik jarayonning tuzilishini asoslab berish; -yagona pedagogik jarayonning qonuniyat va tamoyillarini ochib berish.	<b>O`quv faoliyati natijalari:</b> -pedagogik jarayonni yaxlit hodisa sifatida tushunishning tarixiy asoslarini bilib oladilar; -“yagona pedagogik jarayon” tushunchasi mohiyatini anglaydilar; -yagona pedagogik jarayonning tuzilishini o`rganishadi; -yagona pedagogik jarayonning qonuniyat va tamoyillarini o`zlashtiradilar.
Ta`lim metodi	Ma`ruza, tushuntirish, suhbat, “Toifalash jadvali” grafik organayzeri
Ta`limni tashkil etish shakli	Ma`ruza, ommaviy, guruhli
Didaktik vositalar	Ma`ruza matni, slayd-prezentasiya
Ta`limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
Nazorat	O`z-o`zini nazorat qilish, refleksiya

## Ma`lumotli ma`ruzaning texnologik kartasi

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O`qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
<b>1-bosqich. O`quv mashg`ulotiga kirish (Da`vat bosqichi) (5 minut)</b>	<p>1.1.Talabalarni mavzuning nomlanishi, maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2.Mavzu rejasidagi masalalar va mustaqil o`qish uchun adabiyotlar ro`yxatini taqdim etadi.</p>	Tinglashadi, yozib borishadi.
<b>2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (55 minut)</b>	<p>2.1.Mavzu bo`yicha ma`ruza matnini tarqatadi, uning rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishishni taklif etishadi.</p> <p>2.3.Taqdimot texnologiyasi yordamida asosiy nazariy ma`lumotlarni bayon etadi. Jalb qiluvchi savollar bilan murojaat etadi, mavzuning eng asosiy tushunchalarini ajratib ko`rsatadi, har bir o`quv biriligi bo`yicha xulosalar qiladi.</p>	Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etishadi, muhim chizma va jadvallarni o`z daftarlariga qayd etishadi.
<b>3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (20 minut)</b>	<p>3.1. Talabalarning yagona pedagogik jarayon haqidagi tasavvurlarini tizimlashtirish maqsadida maqsadida “Toifalash jadvali” grafik organayzerini taqdim etadi.</p> <p>3.2.“Toifalash jadvali” grafik organayzerini namoyish ettirish orqali talabalarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi.</p> <p>3.3.Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi.</p>	<p>“Toifalash jadvali” grafik organayzerini guruhlarda to`ldirishadi.</p> <p>O`z fikrlarini boyitadi va to`ldiradi.</p> <p>Topshiriqni yozib olishadi.</p>



***Mavzuning tayanch tushunchalari***

**1. Jarayon** – belgilangan natijaga erishishga yo`naltirilgan harakatlar ketma-ketligi.

**2. Yaxlitlik** – ob`ektning ichki birligi, ob`ekt qismlari orasidagi tartiblangan aloqa va bog`lanishlarning mavjudligi.

**3. Pedagogik jarayon** – bu ta`limiy va rivojlantiruvchi vazifalarni hal etishga yo`naltirilgan pedagog va ta`lim oluvchilarning o`zaro harakati davomida rivojlanuvchi maxsus tashkil etilgan faoliyat.

**4. Tizim** – tashqi muhit bilan bog`liqlikda yangi integrallashgan xususiyatga ega maqsadli yo`naltirilgan o`zaro aloqador elementlar majmui.

**5. Pedagogik tizim** – shaxsni rivojlantirishga yo`naltirilgan pedagogik jarayon ishtirokchilarining atrof-muhit, o`z-o`zi bilan hamkorligi asosida o`zaro harakatlanuvchi ijtimoiy shartlangan yaxlitlik.

**6. Pedagogik qarashlar** – yaxlit va mustaqil konsepsiya tarzida murakkablashmagan, biroq ta`lim nazariyasi va amaliyotining ma`lum davrdagi rivojlanish tendensiyasini aks ettiruvchi g`oyalar.

**7. Pedagogik nazariya** – aniq pedagogik konsepsiya va uning real pedagogik amaliyotda qo`llanilishini yoritib beruvchi keng doiradagi tushuncha.


**PEDAGOGIK JARAYON**

**KO'PLAB JARAYONLARNING ICHKI ALOQADORLIGI YIG'INDISIDIR. UNDA O'QITISH, TA'LIM, TARBIYA, SHAXSNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI JARAYONLARI BIRLASHADI.**


**PEDAGOGIK JARAYON KATTALARNING PEDAGOGIK FAOLIYATI VA TARBIYACHILARNING BOSHQARUVCHILIK ROLI TUFAYLI FAOL HAYOTIY FAOLIYAT NATIJASIDA BOLANING O'ZINI-O'ZI O'ZGARTIRISHINING MAQSADGA YO'NALTIRILGAN MAZMUNDOR, TASHKILY HARAkatIDIR.**

**O'QUV-TARBIYA JARAYONINING ASOSIY XUSUSIYATI – YAGONALIK, UNDAGI BARCHA TARKIBIY QISMLARNI SAQLAB QOLISH ZARURIYATI. YAXLITLIK ASOSIGA TA'LIM, TARBIYA VA RIVOJLANISH BIRLIGINI TA'MINLASH PEDAGOGIK JARAYONNING MOHIYATINI TASHKIL ETADI.**





*PEDAGOGIK JARAYONDA ISHTIROK ETADIGAN TIZIM TARKIBIY O`ISMLARIGA QUYIDAGILAR KIRADI:*




***PEDAGOGIK JARAYONNING MURAKKAB ICHKI MUNOSABATLARI  
QUYIDAGILARDA NAMOYON BO`LADI:***

***UNI TASHKIL ETUVCHI JARAYONLARNING BIRLIGI VA  
MUSTAQILLIGI***

***UNDAGI JARAYONLARNING YAXLITLIGI VA TENG HUQUQLILIGI***

***UMUMIY MAVJUDLIK VA O`ZIGA XOSLIKNI SAQLASH***



***YAXLIT PEDAGOGIK JARAYONNING TUZILISHI***

***YAGONA PEDAGOGIK JARAYONNING TARKIBIY QISMLARI***

***ANIQ MAQSADLI TARKIBIY QISM PEDAGOGIK FAOLIYATNING BARCHA KO`P OBRAZLI MAQSAD VA VAZIFALARINI QAMRAB OLADI***

***MAZMUNLI TARKIBIY QISM UMUMIY MAQSAD BILAN BIRGA, XUDDI SHUNDAY ANIQ VAZIFANI QO`YADIGAN MA'NONI AKS ETTIRADI.***

***FAOLIYATLI TARKIBIY QISM – JARAYONNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHDA PEDAGOGLAR VA TARBIYALANUVCHILARNING O`ZARO HAMKORLIGI***

***JARAYONNING NATIJALI TARKIBIY QISMI UNI AMALGA OSHIRISH SAMARADORLIGINI AKS ETTIRADI***

<b><i>Pedagogik jarayonning qonuniyatlari</i></b>		
<b><i>I. P. Podlasiy tasnifi bo`yicha:</i></b>	<b><i>M. Kodjaspirov tasnifi bo`yicha:</i></b>	<b><i>A.S.Kaldibekova tasnifi bo`yicha:</i></b>
<p>Tarbiya va ijtimoiy tizimlarning aloqadorligi: aniq tarixiy sharoitlardagi tarbiya xarakteri jamiyatning ehtiyojlari, iqtisodiy, milliy-madaniy o`ziga xosliklari bilan aniqlanadi.</p> <p>Ta`lim va tarbiya orasidagi: bu jarayonlarning o`zaro bog`liqligini, ularning ko`ptomonlama o`zaro ta`sirini, birligini belgilab beruvchi aloqadorlik.</p> <p>Tarbiya va faoliyatning aloqadorligi: tarbiyalash – faoliyatning turli turlariga tarbiyalanuvchilarni jalb etish demakdir.</p> <p>Tarbiya va shaxs faolligining aloqadorligi: agar uning ob`ekti(shaxs) bir paytning o`zida sub`ekti sifatida aks etsa, tarbiya muvafaqqiyatli amalga oshadi, ya`ni shaxs o`zining faol xulq-atvorini, shaxsiy erkinligini, mustaqilligini, faoliyatdagi ehtiyojini namoyon etadi.</p> <p>Tarbiya va muloqotning aloqadorligi: tarbiya jarayoni har doim odamlar – o`qituvchilar va ta`lim oluvchilarning o`zaro harakatida kechadi.</p>	<p>Ijtimoiy shart-sharoitlar bilan shartlanganlik qonuniyati: ta`lim va tarbiyaning ijtimoiy ehtiyojlar va sharoitlarga bog`liqligi.</p> <p>Inson tabiati bilan bog`langanlik qonuniyati: shaxsni shakllantirishda muloqot va faoliyatning hal qiluvchilik roli;</p> <p>ta`lim va tarbiyaning ta`lim oluvchilarning yosh va individual o`ziga xosliklariga bog`liqligi.</p> <p>Tarbiviy jarayon mohiyatining shartlanganlik</p>	<p>Ta`lim va tarbiya jamiyatning ehtiyojlari va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlariga bog`liq holda amalga oshadi.</p> <p>Tarbiya, o`qitish, ma`lumot va rivojlanishning o`zaro bog`liqligi qonuniyati.</p> <p>Tarbiya va o`zini-o`zi tarbiyalashning birligi qonuniyati.</p> <p>Ta`lim va tarbiya jarayonida muloqotning hal qiluvchilik roli qonuniyati.</p> <p>Pedagogik jarayonda ta`lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini</p>

<p>Bola tarbiyasi muvaffaqiyati to`g`ridan-to`g`ri shaxslararo aloqalarning intensivligi va boyligiga bog`liq bo`ladi.</p> <p>Pedagogik jarayonning dinamik qonuniyati – ta`lim oluvchining keyingi barcha muvaffaqiyatlarining qimmatini uning dastlabki bosqichlardagi muvaffaqiyatiga bog`liq bo`ladi.</p> <p>Pedagogik jarayonda shaxsning rivojlanishi qonuniyati – shaxs rivoji darajasi va sur`ati:</p> <p>irsiyat;</p> <p>tarbiya va o`quv muhiti;</p> <p>pedagogik ta`sir etish usul va vositalarining qo`llanishiga bog`liq bo`ladi.</p> <p>O`quv-tarbiya jarayonini boshqarish qonuniyati – pedagogik ta`sirning samaradorligi:</p> <p>ta`lim oluvchilar va pedagoglar orasidagi qayta aloqalarning intensivligi;</p> <p>ta`lim oluvchilarga ko`rsatiladigan korrektsiyali ta`sirlarning asoslanganligi hamda xarakteri, qimmatiga bog`liq bo`ladi.</p> <p>Pedagogik jarayonda hissiyot, mantiqiylik va</p>	<p>qonuniyati:</p> <p>tarbiya, o`qitish, ma`lumot va shaxs rivoji jarayonlarining o`zaro bog`liqligi;</p> <p>o`quv-tarbiyaviy jarayonda shaxs va ijtimoiy guruhlarining o`zaro aloqasi.</p>	<p>hisobga olish.</p> <p>Pedagogik jarayonda jamoa va shaxsning o`zaro aloqadorlik qonuniyati.</p> <p>Pedagogik jarayon vazifalari, shakllari, metodlarining o`zaro aloqadorlik qonuniyati.</p>
--	---	---



<p>amaliyotning birligi qonuniyati – o`quv-tarbiya jarayonining samaradorligi:</p> <p>hissiy idrokning sifati va intensivligi;</p> <p>idrok etilganning mantiqiy anglanishi;</p> <p>anglanganning amaliy qo`llanilishiga bog`liq bo`ladi.</p> <p>Tashqi(pedagogik) va ichki(bilish) faoliyatning birligi qonuniyati – pedagogik jarayonning samaradorligi:</p> <p>pedagogik faoliyatning sifati;</p> <p>tarbiyalanuvchilarning shaxsiy o`quv-tarbiyaviy faoliyatining sifatini shart qilib qo`yadi.</p>		
---	--	--

<i>Pedagogik jarayonning tamoyillari</i>	
<i>YU.K.Babanskiy tasnifi bo`yicha:</i>	<i>B.T.Lixachev tasnifi bo`yicha:</i>
<p>pedagogik jarayonning maqsadga yo`naltirilganligi;</p> <p>ta`lim va tarbiya mazmunining ilmiyligi;</p> <p>ta`lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, tushunarlilik;</p> <p>tizimlilik va ketma-ketlik;</p> <p>onglilik, faollik, tashabbuskorlik, ta`lim oluvchilarning ijodkorligi;</p> <p>ta`lim va tarbiyaning ijtimoiy foydali, ishlab chiqarish mehnati bilan aloqasi;</p> <p>ta`lim va tarbiyaning jamoaviy xarakteri;</p> <p>ko`rgazmalilik;</p> <p>ongli talabchanlik bilan birgalikda ta`lim oluvchi shaxsini hurmat qilish;</p> <p>ta`lim va tarbiyaning qo`lay metod, shakl va</p>	<p>o`quv-tarbiya jarayonining ijtimoiy-qadriyatli maqsadga yo`nalganligi;</p> <p>ta`lim oluvchilar faoliyatining turli turlarining o`zaro harakatini tashkil etishga kompleks yondashuvni amalga oshirilishi;</p> <p>butun o`quv-tarbiyaviy ishlarning hayot bilan bog`liqligi;</p> <p>ta`lim va tarbiya jarayonida har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish, jamoada ta`lim va tarbiya;</p> <p>ta`lim oluvchilarga talabchanlik va hurmatning birligi;</p> <p>ta`lim oluvchilar hayotiga rahbarlik qilishda ularning tashabbuskorliklarini hisobga olish;</p> <p>barcha ta`lim oluvchilar hayotini estetizasiyalash;</p> <p>ta`lim va tarbiyaning boshqaruvchilik roli;</p> <p>ta`lim oluvchilarning bilish, mehnat va boshqa faoliyatlarini rag`batlantirishni hisobga olish, ularda ishga bevosita qiziqish uyg`otish orqali axloqiy-irodaviy kuchini faollashtirish;</p>

<p>vositalarini tanlab olish;</p> <p>sababiylik, onglilik hamda ta`lim, tarbiya va rivojlanishining amaliy natijalari;</p> <p>tarbiyaga kompleks yondashuv.</p>	<p>ta`lim oluvchilarda barcha turdagi fikrlashni rivojlanishini hisobga olish, ketma-ketlik va tizimlilik;</p> <p>ko`rgazmalilik;</p> <p>tushunarlilik;</p> <p>sababiylik.</p>
---	--

**9-ilova**

***“Yaxlit pedagogik jarayon” mavzusiga doir toifalash jadvali***

<b><i>“Yagona pedagogik jarayon” tushunchasi tavsifi</i></b>	<b><i>Yaxlit pedagogik jarayonning tuzilishi va tarkibiy qismlari</i></b>	<b><i>Yaxlit pedagogik jarayonning qonuniyatlari</i></b>	<b><i>Yaxlit pedagogik jarayonning tamoyillari</i></b>

--	--	--	--

**1.5. “Didaktika – ta`lim nazariyasi sifatida” mavzusidagi vizual ma`ruza ta`lim texnologiyasi modeli**

<i>Ma`ruzaga ajratilgan vaqt – 2 s</i>	<i>Talabalar soni – 50 ta</i>
<i>O`quv mashg`ulotining shakli</i>	<i>Vizual ma`ruza</i>
<i>Mashg`ulot rejasi</i>	1.Ta`lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. 2.Didaktikaning ob`ekti, predmeti, vazifa va funksiyalari. 3.Didaktikaning boshqa fanlar bilan bog`liqligi. 4. Didaktikaning asosiy kategoriyalari.
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi</i>	Talabalarda ta`lim nazariyasi sifatida didaktika haqida yaxlit tasavvurlarni shakllantirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> -“didaktika” tushunchasi, uning ob`ekti va predmeti bilan tanishtirish; - didaktikaning funksiya-larini sharhlash; -didaktikaning asosiy kategoriyalari mohiyatini tushuntirib berish; - didaktikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligini ochib berish.	<i>O`quv faoliyati natijalari:</i> -“didaktika” tushunchasi, uning ob`ekti va predmetini bilib olishadi ; - didaktikaning funksiyalarini o`rganishadi; -didaktikaning asosiy kategoriyalari bilan tanishadilar; -didaktikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi haqida ma`lumotga ega bo`ladilar..
Ta`lim metodi	Vizual-ma`ruza, tushuntirish, chalkashtirilgan atamalar, “Klaster” grafik organayzeri
Ta`limni tashkil etish shakli	Ma`ruza, ommaviy, guruhli, individual
Didaktik vositalar	Ma`ruza matni, slayd-prezentasiya, vizual materiallar
Ta`limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
Nazorat	O`z-o`zini nazorat qilish, refleksiya

**“Didaktika – ta`lim nazariyasi sifatida” mavzusidagi vizual  
ma`ruzaning texnologik kartasi**

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O`qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
<i>1-bosqich. O`quv mashg`ulotiga kirish (Da`vat bosqichi) (5 minut)</i>	1.1.Talabalarni mavzuning nomlanishi, maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi (1-ilova).	Tinglashadi, yozib borishadi.
	1.2.Mavzu rejasidagi masalalar va mustaqil o`qish uchun adabiyotlar ro`yxatini taqdim etadi (2-ilova).	Rejadagi masalalar bilan tanishadilar va adabiyotlar ro`yxatini yozib oladilar
	1.3.Tartiblanmagan holatdagi mavzuga doir asosiy tushunchalarni taqdim etadi (3-ilova) va talabalardan ularni to`g`ri ketma-ketlikda joylashtirishni so`raydi.	Mavzuga doir asosiy tushunchalarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirishadi.
<i>2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (55 minut)</i>	2.1.“Didaktika” tushunchasining mazmun va mohiyatini yoritib beradi (4-ilova).	“Didaktika” tushunchasining ma`nosini va mazkur tushunchani fanga kim kiritganini bilib oladilar.
	2.2. Didaktikaning ob`ekti, predmeti, vazifa va funksiyalari bilan tanishtiradi (5-ilova).	Didaktikaning ob`ekti, predmeti, vazifa va funksiyalarini bilib oladilar.
	2.3.Didaktikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligini ko`rsatib beradi (6-ilova).	Didaktikaning metodika, tibbiyot, siyosatshunoslik, falsafa, etnologiya, pedagogik psixologiya bilan o`zaro aloqadorlikda o`rganishi haqida ma`lumotga ega bo`oladilar.
	2.4.Didaktikaning asosiy kategoriyalarini bayon etadi (7-ilova).	Didaktikaning asosiy kategoriyalari bilan tanishadilar va o`zlashtiradilar.

<b>3-bosqich.</b> <b>Yakuniy</b> <b>(Fikrlash</b> <b>bosqichi)</b> <b>(20 minut)</b>	3.1. Talabalarning didaktika haqidagi tasavvurlarini tizimlashtirish maqsadida maqsadida “Klaster” grafik organayzerini taqdim etadi (8-ilova).	“Klaster” grafik organayzerini guruhlarda to`ldirishadi.
	3.2. “Klaster” grafik organayzerini namoyish ettirish orqali talabalarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi.	O`z fikrlarini boyitadi va to`ldiradi.
	3.3. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi.	Topshiriqni yozib olishadi.

### 1-ilova

#### **Mavzu: Didaktika – ta`lim nazariyasi**

**Maqsad:** didaktika pedagogik ta`lim nazariyasi sifatida o`zining ob`ekti, predmeti, vazifalari va asosiy kategoriyalariga ega ekanligini bilib olish.

**Kutiladigan natija:** “didaktika” tushunchasi, uning ob`ekti va predmeti, vazifa va funksiyalari, didaktikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, didaktikaning asosiy kategoriyalarini o`zlashtirish.

### 2-ilova

#### **Reja:**

1. Ta`lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida.
2. Didaktikaning ob`ekti, predmeti, vazifa va funksiyalari.
3. Didaktikaning boshqa fanlar bilan bog`liqligi.
4. Didaktikaning asosiy kategoriyalari.

#### **Mustaqil o`qish uchun adabiyotlar:**

1. Pedagogika. /A.Q.Munavarov tahriri ostida. – T.: O`qituvchi, 1996. – 62-63 betlar.
2. Hasanboev J. va b., Pedagogika – T.: Fan, 2006. – 167-171 betlar.
4. Toxtaxodjaeva M. Va b., Pedagogika. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008.
5. Подласы́й И.П. Педагогика. V 2-x knigax. 1-chast`. M.: VLADOS, 1999. – st. 29-316.
6. Современны́й сло́варь по педагогике. Sost. Рапо́севич Е.С. М.: Современное слово, 2001. – st. 181-184.

### 3-ilova

#### *Mavzuga doir asosiy tushunchalar*

Quyidagi mavzuga doir asosiy tushunchalar bilan tanishing va ularni to`g`ri ketma-ketlikda joylashtiring.

- ( ) Didaktikaning asosiy kategoriyalari.
- ( ) Didaktikaning ob`ekt va predmeti.
- ( ) Didaktika pedagogik tizim sifatida.
- ( ) Didaktikaning vazifa va funksiyalari.
- ( ) Didaktikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
- ( ) Didaktikaning tushunchalar tizimi

### 3-a ilova

#### *Mavzuga doir asosiy tushunchalar (to`g`ri javoblar)*

1. Didaktika pedagogik nazariya sifatida.
2. Didaktikaning ob`ekt va predmeti.
3. Didaktikaning vazifa va funksiyalari.
4. Didaktikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
5. Didaktikaning tushunchalar tizimi.

### 4-ilova

**Didaktika** (ot grech. *didaktikos* – o`qitaman, o`rgataman) – ta`lim jarayoni, mazmuni, qonuniyat va tamoyillari, shakl, metod va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogik ta`lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasi.



“**Didaktika**” atamasi ilk bor nemis pedagogi *Vol`fgang Ratke* tomonidan “Didaktika, yoki ta`lim san`ati” (1613 g.) deb nomlangan ma`ruzasida qo`llanilgan



Didaktika ilmiy bilimlar tizimi sifatida birinchi marotaba chex pedagogi *YAn Amos Komenskiy*ning “Buyuk didaktika” (1657 y.) asarida ochib berilgan.

### 5-ilova

**Didaktikaning ob`ekti** – o`sib kelayotgan avlodga ijtimoiy tajribalarni, milliy va jahon madaniyatini uzatishga yo`naltirilgan faoliyatning asosiy turi hisoblangan ta`lim berishdir.




**Didaktikaning predmeti** sifatida o`rgatish (o`qituvchi faoliyati) va o`rganish (o`quvchilarning bilish faoliyati), ularning o`zaro harakati aks etadi.

**Didaktikaning vazifalari** quyidagilarda namoyon bo`ladi:

- ta`lim jarayoni va uni amalga oshirish shart-sharoitlarini bayon etish va tushuntirish;
- yangi ta`lim tizimi, ta`limning yangi texnologiyalarini, takomillashgan shakllarini ishlab chiqish;
- ta`lim jarayoniga ta`sir etuvchi omillar, ta`lim qonuniyat va tamoyillarini tahlil etish va izohlash.


Real ta'lim jarayonini o`rganish, ta'limning turli tomonlari orasidagi aloqadorliklarni hosil qilish, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendentsiyasi va istiqbolli yunalishlarini rivojlantirish

Ta'lim mazmunini tanlab olish muammosini ustida ishlash, ta'lim tamoyillari, ta'lim metod va vositalarini qo`llashning me'yoriy ta'minotini hosil qilish



Yangi ta'lim texnologiyalarini va innovatsion faoliyat asoslarini ishlab chiqish

## 6-ilova




## 7-ilova

Didaktikaning tushunchalar tizimi o`z ichiga falsafiy, umumnazariy va xususiynazariy tushunchalarni qamrab oladi.


**Falsafiy kategoriyalar** – “umumiylik va alohidalik”, “mohiyat va hodisa”, qarama-qarshilik, aloqadorlik va boshqalar.

Umumnazariy tushunchalar – “tizim”, “tuzilish”, “funksiya”, “element” va b.

O`zaro yaqin fanlarga doir tushunchalar: “idrok etish”, “o`zlashtirish”, “ko`nikma”, “rivojlanish”, “boshqarish”, “qayta aloqa”.



**8-ilova**



**1.6. “Didaktika – ta`lim nazariyasi sifatida” mavzusidagi vizual ma`ruza ta`lim texnologiyasi modeli**

<i>Ma`ruzaga ajratilgan vaqt – 2 s</i>	<i>Talabalar soni – 50 ta</i>
<i>O`quv mashg`ulotining shakli</i>	<i>Vizual ma`ruza</i>
<i>Mashg`ulot rejasi</i>	1. Didaktikaning boshqa fanlar bilan bog`liqligi. 2. Didaktikaning asosiy kategoriyalari.
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi</i>	Talabalarda ta`lim nazariyasi sifatida didaktika haqida yaxlit tasavvurlarni shakllantirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> -“didaktika” tushunchasi, uning ob`ekti va predmeti bilan tanishtirish; - didaktikaning funktsiyalarini sharhlash; -didaktikaning asosiy kategoriyalari mohiyatini tushuntirib berish; - didaktikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligini ochib berish.	<i>O`quv faoliyati natijalari:</i> - didaktika” tushunchasi, uning ob`ekti va predmetini bilib olishadi ; - didaktikaning funktsiyalarini o`rganishadi; -didaktikaning asosiy kategoriyalari bilan tanishadilar; -didaktikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi haqida ma`lumotga ega bo`ladilar..
Ta`lim metodi	Vizual-ma`ruza, tushuntirish, chalkashtirilgan atamalar, “Klaster” grafik organayzeri
Ta`limni tashkil etish shakli	Ma`ruza, ommaviy, guruhli, individual
Didaktik vositalar	Ma`ruza matni, slayd-prezentasiya, vizual materiallar
Ta`limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
Nazorat	O`z-o`zini nazorat qilish, refleksiya

**“Didaktika – ta`lim nazariyasi sifatida” mavzusidagi vizual ma`ruzaning texnologik kartasi**

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O`qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
<b>1-bosqich. O`quv mashg`ulotiga kirish (Da`vat bosqichi) (5 minut)</b>	1.1.Talabalarni mavzuning nomlanishi, maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi (1-ilova).	Tinglashadi, yozib borishadi.
	1.2.Mavzu rejasidagi masalalar va mustaqil o`qish uchun adabiyotlar ro`yxatini taqdim etadi (2-ilova).	Rejadagi masalalar bilan tanishadilar va adabiyotlar ro`yxatini yozib oladilar
	1.3.Tartiblanmagan holatdagi mavzuga doir asosiy tushunchalarni taqdim etadi (3-ilova) va talabalardan ularni to`g`ri ketma-ketlikda joylashtirishni so`raydi.	Mavzuga doir asosiy tushunchalarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirishadi.
<b>2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (55 minut)</b>	2.1.“Didaktika” tushunchasining mazmun va mohiyatini yoritib beradi (4-ilova).	“Didaktika” tushunchasining ma`nosini va mazkur tushunchani fanga kim kiritganini bilib oladilar.
	2.2. Didaktikaning ob`ekti, predmeti, vazifa va funksiyalari bilan tanishtiradi (5-ilova).	Didaktikaning ob`ekti, predmeti, vazifa va funksiyalarini bilib oladilar.
	2.3. Didaktikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligini ko`rsatib beradi (6-ilova).	Didaktikaning metodika, tibbiyot, siyosatshunoslik, falsafa, etnologiya, pedagogik psixologiya bilan o`zaro aloqadorlikda o`rganishi haqida ma`lumotga ega bo`oladilar.
	2.4.Didaktikaning asosiy kategoriyalarini bayon etadi (7-ilova).	Didaktikaning asosiy kategoriyalari bilan tanishadilar va o`zlashtiradilar.

<b>3-bosqich.</b> <b>Yakuniy</b> <b>(Fikrlash</b> <b>bosqichi)</b> <b>(20 minut)</b>	3.1. Talabalarning didaktika haqidagi tasavvurlarini tizimlashtirish maqsadida maqsadida “Klaster” grafik organayzerini taqdim etadi (8-ilova).	“Klaster” grafik organayzerini guruhlarda to`ldirishadi.
	3.2. “Klaster” grafik organayzerini namoyish ettirish orqali talabalarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi.	O`z fikrlarini boyitadi va to`ldiradi.
	3.3. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi.	Topshiriqni yozib olishadi.

### 1-ilova

#### **Mavzu: Didaktika – ta`lim nazariyasi**

**Maqsad:** didaktika pedagogik ta`lim nazariyasi sifatida o`zining ob`ekti, predmeti, vazifalari va asosiy kategoriyalariga ega ekanligini bilib olish.

**Kutiladigan natija:** “didaktika” tushunchasi, uning ob`ekti va predmeti, vazifa va funksiyalari, didaktikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, didaktikaning asosiy kategoriyalarini o`zlashtirish.

### 2-ilova

#### **Reja:**

1. Ta`lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida.
2. Didaktikaning ob`ekti, predmeti, vazifa va funksiyalari.
3. Didaktikaning boshqa fanlar bilan bog`liqligi.
4. Didaktikaning asosiy kategoriyalari.

#### **Mustaqil o`qish uchun adabiyotlar:**

1. Pedagogika. /A.Q.Munavarov tahriri ostida. – T.: O`qituvchi, 1996. – 62-63 betlar.
2. Hasanboev J. va b., Pedagogika – T.: Fan, 2006. – 167-171 betlar.
4. Toxtaxodjaeva M. Va b., Pedagogika. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008.
5. Подласы́й И.П. Педагогика. V 2-x knigax. 1-chast`. M.: VLADOS, 1999. – st. 29-316.
6. Современны́й словарь ` по педагогике. Sost. Рапо́евич Е.С. М.: Современное слово, 2001. – st. 181-184.

***Mavzuga doir asosiy tushunchalar***

Quyidagi mavzuga doir asosiy tushunchalar bilan tanishing va ularni to`g`ri ketma-ketlikda joylashtiring.

- ( ) Didaktikaning asosiy kategoriyalari.
- ( ) Didaktikaning ob`ekt va predmeti.
- ( ) Didaktika pedagogik tizim sifatida.
- ( ) Didaktikaning vazifa va funksiyalari.
- ( ) Didaktikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
- ( ) Didaktikaning tushunchalar tizimi

3-a ilova

***Mavzuga doir asosiy tushunchalar  
(to`g`ri javoblar)***

1. Didaktika pedagogik nazariya sifatida.
2. Didaktikaning ob`ekt va predmeti.
3. Didaktikaning vazifa va funksiyalari.
4. Didaktikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
5. Didaktikaning tushunchalar tizimi.

4-ilova

***Didaktika*** (ot grech. *didaktikos* – o`qitaman, o`rgataman) – ta`lim jarayoni, mazmuni, qonuniyat va tamoyillari, shakl, metod va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogik ta`lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasi.



***“Didaktika”*** atamasi ilk bor nemis pedagogi ***Vol`fgang Ratke*** tomonidan ***“Didaktika, yoki ta`lim san`ati”*** (1613 g.) deb nomlangan ma`ruzasida qo`llanilgan



Didaktika ilmiy bilimlar tizimi sifatida birinchi marotaba chex pedagogi ***YAn Amos Komenskiyning*** ***“Bu yuk didaktika”*** (1657 y.) asarida ochib berilgan.

5-ilova

***Didaktikaning ob`ekti*** – o`sb kelayotgan avlodga ijtimoiy tajribalarni, milliy va jahon madaniyatini uzatishga yo`naltirilgan faoliyatning asosiy turi hisoblangan ta`lim berishdir.


**Didaktikaning predmeti** sifatida o`rgatish (o`qituvchi faoliyati) va o`rganish (o`quvchilarning bilish faoliyati), ularning o`zaro harakati aks etadi.

**Didaktikaning vazifalari** quyidagilarda namoyon bo`ladi:

- ta`lim jarayoni va uni amalga oshirish shart-sharoitlarini bayon etish va tushuntirish;
- yangi ta`lim tizimi, ta`limning yangi texnologiyalarini, takomillashgan shakllarini ishlab chiqish;
- ta`lim jarayoniga ta`sir etuvchi omillar, ta`lim qonuniyat va tamoyillarini tahlil etish va izohlash.


Real ta'lim jarayonini o`rganish, ta'limning turli tomonlari orasidagi aloqadorliklarni hosil qilish, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendentsiyasi va istiqbolli yunalishlarini rivojlantirish

Ta'lim mazmunini tanlab olish muammosini ustida ishlash, ta'lim tamoyillari, ta'lim metod va vositalarini qo`llashning me'yoriy ta'minotini hosil qilish





## 6-ilova



## 7-ilova


Didaktikaning tushunchalar tizimi o`z ichiga falsafiy, umumnazariy va xususiy-nazariy tushunchalarni qamrab oladi.

***Falsafiy kategoriyalar*** – “umumiylik va alohidalik”, “mohiyat va hodisa”, qarama-qarshilik, aloqadorlik va boshqalar.


Umumnazariy tushunchalar – “tizim”, “tuzilish”, “funksiya”, “element” va b.

O`zaro yaqin fanlarga doir tushunchalar: “idrok etish”, “o`zlashtirish”, “ko`nikma”, “rivojlanish”, “boshqarish”, “qayta aloqa”.

## Didaktikaning asosiy kategoriyalari



### 8-ilova



**1.7. “Ta`lim jarayoni – yagona tizim sifatida. Ta`lim qonuniyatlari va tamoyillari ” mavzusidagi ma`lumotli ma`ruza ta`lim texnologiyasi modeli**

<i>Ma`ruzaga ajratilgan vaqt – 2 s</i>	<i>Talabalar soni – 50 ta</i>
<i>O`quv mashg`ulotining shakli</i>	<i>Ma`lumotli ma`ruza</i>
<i>Mashg`ulot rejasi</i>	<p>1.Ta`lim jarayoni yagona tizim sifatida. Ta`lim tushunchasi va mohiyati.</p> <p>2.Ta`lim jarayonining yagona tizim sifatidagi tavsifi. Ta`lim funksiyalari.</p> <p>3.O`qituvchi va o`quvchilarning ta`lim jarayonidagi faoliyatlari. O`qituvchi faoliyatining vazifasi va tuzilishi.Ta`lim jarayonida o`quvchilarning faoliyati.</p> <p>4. Bilimlarni o`zlashtirish jarayonining tuzilishi.</p> <p>5.Ta`lim qonuniyatlari va tamoyillarining shakllanish tarixi. Ta`lim qonuniyatlari.Ta`lim tamoyillari.</p>
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi</i>	Talabalarda ta`lim jarayoni yaxlit tizim ekanligi haqidagi yaxlit tasavvurlarni shakllantirish.
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <p>1.Ta`lim tushunchasi va uning mohiyatini bayon etish.</p> <p>2.Ta`lim jarayonining yaxlit tizim sifatidagi tavsifini tushuntirish.</p> <p>3.Ta`lim funksiyalari haqida ma`lumot berish .</p> <p>4.O`qituvchi va o`quvchilarning ta`lim jarayonidagi faoliyatlarini yoritib berish.</p> <p>5.Bilimlarni o`zlashtirish jarayonining tuzilishini ko`rsatib berish</p> <p>6.Ta`lim qonuniyatlari va tamoyillarini yoritib berish.</p>	<p><i>O`quv faoliyati natijalari:</i></p> <p>- ta`lim tushunchasi va uning mohiyatini bilib oladi;</p> <p>-ta`lim jarayonining yagona tizim sifatidagi tavsifini anglab oladi;</p> <p>-ta`limning ta`lim berish, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi funksiyalari haqida ma`lumotga ega bo`ladi;</p> <p>-o`qituvchining boshqaruvchilik faoliyati va o`quvchilarning o`quv-bilish faoliyatining tarkibiy qismlarini bilib oladi.</p> <p>-bilimlarni o`zlashtirish jarayonining tuzilishini o`zlashtiradi;</p> <p>-ta`lim qonuniyatlari va tamoyillari haqida ma`lumotga ega bo`ladi.</p>
Ta`lim metodi	Ma`ruza, tushuntirish, suhbat
Ta`limni tashkil etish shakli	Ma`ruza, ommaviy

Didaktik vositalar	Ma`ruza matni, slayd-prezentasiya, vizual materiallar
Ta`limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
Nazorat	O`z-o`zini nazorat qilish, refleksiya

**“Ta`lim jarayoni yagona tizim sifatida. Ta`lim qonuniyatlari va tamoyillari”  
mavzusidagi vizual ma`ruzaning texnologik kartasi**

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O`qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
<b>1-bosqich. O`quv mashg`ulotiga kirish (Da`vat bosqichi) (5 minut)</b>	1.1.Talabalarni mavzuning nomlanishi, mavzu rejasidagi masalalar va mustaqil o`qish uchun adabiyotlar ro`yxatini taqdim etadi (1-ilova).	Tinglashadi, yozib borishadi.
<b>2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (55 minut)</b>	1.Ta`lim tushunchasi va uning mohiyatini bayon etish (2-ilova).	“Ta`lim” va “ta`lim jarayoni” tushunchalarining o`zaro farqini bilib oladilar
	2.Ta`lim jarayonining yaxlit tizim sifatidagi tavsifini tushuntirish (3-ilova).	Ta`lim jarayoni ta`lim maqsadi, ta`lim natijasi, o`qituvchi faoliyati va o`quvchi faoliyati, o`quv material mazmuni, ta`lim metodlari, ta`lim shakllari, ta`lim vositalari kabi tarkibiy qismlar yig`indisi ekanligi haqida ma`lumotga ega bo`ladilar
	3.Ta`lim funksiyalari haqida ma`lumot berish (4-ilova).	Ta`limning ta`lim berish, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi funksiyalari mohiyatini idrok etadilar

	O`qituvchi va o`quvchilarning ta`lim jarayonidagi faoliyatlarini yoritib berish (5-ilova).	O`qituvchining boshqaruvchilik faoliyati tarkibiy qismlari (rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish, natijalarni tahlil etish va baholash) hamda o`quvchilarning bilim olish faoliyati haqida ma`lumotga ega bo`ladilar
	5.Bilimlarni o`zlashtirish jarayonining tuzilishini ko`rsatib berish (6-ilova)	Bilimlarni o`zlashtirish jarayonining zvenolari (idrok etish, anglash, bilimlarni mustahkamlash va amaliyotda qo`llash)ni o`zlashtiradilar
	6.Ta`lim qonuniyatlari va tamoyillarini yoritib berish (7-ilova).	Ta`limning umumiy qonuniyatlari hamda ta`limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillari haqida tasavvurga ega bo`lishadi
<b>3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (20 minut)</b>	3.1.Talabalarning slayd-prezentasiya materiallari bilan qayta tanishib chiqishlarini tashkil etadi.	Slayd-prezentasiya materiallari bilan tanishib chiqadilar
	3.2.Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi.	Topshiriqni yozib olishadi.

***Mavzu: Ta`lim jarayoni yagona tizim sifatida. Ta`lim qonuniyatlari va tamoyillari***

***Reja:***

1. Ta`lim jarayoni yagona tizim sifatida. Ta`lim tushunchasi va mohiyati.
2. Ta`lim jarayonining yagona tizim sifatidagi tavsifi. Ta`lim funksiyalari.
3. O`qituvchi va o`quvchilarning ta`lim jarayonidagi faoliyatlari. O`qituvchi faoliyatining vazifasi va tuzilishi. Ta`lim jarayonida o`quvchilarning faoliyati.
4. Bilimlarni o`zlashtirish jarayonining tuzilishi.
5. Ta`lim qonuniyatlari va tamoyillarining shakllanish tarixi. Ta`lim qonuniyatlari. Ta`lim tamoyillari.

***Adabiyotlar:***

1. Pedagogika. /A.Q.Munavarov tahriri ostida. – T.: O`qituvchi, 1996.
2. Hasanboev J. va b., Pedagogika – T.: Fan, 2006.
3. Toxtaxodjaeva M. Va b., Pedagogika. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008.
4. Подласы I.P. Pedagogika. V 2-x knigax. 1-chast`. M.: VLADOS, 1999.
5. Kaldibekova A.S., Xodjaev B.X. O`quvchilarning bilish faolligini oshirish yo`llari. T.: TDPU, 2006.

2-ilova

Ta`lim o`quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularning bilish qobiliyatlarini o`stirish, ularda amaliy ko`nikma va malakalar, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishga yo`naltirilgan jarayondir.

Ta`lim va ta`lim jarayoni (didaktik jarayon) sinonim tushunchalar emas. Jarayon bu yaxlit pedagogik hodisa, pedagogik faoliyatning tarkibiy qismi sifatida ta`lim tizimining muayyan holatini o`zgartirish hisoblanadi. Jarayon mohiyatini V.P.Bespal `ko tomonidan taklif etilgan quyidagi formula asosida to`laqonli anglash mumkin:

$$DJ=M+O`f+B$$

Bu erda:

DJ – didaktik jarayon;

M – o`quvchilarning o`qish (ta`lim olish) motivasiyasi;

O`f – o`quvchilarning o`zlashtirish faoliyati;


B – o`quvchilarning bilish faoliyatlarini boshqarish.

Ta'limni tashkil etish metodikasi ta'lim mazmunini shakllantirish kabi erkin tanlanishi mumkin emas. Bu borada muayyan ijtimoiy, psixologik va pedagogik talablarni inobatga olish zarur. Bunday talablar ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillari deb yuritiluvchi tamoyillar mazmunida o'z ifodasini topgan:

- ta'limning izchilligi, tizimliliği, ketma-ketligi;
- ta'limda onglilik va ijodiy faollik;
- ta'limda ko'rgazmalilik;
- ta'limning samaradorligi va ishonchliligi (mustahkamligi);
- ta'limning tushunarliğı;
- guruhli va individual ta'lim birligi;
- ta'limning o'quvchilar yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi;
- oqilona talabchanlik bilan bola shaxsini hurmat qilishning muvofiqliligi;
- pedagogik hamkorlik.

Ta'limning izchilligi, tizimliliği, ketma-ketligi tamoyili bilish bosqchlarining ob'ektivligini anglatadi.

### 3-ilova



***Ta`lim jarayonining tuzilishi modeli***

“Funksiya” tushunchasi “ta`lim vazifalari” tushunchasiga yaqindir. Ta`lim funksiyasi ta`lim jarayoni mohiyatini ifoda etadi, vazifasi esa ta`limning komponentlaridan biri hisoblanadi.

Didaktika ta`lim jarayonining quyidagi uchta funksiyasini ajratib ko`rsatadi: ta`lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash.

Ta`lim berish funksiyasi ta`lim jarayonining o`quvchilarda bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Ta`lim natijasi sifatida bilimlarining to`laligi, chuqurligi, tizimliliigi, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi holatlar ta`lim jarayonining metodik jihatdan to`g`ri tashkil etilganligini ifodalaydi.

Ta`limning rivojlantiruvchi funksiyasi ta`lim jarayonida, bilimlarni o`zlashtirish jarayonida o`quvchining rivojlanishi sodir bo`lishini ko`rsatadi. Rivojlanish quyidagi yo`nalishlarda sodir bo`ladi: nutqi rivojlanishi, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emosional-irodaviy va ehtiyoj-sababli sohalari rivojlanadi. To`g`ri tashkil etilgan ta`lim shaxsni har doim rivojlantiradi, lekin o`qituvchi va o`quvchining shaxsiy har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan maxsus o`zaro munosabatlarida rivojlantirish funksiyasi yanada samaraliroqdir.

Ta`limning tarbiyalovchilik xususiyati turli ijtimoiy tuzum hamda sharoitda ham yaqqol namoyon bo`ladi. Tarbiyalash funksiyasi ta`lim mazmuni, shakli va metodlarining mohiyati bilan belgilanadi va o`qituvchi hamda o`quvchilar o`rtasidagi munosabatlarni tashkil etish jarayonida etakchi o`rin tutadi.

**5-ilova**

Ta`lim muassasasi (umumiy o`rta, o`rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta`lim muassasalari)da, tashkil etiluvchi ta`lim jarayonida o`quvchining faoliyati o`qituvchi rahbarligi ostida kechadi. O`qituvchi faoliyatining vazifasi o`quvchilarning ijtimoiy borliqni ongli va faol idrok etishga yo`naltirilgan faoliyatlarini boshqarishdan iboratdir.


Ta`lim jarayonini boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1) rejalashtirish;
- 2) tashkil etish;
- 3) boshqarish (rag`batlantirish);
- 4) nazorat;
- 5) natijalarni baholash va tahlil qilish.

Ta`lim jarayonida o`quvchilarning faoliyati:

1. Bilim olish.
2. O`quv harakatlari.
3. Idrok etish va anglab etish.
4. O`z-o`zini nazorat qilish, baholash va tahlil etish.



*Bilimlarni o`zlashtirish jarayonining tuzilishi**Ta`limning umumiy qonuniyatlari*

1. Ta`lim maqsadi jamiyatning rivojlanish sur`ati va darajasi, jamiyatning talablari va imkoniyatlari hamda pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari darajasi bog`liq.

2. Ta`lim mazmuni ta`limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari, ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur`ati, o`quvchilarning yosh imkoniyatlari, ta`lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi, shuningdek, o`quv yurtining moddiy-texnik va iqtisodiy imkoniyatlari bog`liq.

3. Ta`lim sifati (samaradorligi) avvalgi bosqich mahsuldorligi va mazkur bosqichda erishilgan natijalar, o`rganilayotgan material xususiyati va hajmi, o`quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta`sir ko`rsatish hamda o`quvchilarning bilim olishga qobiliyatlari va

ta`lim vaqtiga bog`liq.

4. Ta`lim metodlari samaradorligi metodlarni qo`llashda bilimlari va ko`nikmalari, ta`lim maqsadi, ta`lim mazmuni, o`quvchilarning yoshi, ta`lim olish imkoniyatlari, moddiy-texnik ta`minot hamda o`quv jarayonini tashkil etishga bog`liq.

5. Ta`limni boshqarish mahsuldorligi ta`lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va tuzatish, ta`sir ko`rsatishlarning asoslanganligiga bog`liq.

6. Ta`limni rag`batlantirish samaradorligi ta`limning ichki rag`batlari (sabablari) hamda tashqi (ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik) rag`batlariga bog`liq.

### *Ta`limning mazmunli tamoyillari*

- fuqarolik;
- ilmiyligi;
- tarbiyalovchi ta`lim;
- fundamentalligi va amaliy yo`nalganligi (ta`limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog`liqligi);
- tabiat bilan uyg`unligi;
- madaniyat bilan uyg`unligi;
- insonparvarligi.

### Ta`limning tashkiliy-metodik tamoyillari

- ta`limning izchilligi, tizimlili, ketma-ketligi;
- ta`limda onglilik va ijodiy faollik;
- ta`limda ko`rgazmalilik;
- ta`limning samaradorligi va ishonchliligi (mustahkamligi);
- ta`limning tushunarlili;
- guruhli va individual ta`lim birligi;
- ta`limning o`quvchilar yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi;
- oqilona talabchanlik bilan bola shaxsini hurmat qilishning muvofiqliligi;
- pedagogik hamkorlik.

**1.8. “O`rta maxsus va kasb-hunar ta`limi mazmuni” mavzusidagi  
ma`ruza mashg`ulotining texnologik modeli**

<i>Mashg`ulot vaqti – 2 s</i>	<i>Talabalar soni: 50 ta</i>
<i>Mashg`ulot shakli</i>	<i>Ma`ruza</i>
<i>Mashg`ulot rejasi</i>	1. Ta`lim mazmuni tushunchasi. 2. Ta`lim mazmunini tanlab olishga doir zamonaviy g`oyalalar. 3. Ta`lim mazmunini belgilab beruvchi meyo`riy hujjatlar.
<b>Laboratoriya mashg`ulotining maqsadi:</b> talabalarning ta`lim mazmuni, ta`lim mazmunini belgilab zamonaviy g`oyalarga doir nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularda ta`lim mazmunini belgilab beruvchi me`yoriy hujjatlar bilan ishlash ko`nikma va malakalarini tarkib toptirish.	
<b><i>Pedagogik vazifalar:</i></b> 1. “Ta`lim mazmuni” tushunchasini va ta`lim mazmunini belgilashga doir yondashuvlar mohiyatini anglab olinishiga erishish. 2. Ta`lim mazmunini belgilab beruvchi zamonaviy g`oyalarning o`ziga xosliklarini ajrata olishga o`rgatish. 3. Ta`lim mazmunini belgilab beruvchi asosiy me`yoriy hujjatlari bilan tanishtirish. 4. Darslik va o`quv qo`llanmalarining ta`lim mazmunini yoritishdagi ahamiyatini aniqlashtirish.	<b><i>O`quv faoliyati natijalari:</i></b> 1. “Ta`lim mazmuni” tushunchasini va ta`lim mazmunini belgilashga doir yondashuvlar mohiyatini tushunib olishadi. 2. Ta`lim mazmunini belgilab beruvchi zamonaviy g`oyalarni o`zlashtiradilar. 3. Ta`lim mazmunini belgilab beruvchi asosiy me`yoriy hujjatlarni o`rganadilar hamda ular bilan ishlash ko`nikmalariga ega bo`lishadi. 4. Darslik va o`quv qo`llanmalarining ta`lim mazmunini yoritishdagi ahamiyati haqida aniq xulosalarga kelishadi.
Ta`lim metodlari	Tushuntirish, suhbat, aqliy hujum, asoslangan esse.
O`quv faoliyatini tashkil etish shakllari	Individual va guruhlarda ishlash.
O`quv vositalari	Uslubiy qo`llanma, proektor, markerlar, tarqatma materiallar
Ta`lim berish sharoiti	Texnik ta`minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo`ljallangan auditoriya
Nazorat	O`z-o`zini nazorat qilish, refleksiya

**“O`rta maxsus va kasb-hunar ta`limi mazmuni” mavzusidagi ma`ruza  
mashg`ulotning texnologik kartasi**

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta`lim beruvchi</i>	<i>Ta`lim oluvchilar</i>
<i>Tayyorlov bosqichi</i>	Mavzuni aniqlaydi, ta`limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta`limiy maqsadlarga mos o`quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi.	Laboratoriya topshiriqlari bilan tanishadilar, o`zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishadi.
	Talabalarning individual va guruhdagi ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi.	
<i>O`quv mashg`ulotiga kirish bosqichi (10 daq)</i>	1.1. Mashg`ulot mavzusi, uning maqsadi va kuti-layotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyati va dolzarbligini asoslaydi.	Mashg`ulotga tayyorlanish jarayonida yuzaga kelgan savollar bilan murojaat qilishadi
	1.2. Talabalarni mashg`ulotga chorlab olish maqsadida “Nima uchun o`zlashtirish zarur bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalarning aniq doirasini belgilab olish lozim?” mavzusida aqliy hujumni tashkil etadi.	O`zlarining mustaqil fikrlarini bildirishadi va jamoaviy munozarada ishtirok etishadi.
<i>Asosiy bosqich (55 daqiqa)</i>	2.1. Ta`lim mazmuni va ta`lim mazmunini belgilashga doir yondashuvlar bilan bog`liqlikda blis-so`rov o`tkazadi.	Savollarga javob berishadi va o`zlarining yozganlariga tuzatishlar kiritishadi.
	2.2. Ta`lim mazmunini belgilab beruvchi zamonaviy g`oyalarni o`zlashtirishga doir muqobilini tanlab olish testini o`tkazadi.	Test topshirig`ini bajarishadi va o`z-o`zini nazorat qiladi
	2.3. Ta`lim mazmunini belgilab beruvchi asosiy me`yoriy hujjatlarni o`rganishga doir amaliy topshiriqlarni taqdim etadi va uni bajarishga doir zarur ko`rsatmalar beradi.	Amaliy topshiriqlarni bajarishadi va unga zaruriy o`zgartirishlar kiritadi
	2.4. Darslik va o`quv qo`llanmalarining ta`lim mazmunini yoritishdagi ahamiyatiga doir talabalar tomonidan yozib kelingan asoslangan esselar bilan tanishadi va o`z	Asoslangan esseni taqdim etishadi va o`z nuqtai nazarlarini himoya qiladilar

	munosabatini bildiradi.	
<b><i>Yakuniy bosqich (20 daqiqa)</i></b>	3.1.Mashg`ulot yuzasidan umumiy xulosalarni chiqaradi va talabalar tomonidan yo`l qo`yilgan xatolarni tuzatadi.	Tinglaydilar va o`zlarining xatolarini daftarlariga tuzatadilar
	3.2.Talabalar tomonidan to`plangan ballarni e`lon qiladi va mashg`ulotni yakunlaydi.	O`zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishadi.

### **1-ilova**

“Nima uchun o`zlashtirish zarur bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalarning aniq doirasini belgilab olish lozim?” mavzusida aqliy hujumni o`tkazishga doir ko`rsatmalar

O`qituvchi savolni muhokama qilish uchun o`rtaga tashlaydi va o`ylash uchun bir daqiqa vaqt beradi.

Talabalarning javoblari tinglanadi va doskaga ketma-ketlikda yozib boriladi. Garchi takrorlanish holati mavjud bo`lsa ham, mazkur holatda hamma javoblarning yozib borilishi talab etiladi,.

Hamma o`z fikrini bildirib bo`lgach, o`qituvchi doskaga yozilganlarini talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi va to`g`ri javoblar ajratib olinadi.

### **2-ilova**

Ta`lim mazmuni va ta`lim mazmunini belgilashga doir yondashuvlarni aniqlashtirishga doir blis-so`rov savollari

Ta`lim mazmuni deganda nima tushuniladi?

Ta`lim mazmunini belgilashda ekstensiv yondashuv deganda nimani tushunasiz?

Shaxsga yo`naltirilgan yondashuvning ta`lim mazmunini belgilashdagi imkoniyatlarini qanday baholaysiz?

Formal ta`lim nazariyasining asosiy g`oyasi nimadan iborat?

“Ko`p bilim aql o`rgata olmaydi” iborasini qanday izohlash mumkin?

Formal ta`lim nazariyasi tarafdorlari qanday falsafiy oqimga tayanadilar?

Moddiy ta`lim nazariyasining asosida qanday g`oya yotadi?

Moddiy ta`lim nazariyasining rivojlanishiga qanday omil turtki bo`ldi?

Qaysi pedagog olimlar formal va moddiy ta`lim nazariyasini birlashtirish g`oyasini ilgari surdilar?

Pragmatik yondashuv asosini nima tashkil etadi?

Uil`yam Kilpatrik tomonidan ilgari surilgan “loyihalar metodi”ni qanday baholaysiz?

### **3-ilova**

“Darslik va o`quv qo`llanmalarining bilim manbai sifatidagi ahamiyati shundaki...” mavzusida asoslangan esse yozish topshirig`i

“Darslik va o`quv qo`llanmalarining bilim manbai sifatidagi ahamiyati shundaki...” mavzusida asoslangan esse yozish.

Topshiriqni bajarishga doir ko`rsatma:

mazkur mavzu yuzasidan o`z nuqtai nazaringizni bayon eting;

nuqtai nazaringizni asoslash uchun dalillar kiriting;

mavzu yuzasidan aniq xulosalar chiqaring.

**1.9. “Ta`lim metodlari va vositalari” mavzusidagi ma`lumotli ma`ruza ta`lim texnologiyasi modeli**

<b>Ma`ruzaga ajratilgan vaqt – 2s</b>	<b>Talabalar soni – 50 ta</b>
<b>O`quv mashg`ulotining shakli</b>	<b>Ma`lumotli ma`ruza</b>
O`quv mashg`ulotining tuzilishi	1.“Metod”, “ta`lim metodlari” va “ta`lim usullari” tushunchalarining mazmuni va mohiyati. 2.Zamonaviy didaktikada ta`lim metod-larini tasniflashga doir yondashuvlar. 3. Ta`lim metodlarining funksiyalari. 4. Ta`lim metodlarini tanlab olish shartlari.
<b>O`quv mashg`ulotining maqsadi</b>	Talabalarda “ta`lim metodlari”, “ta`lim uchullari”, ta`lim metod va vositalarining funksiyalari hamda tasnifi haqida yaxlit tasavvurni shakllantirish.
<b>Pedagogik vazifalar:</b> -“metod”, “usul”, “vosita” tushunchalari bilan tanishtirish; -ta`lim metodlarining funksiyalarini yoritib berish; -ta`lim metodlari tasni-fini tavsiflash; -ta`lim metodlarini tanlab olish shartlarini yoritib berish.	<b>O`quv faoliyati natijalari:</b> - “metod”, “usul” tushunchalarining ta`rifini bilib olishadi ; - ta`lim metodlarining funksiyalarini o`rganishadi; - ta`lim metodlari tasnifi bilan tanishadilar; - ta`lim metodlariga doir tasniflarni taqqoslaydilar va xulosalar chiqarishadi; -ta`lim metodlarini tanlab olish shartlarini o`zlashtiradilar.
Ta`lim metodi	“O`ylang/juftliklarda muhokama qiling” interfaol metodi, vizual-ma`ruza, tushuntirish, videometod, “Konseptual jadval” grafik organayzeri
Ta`limni tashkil etish shakli	Ma`ruza, ommaviy, guruhli, individual
Didaktik vositalar	Ma`ruza matni, slayd-prezentasiya, vizual materiallar
Ta`limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
Nazorat	O`z-o`zini nazorat qilish, refleksiya

**Ta`lim metodlari va vositalari” mavzusidagi ma`lumotli ma`ruzaning texnologik kartasi**

<b><i>Ish bosqichlari va vaqti</i></b>	<b><i>Faoliyat mazmuni</i></b>	
	<b><i>O`qituvchi</i></b>	<b><i>Talaba</i></b>
<b><i>1-bosqich. O`quv mashg`ulotiga kirish (Da`vat bosqichi) (5 minut)</i></b>	1.1. Talabalarni mavzuning nomlanishi, mavzu rejasidagi masalalar va mustaqil o`qish uchun adabiyotlar ro`yxatini taqdim etadi (1-ilova).	Tinglashadi, yozib borishadi.
	1.3. “O`ylang/juftliklarda muhokama qiling” metodi asosida talabalarni faollashtiradi (2-ilova).	Savolga javob berishadi.
<b><i>2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (55 minut)</i></b>	2.1. “Metod”, “ta`lim metodi”, “usul”, “vosita” tushun-chalarini izohlaydi (3-ilova).	Tinglaydilar va mavzuning eng muhim jihatlarini o`z daftarlariga qayd etishadi.
	2.2. Ta`lim metodlarining funksiyalarini tushuntirib beradi (4-ilova).	
	2.3. Ta`lim metodlariga doir turli xil tasniflarni ko`rsatib beradi (5-ilova).	
	2.4. Ta`lim metodlarini tanlab olish shartlari haqida ma`lumot beradi (6-ilova)	
<b><i>3-bosqich. YAkuniy (Fikrlash bosqichi) (20 minut)</i></b>	3.1. Talabalarning ta`lim metodlari va vositalari haqidagi tasavvurlarini tizimlashtirish maqsadida maqsadida “Konseptual jadval” grafik organayzerini to`ldirishni taklif etadi (7-ilova).	“Konseptual jadval”ni juftliklarda to`ldirishadi
	3.2. “Konseptual jadval” asosida shakllantirilgan ta`lim metodlarining mazmuni, funksiyalari, belgilari va qoidalari bo`yicha muhokamani tashkil etadi (7-ilova).	O`z fikrlarini bayon etishadi va boshqalarniki bilan taqqoslashadi.



	<p>3.3.Mazkur mavzu bo`yicha seminar-anjumanga tayyorgarlik ko`rish bo`yicha topshiriqlarni beradi (8-ilova).</p> <p>(1). Ma`ruza mavzularini taqdim etadi:</p> <p>1.Didaktikada ta`lim metodlarini taniflashga doir zamonaviy yondashuvlar: mazmuni va mohiyati.</p> <p>2.Ta`lim metodlarini tanlib olish shartlari va qoidalari.</p> <p>3. Interfaol ta`lim metodlarining ta`lim jarayoni samaradorligini oshirishdagi roli.</p> <p>(2). Foydalanish uchun adabiyotlar ro`yxatini taklif etadi.</p> <p>(3). Ma`ruzachilar va mavzu bo`yicha muhokamaga chiquvchilar, taqrizchilarni tanlaydi.</p> <p>(4). Mavzular bo`yicha ma`ruza qiluvchi talabalarga referat rejasini tuzish topshirig`ini beradi.</p> <p>(5). Boshqa talabalarga esa, ma`ruza mazmuni va qo`shimcha materiallar bilan tanishgan holda, ma`ruzachilarga savollar tayyorlab kelish topshirig`ini beradi.</p> <p>(6).Ma`ruzachi, taqrizchi va munozara ishtirokchilarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.</p> <p>(7).Ma`ruzachilarning seminar jarayonidagi ishtiroki uslubi, taqrizchi va muhokamada ishtirok etuvchilarning vazifalarini tushuntiradi.</p>	<p>Topshiriqni yozib olishadi.</p>
--	--	------------------------------------

***Mavzu: Ta`lim metodlari va vositalari***

***Reja:***

1. “Metod”, “ta`lim metodlari” va “ta`lim usullari” tushunchalarining mazmuni va mohiyati.
2. Zamonaviy didaktikada ta`lim metod-larini tasniflashga doir yondashuvlar.
3. Ta`lim metodlarining funksiyalari.
4. Ta`lim metodlarini tanlab olish shartlari.

***Mustaqil o`qish uchun adabiyotlar:***

- Pedagogika. / M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: Iqtisod-Moliya, 2008.
- Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogika. – T.: Fan, 2006.
- Podlasъy I.P. Pedagogika. – M.: Vysshee obrazovanie, 2008.
- Pedagogika / Pod.red. P.I.Pidkasistogo. – M.: Vesshee obrazovanie, 2008.
- Xodjaev B. O`quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish yo`llari. – T.: TDPU, 2008.

2-ilova

***“O`ylang/juftliklarda muhokama qiling”***

“Metod”, “ta`lim metodlari”, “usul” va “qoida” tushunchalarini qanday izohlash mumkin?

3-ilova

***Ta`lim metodlari. Ta`lim vositalari.  
(vizual materiallar)***


*Metod* so`zi grekcha tadqiqot, maqsadga erishish yo`li, usuli deganidir. Bu so`zning etimologiyasi (kelib chiqishi) uning ilmiy kategoriya sifatidagi talqinida ham aks etgan. “Metod – eng umumiy ma`noda – maqsadga erishish usuli, ma`lum tarzda tartibga solingan faoliyat”.

**Ta`lim metodlari** deyilganda, o`rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo`yicha o`qituvchining o`rgatuvchi ishi va o`quvchilar o`quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari tushuniladi.

**Ta`lim usuli** – ta`lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni, Metodlar bilan usullar munosabati o`zaro bir-biriga bog`langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog`lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o`quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Xuddi shu metodik usullar turli metodlarda foydalanilgan bo`lishi mumkin. Va aksincha xuddi shu metod turli o`qituvchilar tomonidan turli usullarda ochib berilishi mumkin.

**Qoida** – tanlab olingan metod bilan bog`liqlikda faoliyat usullarini amalga oshirish uchun qulay tarzda harakat qilish zarurligini belgilab beruvchi me`yoriy ko`rsatmalardir.

#### 4-ilova



#### 5-ilova

##### **Ta`lim metodlari tasnifi:**

1. An`anaviy (manbasiga ko`ra) ta`lim metodlari (E.I.Golant, N.M.Verzilin va bosh.)
2. O`quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko`ra ta`lim metodlari tasnifi (I.YA.Lerner va M.N.Skatkin).
3. Asosiy didaktik maqsadlariga ko`ra ta`lim metodlari tasnifi (M.A.Danilov va B.P.Esipov).
4. Ta`limning binar metodlari (M.I.Maxmutov).
5. Yaxlit yondashuv bo`yicha ta`lim metodlari tasnifi ( YU.K.Babanskiy).
6. Ta`limning interfaol metodlari.

An'anaviy (manbasiga ko`ra) ta'lim metodlari tasnifi



<i>Og`zaki</i>	<i>Ko`rgazmali</i>	<i>Amaliy</i>	<i>Kitob bilan ishlash</i>	<i>Videometod</i>
Hikoya Suhbat Tushuntirish Ma`ruza Munozara	Ill yustrasiya Demonstrasiya	Mashq Amaliy Laboratoriya Didaktik o`yin	O`qish O`rganish Reja tuzish Konspekt qilish	Ko`rish, O`rganish, Nazorat qilish

*O`quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko`ra ta'lim metodlari tasnifi*

<i>Ta'lim metodi</i>	<i>O`qituvchi faoliyati</i>	<i>O`quvchi faoliyati</i>
Axboriy-reseptiv	O`quv axborotini uzatish, o`rganilayotgan ob`ekt bilan o`quvchi harakatini tashkil etish	Bilimlarni idrok etish, anglash va yodda saqlash.
Reproduktiv	Bilimlar hamda aqliy va faoliyat usullarini hosil qilishga doir topshiriqlarni tuzish va taqdim etish	Namuna asosida bilimlarni hamda aqliy va faoliyat usullarini egallash.
Muammoli bayon etish	Muammoni qo`yish va uni hal etish usullarini ochib berish	Topshiriqni idrok etish va uni qismlarga ajratish. Topshiriq qismlarini mustaqil hal etish va o`z-o`zini nazorat qilish
Evristik (qisman-izlanish)	Muammoni qo`yish va uni hal etishga doir qadamlar ketma-ketligini rejalatirish. O`quvchilar faoliyatini boshqarish	Qo`yilgan vazifa bilan bog`liqlikda muammoni hal etish yo`llarini mustaqil izlash va o`qituvchining qisman ko`magi yordamida muammoni hal etish
Tadqiqotchilikka doir	Mustaqil hal etishga doir muammoli vazifalarni shakllantirish. Muammoni hal etilish jarayonini nazorat qilish	Muammoni mustaqil hal etish.

***Asosiy didaktik maqsadlariga ko`ra ta`lim metodlari tasnifi:***

Yangi bilimlarni egallash metodlari;

Ko`nikma va malakalarni shakllantirish metodlari;

Bilimlarni amaliyotda qo`llash metodlari;

Bilim, ko`nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat qilish metodlari.

***Ta'limning binar metodlari***

O`rgatish metodlari	O`rganish metodlari
Axboriy-ma`lumotli	Ijro etish (bajarish)
Tushuntirishli	Reproduktiv
Ko`rgazmali-amaliy	Ijodiy-amaliy
Tushuntirishli-undovchi	Qisman izlanishli
Undovchi	Izlanishli

## *Yaxlit yondashuvga ko`ra ta'lim metodlari tasnifi*



- O`quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari.
- O`quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va rag`batlantirish metodlari.
- O`quv-bilish faoliyatini nazorat va o`zo`zini nazorat qilish metodlari.

## *O`quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari*



O`quv axborotini uzatish va idrok etish manbasiga ko`ra	O`quv axborotini uzatish va idrok etish mantig`iga ko`ra	O`quvchilarning mustaqil fikrlash darajasiga ko`ra	O`quv ishini boshqarish tavsifi bo`yicha
Og`zaki, Ko`rgazmali, Amaliy	Induktiv, Deduktiv	Reproduktiv. Produktiv: muammoli, muammoli- izlanishli, evristik	O`qituvchi rahbarligida bajariladigan o`quv ishi. O`quvchilarning mustaqil ishlari.

***O`quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash  
va raq`batlantirish metodlari***



O`qishga motivatsiyalash metodlari	qiziqishni	O`qishga burch va mas`uliyatni rag`batlantirish metodlari
Bilish faoliyatini tashkil etishga doir o`yinlar. O`quv munozaralar. Vaziyatlarni yaratish.		O`rganishning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatiga ishonch hosil qilish. Talab qo`yish. Rag`batlantirish. Ogohlantirish.

***O`quv-bilish faoliyatini nazorat va  
o`z-o`zini nazorat qilish metodlari***



Nazorat va o`z-o`zini nazorat qilishning og`zaki metodlari	Nazorat va o`z-o`zini nazorat qilishning yozma metodlari	Nazorat va o`z-o`zini nazorat qilishning amaliy metodlari
Individual so`rov, ommaviy so`rov, dasturlashtirilgan so`rov, og`zaki o`z-o`zini nazorat ishi	Yozma nazorat ishi, dasturlashtirilgan yozma ishi, yozma o`z-o`zini nazorat ishi	Laboratoriya ishi, laboratoriyali o`z-o`zini nazorat ishi



## *Interfaol metodlar*



O`rganilayotganlarini o`zlashtirishga da`vat qilish metodlari	Yangi materialni anglash metodlari	O`rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar
Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B-B-B chizmasi. CHalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Semantik xususiyatlar tahlili.	Semantik xususiyatlar tahlili. B-B-B chizmasi. O`qitish bo`yicha qo`llanma. Bir-biriga o`rgatish. Bir-biridan so`rash. Ikki qismli kundaliklar. Eng asosiy tushunchalar	Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Konseptual jadval. Venn diagrammasi. Nilufar guli. Besh minutlik esse. O`n minutlik esse.

### **6-ilova**

#### *Ta`lim metodlarini tanlab olish shartlari*

1. Ta`limning umumiy maqsadlari.
2. Fanning va o`rganilayotgan mavzuning mazmuni hamda o`ziga xosliklari.
3. Biror fanni o`qitish metodikasining o`ziga xosliklari.
4. Materialni o`rganishga ajratilgan vaqt.
5. O`quv mashg`ulotining maqsadi, vazifalari va mazmuni.
6. O`quvchilarning yoshi va bilish imkoniyatlari.
7. O`quvchilarning tayyorgarlik darajasi.
8. Ta`lim muassasasining moddiy ta`minlanganligi.
9. O`qituvchining nazariy, amaliy va metodik tayyorgarligi, pedagogik mahoratni egallaganlik darajasi.

*“Ta`lim metodlari” mavzusidagi konseptual jadval*

<i>Metodning mazmuni</i>	<i>Belgilari</i>	<i>Ta`rifi</i>	<i>Funksiyasi</i>	<i>Qoidalari</i>	<i>Izoh</i>
An`anaviy metodlar					
Bilish faoliyati tavsifiga ko`ra ta`lim metodlari					
Didaktik maqsadiga ko`ra ta`lim metodlari					

*Seminar-anjuman mavzulari*

1. Didaktikada ta`lim metodlarini taniflashga doir zamonaviy yondashuvlar: mazmuni va mohiyati.
2. Ta`lim metodlarini tanlib olish shartlari va qoidalari.
3. Interfaol ta`lim metodlarining ta`lim jarayoni samaradorligini oshirishdagi roli.

*Foydalanish uchun adabiyotlar:*

1. Pedagogika. / M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: Iqtisod-Moliya, 2008.
2. Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogika. – T.: Fan, 2006.
3. Podlasny I.P. Pedagogika. – M.: Vysshee obrazovanie, 2008.
4. Pedagogika / Pod.red. P.I.Pidkasistogo. – M.: Vysshee obrazovanie, 2008.

5. Xodjaev B. O`quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish yo`llari. – T.: TDPU, 2008.

***Baholash mezonlari:***

<b><i>Baholash mezonlari va ko`rsatkichlari (ball bo`yicha)</i></b>	<b><i>Ishtirokchilar</i></b>			
	<b><i>Ma`ruzachilar (F.I.O)</i></b>			
	1	2	3	4
1. Ma`ruzaning mazmuni (3,0):				
- mavzuning mosligi (1,0)				
- bayon tilining mantiqiyligi, tizimliliigi va yorqinligi (1,0)				
- xulosalarning aniq shakllantirilishi (1,0)				
2. Taqdimot texnologiyasidan foydalanish (ko`rgazmalilik) (1,5)				
3. Reglamentga rioya qilish (0,5)				
Jami: maksimal 5,0				
<b><i>Baholash mezonlari va ko`rsatkichlari (ball bo`yicha)</i></b>	<b><i>Taqrizchilar (F.I.O.)</i></b>			
	1	2	3	4
1. Ma`ruzani tavsiflash (4,0)				
- ma`ruzaning ijobiy tomonlarini ochib berish (2,0)				
- ma`ruzaning salbiy tomonlarini ochib berish (2,0)				
2. Reglamentga rioya qilish (1,0)				
Jami: maksimal 5,0				
<b><i>Baholash mezonlari va ko`rsatkichlari (ball bo`yicha)</i></b>	<b><i>Opponent/ munozara ishtirokchisi (F.I.O.)</i></b>			
	1	2	3	4
1. Savollar bilan ishtirok etish (2,0)				
2. Qo`shimchalar qilish (3,0)				
Jami: maksimal 5,0				

**1.10. “Ta`lim metodlari va vositalari” mavzusidagi ma`lumotli ma`ruza ta`lim texnologiyasi modeli**

<b>Ma`ruzaga ajratilgan vaqt – 2 s</b>	<b>Talabalar soni – 50 ta</b>
<b>O`quv mashg`ulotining shakli</b>	<b>Ma`lumotli ma`ruza</b>
<b>O`quv mashg`ulotining tuzilishi</b>	1. Ta`lim metodlarining funksiyalari. 2. Ta`lim metodlarini tanlab olish shartlari.
<b>O`quv mashg`ulotining maqsadi</b>	Talabalarda “ta`lim metodlari”, “ta`lim uchullari”, ta`lim metod va vositalarining funksiyalari hamda tasnifi haqida yaxlit tasavvurni shakllantirish.
<b>Pedagogik vazifalar:</b> - “metod”, “usul”, “vosita” tushunchalari bilan tanishtirish; - ta`lim metodlarining funksiyalarini yoritib berish; - ta`lim metodlari tasnifi-tasni tavsiflash; - ta`lim metodlarini tanlab olish shartlarini yoritib berish.	<b>O`quv faoliyati natijalari:</b> - “metod”, “usul” tushunchalarining ta`rifini bilib olishadi ; - ta`lim metodlarining funksiyalarini o`rganishadi; - ta`lim metodlari tasnifi bilan tanishadilar; - ta`lim metodlariga doir tasniflarni taqqoslaydilar va xulosalar chiqarishadi; - ta`lim metodlarini tanlab olish shartlarini o`zlashtiradilar.
Ta`lim metodi	“O`ylang/juftliklarda muhokama qiling” interfaol metodi, vizual-ma`ruza, tushuntirish, videometod, “Konseptual jadval” grafik organayzeri
Ta`limni tashkil etish shakli	Ma`ruza, ommaviy, guruhli, individual
Didaktik vositalar	Ma`ruza matni, slayd-prezentasiya, vizual materiallar
Ta`limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
Nazorat	O`z-o`zini nazorat qilish, refleksiya

**“Ta`lim metodlari va vositalari” mavzusidagi ma`lumotli ma`ruzaning texnologik kartasi**

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O`qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
<b>1-bosqich.</b> <i>O`quv mashg`ulotiga kirish (Da`vat bosqichi)</i> <i>(5 minut)</i>	1.1.Talabalarni mavzuning nomlanishi, mavzu rejasidagi masalalar va mustaqil o`qish uchun adabiyotlar ro`yxatini taqdim etadi (1-ilova).	Tinglashadi, yozib borishadi.
	1.3.“O`ylang/juftliklarda muhokama qiling” metodi asosida talabalarni faollashtiradi (2-ilova).	Savolga javob berishadi.
<b>2-bosqich.</b> <i>Asosiy (Anglash bosqichi)</i> <i>(55 minut)</i>	2.1.“Metod”, “ta`lim metodi”, “usul”, “vosita” tushun-chalarini izohlaydi (3-ilova).	Tinglaydilar va mavzuning eng muhim jihatlarini o`z daftarlariga qayd etishadi.
	2.2.Ta`lim metodlarining funksiyalarini tushuntirib beradi (4-ilova).	
	2.3.Ta`lim metodlariga doir turli xil tasniflarni ko`rsatib beradi (5-ilova).	
	2.4.Ta`lim metodlarini tanlab olish shartlari haqida ma`lumot beradi (6-ilova)	
<b>3-bosqich.</b> <i>Yakuniy (Fikrlash bosqichi)</i> <i>(20 minut)</i>	3.1.Talabalarning ta`lim metodlari va vositalari haqidagi tasavvurlarini tizimlashtirish maqsadida maqsadida “Konseptual jadval” grafik organayzerini to`ldirishni taklif etadi (7-ilova).	“Konseptual jadval”ni juftliklarda to`ldirishadi
	3.2.“Konseptual jadval” asosida shakllantirilgan ta`lim metodlarining mazmuni, funksiyalari, belgilari va qoidalari bo`yicha muhokamani tashkil etadi (7-ilova).	O`z fikrlarini bayon etishadi va boshqalarniki bilan taqqoslashadi.

	<p>3.3.Mazkur mavzu bo`yicha seminar-anjumanga tayyorgarlik ko`rish bo`yicha topshiriqlarni beradi (8-ilova).</p> <p>(1). Ma`ruza mavzularini taqdim etadi:</p> <p>1.Didaktikada ta`lim metodlarini taniflashga doir zamonaviy yondashuvlar: mazmuni va mohiyati.</p> <p>2.Ta`lim metodlarini tanlib olish shartlari va qoidalari.</p> <p>3. Interfaol ta`lim metodlarining ta`lim jarayoni samaradorligini oshirishdagi roli.</p> <p>(2). Foydalanish uchun adabiyotlar ro`yxatini taklif etadi.</p> <p>(3).Ma`ruzachilar va mavzu bo`yicha muhokamaga chiquvchilar, taqrizchilarni tanlaydi.</p> <p>(4).Mavzular bo`yicha ma`ruza qiluvchi talabalarga referat rejasini tuzish topshirig`ini beradi.</p> <p>(5). Boshqa talabalarga esa, ma`ruza mazmuni va qo`shimcha materiallar bilan tanishgan holda, ma`ruzachilarga savollar tayyorlab kelish topshirig`ini beradi.</p> <p>(6).Ma`ruzachi, taqrizchi va munozara ishtirokchilarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.</p> <p>(7).Ma`ruzachilarning seminar jarayonidagi ishtiroki uslubi, taqrizchi va muhokamada ishtirok etuvchilarning vazifalarini tushuntiradi.</p>	<p>Topshiriqni yozib olishadi.</p>
--	--	------------------------------------

***Mavzu: Ta`lim metodlari va vositalari***

***Reja:***

1. Ta`lim metodlarining funksiyalari.
2. Ta`lim metodlarini tanlab olish shartlari.

***Mustaqil o`qish uchun adabiyotlar:***

- Pedagogika. / M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: Iqtisod-Moliya, 2008.
- Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogika. – T.: Fan, 2006.
- Podlasny I.P. Pedagogika. – M.: Vysshee obrazovanie, 2008.
- Pedagogika / Pod.red. P.I.Pidkasiyogo. – M.: Vesshee obrazovanie, 2008.
- Xodjaev B. O`quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish yo`llari. – T.: TDPU, 2008.

***“O`ylang/juftliklarda muhokama qiling”***

“Metod”, “ta`lim metodlari”, “usul” va “qoida” tushunchalarini qanday izohlash mumkin?

***Ta`lim metodlari. Ta`lim vositalari.  
(vizual materiallar)***


***Metod*** so`zi grekcha tadqiqot, maqsadga erishish yo`li, usuli deganidir. Bu so`zning etimologiyasi (kelib chiqishi) uning ilmiy kategoriya sifatidagi talqinida ham aks etgan. “Metod – eng umumiy ma`noda – maqsadga erishish usuli, ma`lum tarzda tartibga solingan faoliyat”.

**Ta`lim metodlari** deyilganda, o`rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo`yicha o`qituvchining o`rgatuvchi ishi va o`quvchilar o`quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari tushuniladi.

**Ta`lim usuli** – ta`lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni, Metodlar bilan usullar munosabati o`zaro bir-biriga bog`langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog`lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o`quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Xuddi shu metodik usullar turli metodlarda foydalanilgan bo`lishi mumkin. Va aksincha xuddi shu metod turli o`qituvchilar tomonidan turli usullarda ochib berilishi mumkin.

**Qoida** – tanlab olingan metod bilan bog`liqlikda faoliyat usullarini amalga oshirish uchun qulay tarzda harakat qilish zarurligini belgilab beruvchi me`yoriy ko`rsatmalardir.

#### 4-ilova



#### 5-ilova

##### **Ta`lim metodlari tasnifi:**

1. An`anaviy (manbasiga ko`ra) ta`lim metodlari (E.I.Golant, N.M.Verzilin va bosh.)
2. O`quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko`ra ta`lim metodlari tasnifi (I.YA.Lerner va M.N.Skatkin).
3. Asosiy didaktik maqsadlariga ko`ra ta`lim metodlari tasnifi (M.A.Danilov va B.P.Esipov).
4. Ta`limning binar metodlari (M.I.Maxmutov).
5. YAxlit yondashuv bo`yicha ta`lim metodlari tasnifi ( YU.K.Babanskiy).
6. Ta`limning interfaol metodlari.



*An'anaviy (manbasiga ko`ra) ta'lim metodlari tasnifi*



<i>Og`zaki</i>	<i>Ko`rgazmali</i>	<i>Amaliy</i>	<i>Kitob bilan ishlash</i>	<i>Videometod</i>
Hikoya Suhbat Tushuntirish Ma`ruza Munozara	Ill yustrasiya Demonstrasiya	Mashq Amaliy Laboratoriya Didaktik o`yin	O`qish O`rganish Reja tuzish Konspekt qilish	Ko`rish, O`rganish, Nazorat qilish

*O`quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko`ra ta'lim metodlari tasnifi*

<i>Ta'lim metodi</i>	<i>O`qituvchi faoliyati</i>	<i>O`quvchi faoliyati</i>
Axboriy-reseptiv	O`quv axborotini uzatish, o`rganilayotgan ob`ekt bilan o`quvchi harakatini tashkil etish	Bilimlarni idrok etish, anglash va yodda saqlash.
Reproduktiv	Bilimlar hamda aqliy va faoliyat usullarini hosil qilishga doir topshiriqlarni tuzish va taqdim etish	Namuna asosida bilimlarni hamda aqliy va faoliyat usullarini egallash.
Muammoli bayon etish	Muammoni qo`yish va uni hal etish usullarini ochib berish	Topshiriqni idrok etish va uni qismlarga ajratish. Topshiriq qismlarini mustaqil hal etish va o`z-o`zini nazorat qilish
Evristik (qisman-izlanish)	Muammoni qo`yish va uni hal etishga doir qadamlar ketma-ketligini rejalatirish. O`quvchilar faoliyatini boshqarish	Qo`yilgan vazifa bilan bog`liqlikda muammoni hal etish yo`llarini mustaqil izlash va o`qituvchining qisman ko`magi yordamida muammoni hal etish
Tadqiqotchilikka doir	Mustaqil hal etishga doir muammoli vazifalarni shakllantirish. Muammoni hal etilish jarayonini nazorat qilish	Muammoni mustaqil hal etish.

*Asosiy didaktik maqsadlariga ko`ra ta'lim metodlari tasnifi:*

Yangi bilimlarni egallash metodlari;  
 Ko`nikma va malakalarni shakllantirish metodlari;  
 Bilimlarni amaliyotda qo`llash metodlari;  
 Bilim, ko`nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat qilish metodlari.

### *Ta'limning binar metodlari*



O`rgatish metodlari	O`rganish metodlari
Axboriy-ma`lumotli	Ijro etish (bajarish)
Tushuntirishli	Reproduktiv
Ko`rgazmali-amaliy	Ijodiy-amaliy
Tushuntirishli-undovchi	Qisman izlanishli
Undovchi	Izlanishli

### *Yaxlit yondashuvga ko`ra ta'lim metodlari tasnifi*



- O`quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari.**
- O`quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va raq`batlantirish metodlari.**
- O`quv-bilish faoliyatini nazorat va o`z-o`zini nazorat qilish metodlari.**

***O`quv-bilish faoliyatini tashkil etish***

***va amalga oshirish metodlari***

O`quv axborotini uzatish va idrok etish manbasiga ko`ra	O`quv axborotini uzatish va idrok mantig`iga ko`ra	O`quvchilarning mustaqil fikrlash darajasiga ko`ra	O`quv ishini boshqarish tavsifi bo`yicha
Og`zaki, Ko`rgazmali, Amaliy	Induktiv, Deduktiv	Reproduktiv. Produktiv: muammoli, muammoli-izlanishli, evristik	O`qituvchi rahbarligida bajariladigan o`quv ishi. O`quvchilarning mustaqil ishlari.

***O`quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash***

***va raq`batlantirish metodlari***

<b><i>O`qishga qiziqishni motivatsiyalash metodlari</i></b>	<b><i>O`qishga burch va mas`uliyatni rag`batlantirish metodlari</i></b>
Bilish faoliyatini tashkil etishga doir o`yinlar. O`quv munozaralar. Vaziyatlarni yaratish.	O`rganishning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatiga ishonch hosil qilish. Talab qo`yish. Rag`batlantirish. Ogohlantirish.

*O`quv-bilish faoliyatini nazorat va o`z-o`zini nazorat qilish metodlari*



Nazorat va o`z-o`zini nazorat qilishning og`zaki metodlari	Nazorat va o`z-o`zini nazorat qilishning yozma metodlari	Nazorat va o`z-o`zini nazorat qilishning amaliy metodlari
Individual so`rov, ommaviy so`rov, dasturlashtirilgan so`rov, og`zaki o`z-o`zini nazorat ishi	Yozma nazorat ishi, dasturlashtirilgan yozma ish, yozma o`z-o`zini nazorat ishi	Laboratoriya ishi, laboratoriyali o`z-o`zini nazorat ishi

## Interfaol metodlar



<i>O`rganilayotganlarini o`zlashtirishga da`vat qilish metodlari</i>	<i>Yangi materialni anglash metodlari</i>	<i>O`rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar</i>
Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B-B-B chizmasi. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Semantik xususiyatlar tahlili.	Semantik xususiyatlar tahlili. B-B-B chizmasi. O`qitish bo`yicha qo`llanma. Bir-biriga o`rgatish. Bir-biridan so`rash. Ikki qismli kundaliklar. Eng asosiy tushunchalar	Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Konseptual jadval. Venn diagrammasi. Nilufar guli. Besh minutlik esse. O`n minutlik esse.

### 6-ilova

#### *Ta`lim metodlarini tanlab olish shartlari*

1. Ta`limning umumiy maqsadlari.
2. Fanning va o`rganilayotgan mavzuning mazmuni hamda o`ziga xosliklari.
3. Biror fanni o`qitish metodikasining o`ziga xosliklari.
4. Materialni o`rganishga ajratilgan vaqt.
5. O`quv mashg`ulotining maqsadi, vazifalari va mazmuni.
6. O`quvchilarning yoshi va bilish imkoniyatlari.
7. O`quvchilarning tayyorgarlik darajasi.
8. Ta`lim muassasasining moddiy ta`minlanganligi.
9. O`qituvchining nazariy, amaliy va metodik tayyorgarligi, pedagogik mahoratni egallaganlik darajasi.

*“Ta`lim metodlari” mavzusidagi konseptual jadval*

<i>Metodning mazmuni</i>	<i>Belgilari</i>	<i>Ta`rifi</i>	<i>Funksiyasi</i>	<i>Qoidalari</i>	<i>Izoh</i>
An`anaviy metodlar					
Bilish faoliyati tavsifiga ko`ra ta`lim metodlari					
Didaktik maqsadiga ko`ra ta`lim metodlari					

*Seminar-anjuman mavzulari*

1. Didaktikada ta`lim metodlarini taniflashga doir zamonaviy yondashuvlar: mazmuni va mohiyati.
2. Ta`lim metodlarini tanlib olish shartlari va qoidalari.
3. Interfaol ta`lim metodlarining ta`lim jarayoni samaradorligini oshirishdagi roli.

**Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Pedagogika. / M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: Iqtisod-Moliya, 2008.
2. Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogika. – T.: Fan, 2006.
3. Podlasъy I.P. Pedagogika. – M.: Vыsshee obrazovanie, 2008.
Mehnat faoliyatini tashkil etishda jamoaviy va individual shakllarini birga qo`shib olib borish.

### 4-ilova

*Mehnat faoliyatining asosiy turlari quyidagilardir:*





O`quv mehnati o`quvchilarning ilmiy bilimlar hamda turli fanlar asoslarini o`zlashtirishga yo`naltirilgan faoliyati turidir.


Ijtimoiy-foydali mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamda uning muayyan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo`naltirilgan hamda ijtimoiy mehnat xarakteridagi faoliyati turidir.

Hozirgi davrda ta`lim muassasalarida o`z-o`ziga xizmat keng yo`lga qo`yilmoqda. O`z-o`ziga xizmat o`quvchilarning ijtimoiy va o`quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida ularning o`zlari tomonidan amalga oshiriluvchi mehnat faoliyati turidir. O`quvchilarning navbatchiligi o`z-o`ziga xizmat qilishni tarkib toptirishning muhim shaklidir.

Ishlab chiqarish mehnati turlari xilma-xildir. Masalan, o`quvchilarning mehnat haftaligi, chorvaga em-xashak tayyorlash va shirkat xo`jaliklarida faoliyat yuritish va boshqalar. Unumli mehnat – o`quvchilar mehnatining eng ommaviy shakli sanaladi.


## 5-ilova

### *Mehnat tarbiyasining tashkiliy shakllari*



### *Iqtisodiy tarbiyaning samarali shakl va metodlari*

## 6-ilova



**1.21. “Axloqiy tarbiya. Estetik tarbiya” mavzusidagi ma`lumotli ma`ruza ta`lim texnologiyasi modeli**

<i>Ma`ruzaga ajratilgan vaqt – 2s</i>	<i>Talabalar soni – 50 ta</i>
<i>O`quv mashg`ulotining shakli</i>	<i>Ma`lumotli ma`ruza</i>
<i>Mashg`ulotning rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li><i>1. Axloq – ijtimoiy iong shakli sifatida.</i></li> <li><i>2. Axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari</i></li> <li><i>3. Estetik tarbiyaning mazmuni va mohiyati.</i></li> <li><i>4. Estetik tarbiya vositalari.</i></li> </ol>
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi</i>	Talabalarda tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati hamda tarbiya qonuniyat va tamoyillari haqida yaxlit tasavvurlarni shakllantirish
<p><b><i>Pedagogik vazifalar:</i></b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- tarbiya tushunchasining keng va tor ma`nodagi ifodalarini tushuntirib berish;</li> <li>- tarbiya jarayoni, maqsadi, mazmuni va vazifalari haqida ma`lumot berish;</li> <li>- tarbiya jarayonining o`ziga xos xususiyatlari, qonuniyat va tamoyillarini ochib berish;</li> <li>-tarbiya turlarini umumiy tasniflaydi.</li> </ul>	<p><b><i>O`quv faoliyati natijalari:</i></b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-keng va tor ma`nodagi tarbiya tushunchasi ta`rifini bilib oladilar;</li> <li>-tarbiya jarayoni, maqsadi, mazmuni va vazifalarini o`zlashtiradilar;</li> <li>- tarbiya jarayonining o`ziga xos xususiyatlari, qonuniyat va tamoyillari haqida ma`lumotga ega bo`ladilar;</li> <li>- tarbiya turlarining umumlashgan tasnifi bilan tanishadilar.</li> </ul>
Ta`lim metodi	Ma`ruza, tushuntirish, suhbat, “Ikki qismli kundaliklar” interfaol metodi
Ta`limni tashkil etish shakli	Ma`ruza, ommaviy, individual
Didaktik vositalar	Ma`ruza matni, slayd-prezentasiya
Ta`limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
Nazorat	O`z-o`zini nazorat qilish, refleksiya

**“Axloqiy tarbiya. Estetik tarbiya” mavzusidagi ma`lumotli  
ma`ruzaning texnologik kartasi**

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O`qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
<b>1-bosqich. O`quv mashg`ulotiga kirish (Da`vat bosqichi) (5 minut)</b>	Talabalarni mavzuning nomlanishi, rejadagi masalalar va mustaqil o`qish uchun adabiyotlar bilan tanishtiradi (1-ilova).	Tinglashadi, yozib borishadi.
<b>2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (55 minut)</b>	2.1. Mavzuning asosiy tushunchalari bilan tanishishni taklif etadi (2-ilova).	Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etishadi, muhim chizma va jadvallarni o`z daftarlariga qayd etishadi.
	2.2. Keng va tor ma`nodagi tarbiya tushunchalarini izohlaydi (3-ilova).	
	2.3. Tarbiya jarayoni, maqsadi, mazmuni va vazifalarini yoritib beradi (4-ilova).	
	2.4. Tarbiya jarayonining o`ziga xosliklari, qonuniyat va tamoyillarini izohlaydi (5-ilova).	
	2.5. Tarbiya turlarining umumiy tasnifi bilan tanishtiradi (6-ilova).	
<b>3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (20 minut)</b>	3.1. Talabalarning tarbiya jarayoni mazmuni va mohiyati haqidagi tasavvurlarini tizimlashtirish maqsadida maqsadida “Ikki qismli kundaliklar” interfaol metodini taqdim etadi (7-ilova).	“Ikki qismli kundalik”larni individual ravishda to`ldirishadi.
	3.2. Talabalarning “Ikki qismli kundalik”lari bilan tanishish orqali ularning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi.	O`z fikrlarini boyitadi va to`ldiradi.
	Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi.	

**Mavzu: Axloqiy tarbiya. Estetik tarbiya**

**Reja:**



- 1. Axloq – ijtimoiy ong shakli sifatida.**
- 2. Axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari.**
- 3. Estetik tarbiyaning mazmuni va mohiyati.**
- 4. Estetik tarbiya vositalari.**


**Adabiyotlar:**

1. Pedagogika /A.Q. Munavvarov tahriri ostida. – T.: O`qituvchi, 1994.
2. Pedagogika / M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008.
3. Подласы I. P . Pedagogika . V 2-x kn. Kn.2. - M.: VLADOS, 2003.
4. Общaya pedagogika / Pod.red. V.A Slastenina: V 2 ch – M: VLADOS , 2003-CH.2.
5. Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogika. – T.: Fan, 2006.

*Axloq (arabcha – xulq-atvor ma`nosini bildiradi)* ijtimoiy ong shakllaridan biri bo`lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir. *Axloq* – ma`naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me`yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan etukligining mezoni bo`lgan ma`naviy kamolotga erishib bo`lmaydi. *Axloq* – shaxs yoki guruh faoliyatini baholash orqali jamiyatdagi munosabatlarni boshqarish mexanizmi. Axloq shunchaki munosabatlarni tartibga keltirish uchungina emas, balki ularni uyg`unlashtirish uchun ham zarur. Munosabatlarni boshqarish ikki xil usul bilan amalga oshiriladi: xulq-atvorni rag`batlantirish va jazolash. Axloq jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soladi va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari ifodalanadigan maqsadlarni ilgari suradi.

*Axloqiy fazilatlarni shakllantirish texnologiyasi*





bolalarning butun badiiy-estetik faoliyatini hayot, bolalarda dunyoqarash va axloqiylikni shakllantirish jarayoni bilan o`zaro aloqadorligi



bolaning badiiy va umumiy psixik rivojlani-shi birligi



bolalarning badiiy-ijodiy va mustaqil faoliyati



yosh bilan bog`liq psixo-pedagogik o`ziga xosliklarini hisobga olish

**1.22. “Ekologik tarbiya. Jismoniy tarbiya” mavzusidagi ma`lumotli ma`ruza ta`lim texnologiyasi modeli**

<i>Ma`ruzaga ajratilgan vaqt – 2s</i>	<i>Talabalar soni – 50 ta</i>
<i>O`quv mashg`ulotining shakli</i>	<i>Ma`lumotli ma`ruza</i>
<i>Mashg`ulotning rejasi</i>	<p><i>1.Ekologik tarbiyaning mazmuni.</i></p> <p><i>2Ekologik tarbiyaning shakl, metod va vositalari.</i></p> <p><i>3.Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari.</i></p> <p><i>4.Jismoniy tarbiya vositalari.</i></p>
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi</i>	Talabalarda ekologik tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati hamda jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari haqida yaxlit tizimli tasavvurlarni shakllantirish
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-Ekologik tarbiyaning mazmuni tushuntirib berish;</li> <li>-Ekologik tarbiyaning shakl, metod va vositalari haqida ma`lumot berish;</li> <li>- Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari ochib berish;</li> <li>- Jismoniy tarbiya vositalarini tasniflaydi.</li> </ul>	<p><i>O`quv faoliyati natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-Ekologik tarbiyaning mazmuni bilib oladilar;</li> <li>- Ekologik tarbiyaning shakl, metod va vositalari haqida ma`lumot o`zlashtiradilar;</li> <li>-Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari haqida ma`lumotga ega bo`ladilar;</li> <li>-Jismoniy tarbiya vositalarini tasniflaydilar.</li> </ul>
Ta`lim metodi	Ma`ruza, tushuntirish, suhbat, “Ikki qismlil kundaliklar” interfaol metodi
Ta`limni tashkil etish shakli	Ma`ruza, ommaviy, individual
Didaktik vositalar	Ma`ruza matni, slayd-prezentasiya
Ta`limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
Nazorat	O`z-o`zini nazorat qilish, refleksiya



**“Ekologik tarbiya. Jismoniy tarbiya” mavzusidagi ma`lumotli  
ma`ruzaning texnologik kartasi**

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O`qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
<b>1-bosqich. O`quv mashg`ulotiga kirish (Da`vat bosqichi) (5 minut)</b>	Talabalarni mavzuning nomlanishi, rejadagi masalalar va mustaqil o`qish uchun adabiyotlar bilan tanishtiradi (1-ilova).	Tinglashadi, yozib borishadi.
<b>2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (55 minut)</b>	2.1.Mavzuning asosiy tushunchalari bilan tanishishni taklif etadi (2-ilova).	Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etishadi, muhim chizma va jadvallarni o`z daftarlariga qayd etishadi.
	2.2.Keng va tor ma`nodagi tarbiya tushunchalarini izohlaydi (3-ilova).	
	2.3.Tarbiya jarayoni, maqsadi, mazmuni va vazifalarini yoritib beradi (4-ilova).	
	2.4.Tarbiya jarayonining o`ziga xosliklari, qonuniyat va tamoyillarini izohlaydi (5-ilova).	
	2.5.Tarbiya turlarining umumiy tasnifi bilan tanishtiradi (6-ilova).	
<b>3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (20 minut)</b>	3.1.Talabalarning tarbiya jarayoni mazmuni va mohiyati haqidagi tasavvurlarini tizimlashtirish maqsadida maqsadida “Ikki qismli kundaliklar” interfaol metodini taqdim etadi (7-ilova).	“Ikki qismli kundalik”larni individual ravishda to`ldirishadi.
	3.2.Talabalarning “Ikki qismli kundalik”lari bilan tanishish orqali ularning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi.	O`z fikrlarini boyitadi va to`ldiradi.
	Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi.	

***Mavzu: Ekologik tarbiya. Jismoniy tarbiya.***

***Reja:***

1. Ekologik tarbiyaning mazmuni.
2. Ekologik tarbiyaning shakl, metod va vositalari.
3. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari.
4. Jismoniy tarbiya vositalari.

***Adabiyotlar:***

1. Pedagogika /A.Q. Munavvarov tahriri ostida. – T.: O`qituvchi, 1994.
2. Pedagogika / M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008.
3. Подласы I. P . Pedagogika . V 2-x kn. Kn.2. - M.: VLADOS, 2003.
4. Общaya pedagogika / Pod.red. V.A Slastenina: V 2 ch – M: VLADOS , 2003-CH.2.
5. Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogika. – T.: Fan, 2006.

***Ekologiya (grekcha “oikas” –yashash, uy, makon, “logos” –ta`limot –*** umumiy arzda u organizmlarning yashash joyi, makoni degan ma`noni anglatadi. Ekologiya fani tirik organizmlarning ma`lum bir muhitda yashash qonuniyatlarini, ya`ni organizmlarning o`zaro va ularni o`rab turgan atrof-muhit bilan bog`liq bo`lgan hayot tarzini o`rganadi. Ekologiya so`zi tirik mavjudotlar, shu jumladan odamning yashash sharoiti va tashqi muhit bilan o`zaro munosabatini bildiradi.

***Ekologik ta`lim*** ekologik ma`rifatning asosiy jihati bo`lib, o`qitish va o`qish jarayonlarida mavjud ijtimoiy ekologik tajribaning avloddan-avlodga o`tkazilishidir. Ekologik ta`lim orqali shaxsda ekologik bilim, ko`nikma va malakalar hosil bo`ladi.

***Ekologik tarbiya*** (tor ma`noda) rivojlanayotgan shaxsda maqsadga muvofiq axloqiy-ekologik fazilatlarni tarkib toptirishni nazarda tutadi va shu orqali shaxsning ekologik xulq-atvor xususiyatlari takomillashib boradi.

**Ekologik ong** – shaxsning amaliy ekologik faoliyati va hatti-harakatini tartibga solib turadi.

**Ekologik faoliyat** esa ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui demakdir.

Ekologik dunyoqarashning ajralmas bir qismi bo'lmish **“ekologik mas'uliyat”** deganda insonning atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatini tushunamiz. Bunday munosabat insoniyatning, xususan, ayrim odamlarning bilib-bilmay, uzoqni o'ylamay tabiatga ko'rsatgan salbiy ta'siri oqibatlarini anglash va bunday ta'sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakllanadi.

**Ekologik madaniyat** – alohida shaxsning ibratli axloqiy-ekologik hatti-harakati boshqalarda zavq-shavq uyg'ota olishlik holatini ifodalaydi. Bu atama shaxs va jamiyatning atrof-muhitga munosabat darajasini belgilash uchun qo'llaniladi.

#### 4-ilova

#### *Ekologik tarbiya shakl, metod va vositalari*

<i>SHakllar</i>	<i>Metodlar</i>	<i>Vositalar</i>
Tabiat burchagidagi ishlar; sayr; ekologik kechalar; ekologiya haftaligi; shoirlar va olimlar bilan uchrashuvlar; sahna ko'rinishlari; kattalarga yordam; bellashuvlar	Kuzatish; tushuntirish; tabiat go'zalliklaridan zavqlantirish; tajriba; bolalarni gapirtirish; nutqiy-mantiqiy masalalar echish; suhbat; ekologik o'yinlar; didaktik o'yinlar	Hadislar; rivoyat va hikoyatlar; she'rlar yod olish; pandu nasihatlar; maqol va matallar; topishmoqlar; ertaklar; loto; labirint; rebus; videoroliklar

## 5-ilova

*Jismoniy tarbiya* deganda organizmning morfologik va funksional rivojlanishini jamiyat talablari darajasida amalga oshirish, jismoniy sifatlarni, qobiliyatlarni rivojlantirish, jismoniy madaniyat va sport sohasiga taalluqli maxsus bilimlarni o`zlashtirib olish tushuniladi.

*Jismoniy tarbiya* – tarbiyalanuvchilarning jismoniy va sportga oid faoliyatlarini maqsadga yo`naltirilgan, aniq tashkil etiladigan va rejali tarzda amalga oshirish tizimi.

## 6-ilova

*V.A.Slastenin, I.F.Isaev, E.N.SHiyanovlar jismoniy tarbiyaning quyidagi vazifalarini ajratib ko`rsatishadi:*

1) *bolalarning jismoniy to`g`ri rivojlanishiga yordam berish* – organizmning morfologik va funksional rivojlanishini ta`minlovchi ishchanlik qobiliyatini oshirish, uning tashqi muhitning noqulay vaziyatlariga barqaror qarshi tura olishini 2) mustahkamlash;

*asosiy harakatlantiruvchi sifatlarni rivojlantirish* – bolaning xilma-xil harakatga doir faoliyatga qobiliyatliligi uning barcha jismoniy sifatlari – kuchlilik, chidamlilik, chaqqonlik va epchillikni yuksak uyg`unlikda rivojlanishini ta`minlaydi;

3) *hayotiy muhim harakatga oid ko`nikma va malakalarni shakllantirish* – bolada maxsus harakatga doir bilim, ko`nikma va malakalarni tarkib toptirish. Harakatga doir tasavvurlarga tayangan holda bola turli sharoitlarda o`z xatti-harakatlarini boshqara olish imkoniyatiga ega bo`ladi;

4) *jismoniy madaniyatning tizimli mashg`ulotlariga barqaror qiziqish va ehtiyojlarni tarbiyalash*. Sog`lom turmush tarzning asosida bolaning doimiy ravishda o`z-o`zini jismonan rivojlantirishga ichki tayyorligi yotadi. U muntazam jismoniy mashqlar bilan shug`ullanish va bolalarning jismoniy mashg`ulotlarga faol munosabati natijasida yuzaga keladi;

5) *jismoniy madaniyat va sport, tibbiy va gigiena sohalariga oid minimum nazariy bilimlarni egallash zarurligi*. Bolalar kun tartibi va shaxsiy gigiena haqida, jismoniy madaniyat va sportning salomatlikni mustahkamlashdagi ahamiyati aniq tasavvurlarga ega bo`lishi zarur.

*B.T.Lixachev jismoniy tarbiyaning quyidagi vazifalarini ajratib ko`rsatadi:*

1) *rivojlantiruvchi* – bolalarning jismoniy kuchini va nerv tizimini takomillashtirish, o`zgaruvchan vaziyatlarga moslashuvini ta`minlash;

2) *tarbiyaviy* – bolalarda ma`naviy-axloqiy sifatlarning tarkibiy topishiga erishish. Boshqacha aytganda, “Sog`lom tanda – sog` aql”;

3) *ta`limiy* – bolalarning jismoniy madaniyatning nazariy asoslari bilan tanishtirish, uning inson hayotidagi ahamiyatini tushunib etish;

4) *sog`lomlashtiruvchi* – bolalarda harakatga doir sifatlarni tarkib toptirish, ularning baquvvat va tetiklashuviga ko`maklashish;

5) *umummadaniy* – bo`sh vaqtni mazmunli va foydali o`tkazish.

*Jismoniy tarbiyani amalga oshirish vositalari* xilma-xil bo`lib, ularni umumlashgan tarzda uch guruhga ajratish mumkin: tabiiy omillar, gigienik shart-sharoitlar va jasmoniy mashqlar.

Tabiiy omillar tabiat in`omlari (suv, havo, quyosh)ning sog`liqni mustahkamlash, bolaning morfologik va jasmoniy to`g`ri rivojlanishiga ko`maklashish imkoniyatlarini o`zida aks ettiradi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur holat “bola organizmini chiniqtirish” atamasi bilan tavsiflanadi. Bola organizmini chiniqtirish deganda, organizmni mustahkamlash, chidamlilik, zararli ta`sirlarga qarshilik ko`rsatish, hayotiy sharoitlarning o`zgarishiga tez moslashish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tizimi tushuniladi.

Bolalarning jismoniy to`g`ri rivojlanishi uchun gigienik shart-sharoitlar – uyqu, ovqatlanish va kiyinish, kun tartibi kabilarni hisobga olish zarur.

*Jismoniy mashqlar deganda*, jismoniy tarbiya qonuniyatlari va vazifalari bilan bog`liqlikda maxsus tashkil etiluvchi hamda ongli ravishda bajarishga qaratilgan harakatlar yig`indisi tushuniladi. Jismoniy mashqlarga tasnif etishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud bo`lib, ko`proq umumlashgan tasnif o`zida gimnastika, o`yin, sayr kabilarni qamrab oladi.

**1.23. “O`zbekiston Respublikasi ta`lim tizimi. Ta`lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari” mavzusidagi ma`lumotli ma`ruza ta`lim texnologiyasi modeli**

<i>Ma`ruzaga ajratilgan vaqt – 2s</i>	<i>Talabalar soni – 50 ta</i>
<i>O`quv mashg`ulotining shakli</i>	<i>Ma`lumotli ma`ruza</i>
<i>Mashg`ulotning rejasi</i>	<i>1.Tarbiya jarayonining mohiyati va ahamiyati. 2.Tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari. 3.Tarbiya turlarining umumiy tasnifi.</i>
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi</i>	Talabalarda tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati hamda tarbiya qonuniyat va tamoyillari haqida yaxlit tasavvurlarni shakllantirish
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - tarbiya tushunchasining keng va tor ma`nodagi ifodalarini tushuntirib berish; - tarbiya jarayoni, maqsadi, mazmuni va vazifalari haqida ma`lumot berish; - tarbiya jarayonining o`ziga xos xususiyatlari, qonuniyat va tamoyillarini ochib berish; - tarbiya turlarini umumiy tasniflaydi.	<i>O`quv faoliyati natijalari:</i> -keng va tor ma`nodagi tarbiya tushunchasi ta`rifini bilib oladilar; -tarbiya jarayoni, maqsadi, mazmuni va vazifalarini o`zlashtiradilar; -tarbiya jarayonining o`ziga xos xususiyatlari, qonuniyat va tamoyillari haqida ma`lumotga ega bo`ladilar; -tarbiya turlarining umumlashgan tasnifi bilan tanishadilar.
Ta`lim metodi	Ma`ruza, tushuntirish, suhbat, “Ikki qismli kundaliklar” interfaol metodi
Ta`limni tashkil etish shakli	Ma`ruza, ommaviy, individual
Didaktik vositalar	Ma`ruza matni, slayd-prezentasiya
Ta`limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
Nazorat	O`z-o`zini nazorat qilish, refleksiya

**“O`zbekiston Respublikasi ta`lim tizimi. Ta`lim sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplari” mavzusidagi ma`lumotli ma`ruzaning texnologik kartasi**

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O`qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
<b>1-bosqich. O`quv mashg`ulotiga kirish (Da`vat bosqichi) (5 minut)</b>	Talabalarni mavzuning nomlanishi, rejadagi masalalar va mustaqil o`qish uchun adabiyotlar bilan tanishtiradi (1-ilova).	Tinglashadi, yozib borishadi.
<b>2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (55 minut)</b>	2.1. Mavzuning asosiy tushunchalari bilan tanishishni taklif etadi (2-ilova).	Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etishadi, muhim chizma va jadvallarni o`z daftarlariga qayd etishadi.
	2.2. Keng va tor ma`nodagi tarbiya tushunchalarini izohlaydi (3-ilova).	
	2.3. Tarbiya jarayoni, maqsadi, mazmuni va vazifalarini yoritib beradi (4-ilova).	
	2.4. Tarbiya jarayonining o`ziga xosliklari, qonuniyat va tamoyillarini izohlaydi (5-ilova).	
	2.5. Tarbiya turlarining umumiy tasnifi bilan tanishtiradi (6-ilova).	
<b>3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (20 minut)</b>	3.1. Talabalarning tarbiya jarayoni mazmuni va mohiyati haqidagi tasavvurlarini tizimlashtirish maqsadida maqsadida “Ikki qismli kundaliklar” interfaol metodini taqdim etadi (7-ilova).	“Ikki qismli kundalik”larni individual ravishda to`ldirishadi.
	3.2. Talabalarning “Ikki qismli kundalik”lari bilan tanishish orqali ularning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi.	O`z fikrlarini boyitadi va to`ldiradi.
	Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi.	

***O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni.***

Mustaqillik yillarida, O`zbekiston Respublikasida, uzluksiz ta`limi tizimini takomillashtirish ustuvor yo`nalish sifatida e`tirof etildi. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi qonunida uzluksiz ta`lim tizimining mohiyati, yo`nalishlari, ta`lim mazmuni, ta`limning huquqiy asoslari batafsil ochib berilgan. Mazkur me`yoriy hujjat mazmunida quyidagilar ifodasini topgan:

fuqarolarga ta`lim, tarbiya berish, kasb-hunar o`rgatishning huquqiy asoslari;

ta`lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari;

har kimning bilim olishdan iborat konstitusiyaviy huquqi;

pedagogik faoliyat bilan shug`ullanish huquqi;

ta`lim muassasasining huquqiy maqomi;

ta`lim tizimi va turlari;

ta`lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilish;

ta`lim tizimini boshqarish.

O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi qonunida alohida urg`u berilganidek, ta`limni tashkil etishning asosiy maqsadi – jamiyatda intellektual va ilmiy potensialni rivojlantirish, jamiyat, oila va davlat oldidagi burchi, javobgarligini anglaydigan barkamol va mustaqil fikrli shaxsni shakllantirishdan iborat.

***Ta`lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari***

***O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi qonunining 3-moddasida ta`lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari ko`rsatib o`tilgan. Ular quyidagilardan iborat:***

ta`lim-tarbiyaning insonparvar va demokratik xarakterda bo`lishi,

ta`lim tizimining uzluksizligi va izchilligi;

umumiy o`rta, shuningdek, o`rta maxsus kasb-hunar ta`limining majburiyligi;

umumiy o`rta, shuningdek, o`rta maxsus kasb-hunar ta`limining yo`nalishlarini tanlashning ixtiyorligi;



ta`lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;  
davlat ta`lim standarti doirasida ta`lim olishning hamma uchun ochiqligi;  
ta`lim dasturini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondoshuv;  
bilimli bo`lishni rag`batlantirish;  
ta`lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg`unlashtirish.

### 3-ilova

#### *Ta`lim tizimi va turlari*

Ta`lim tizimi davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta`lim-tarbiya berish yo`lida faoliyat yurituvchi barcha turdagi ta`lim muassasalari majmui demakdir. Har bir mamlakatning ta`lim tizimi uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan chambarchas bog`liq bo`ladi.

Respublika «Ta`lim to`g`risida»gi qonunda ta`kidlanganidek, O`zbekiston Respublikasida ta`lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

Maktabgacha ta`lim – bolaning sog`lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta`minlovchi, unda o`qishga intilish hissini uyg`otuvchi, uni muntazam ta`lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-etti yoshga etguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta`lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta`lim bosqichi.

Umumiy o`rta ta`lim ikki bosqichda amalga oshiriladi. Ular quyidagilardir: boshlang`ich ta`lim (1-4-sinflar); umumiy o`rta ta`lim (1-9-sinflar).

O`rta maxsus kasb-hunar ta`limi – umumiy o`rta ta`lim negizida majburiy-ixtiyoriy ravishda tashkil etilib, o`quvchilarga ularning imkoniyatlari va qiziqishlari asosida tanlab olingan kasb-hunar bo`yicha bir yoki bir necha ixtisoslik asoslariga oid bilimlarni berish bosqichi. Mazkur muassasalarda ta`lim olish o`quvchilar tomonidan majburiy-ixtiyoriy ravishda tanlanadi.

Oliy ta`lim - o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etiladigan hamda mutaxassisliklar yo`nalishlari bo`yicha xalq xo`jaligining turli sohalariga oliy ma`lumotli mutaxassislarni tayyorlab beruvchi ta`lim bosqichi.

Oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo`lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta`lim – kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o`quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida aspirantura, ad`yunktura va doktoranturada ta`lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladigan ta`lim bosqichi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarining kasb bilimlari va ko`nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi ta`lim bosqichi.

Maktabdan tashqari ta`lim madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo`nalishlarda yo`lga qo`yiluvchi, bolalar hamda o`smirlarning ta`limga bo`lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo`sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan ta`lim bosqichi.

**1.24. “Pedagogik menejment nazariyasi va amaliyoti” mavzusidagi ma`lumotli ma`ruza ta`lim texnologiyasi modeli**

<i>Ma`ruzaga ajratilgan vaqt – 2s</i>	<i>Talabalar soni – 50 ta</i>
<i>O`quv mashg`ulotining shakli</i>	<i>Ma`lumotli ma`ruza</i>
<i>Mashg`ulotning rejasi</i>	<p><i>1.Ta`lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha.</i></p> <p><i>2.Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari haqidagi Nizom.</i></p> <p><i>3.O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limini boshqarish.</i></p> <p><i>4. Ta`lim muassasasi Ustavi – rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjat.</i></p>
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi</i>	Talabalarda tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati hamda tarbiya qonuniyat va tamoyillari haqida yaxlit tasavvurlarni shakllantirish
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- tarbiya tushunchasining keng va tor ma`nodagi ifodalarini tushuntirib berish;</li> <li>- tarbiya jarayoni, maqsadi, mazmuni va vazifalari haqida ma`lumot berish;</li> <li>- tarbiya jarayonining o`ziga xos xususiyatlari, qonuniyat va tamoyillarini ochib berish;</li> <li>-tarbiya turlarini umumiy tasniflaydi.</li> </ul>	<p><i>O`quv faoliyati natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- keng va tor ma`nodagi tarbiya tushunchasi ta`rifini bilib oladilar;</li> <li>- tarbiya jarayoni, maqsadi, mazmuni va vazifalarini o`zlashtiradilar;</li> <li>- tarbiya jarayonining o`ziga xos xususiyatlari, qonuniyat va tamoyillari haqida ma`lumotga ega bo`ladilar;</li> <li>- tarbiya turlarining umumlashgan tasnifi bilan tanishadilar.</li> </ul>
Ta`lim metodi	Ma`ruza, tushuntirish, suhbat, “Ikki qismli kundaliklar” interfaol metodi
Ta`limni tashkil etish shakli	Ma`ruza, ommaviy, individual
Didaktik vositalar	Ma`ruza matni, slayd-prezentasiya
Ta`limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
Nazorat	O`z-o`zini nazorat qilish, refleksiya

**“Pedagogik menejment nazariyasi va amaliyoti” mavzusidagi  
ma`lumotli ma`ruzaning texnologik kartasi**

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O`qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
<b>1-bosqich. O`quv mashg`ulotiga kirish (Da`vat bosqichi) (5 minut)</b>	Talabalarni mavzuning nomlanishi, rejadagi masalalar va mustaqil o`qish uchun adabiyotlar bilan tanishtiradi (1-ilova).	Tinglashadi, yozib borishadi.
<b>2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (55 minut)</b>	2.1. Mavzuning asosiy tushunchalari bilan tanishishni taklif etadi (2-ilova).	Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etishadi, muhim chizma va jadvallarni o`z daftarlariga qayd etishadi.
	2.2. Keng va tor ma`nodagi tarbiya tushunchalarini izohlaydi (3-ilova).	
	2.3. Tarbiya jarayoni, maqsadi, mazmuni va vazifalarini yoritib beradi (4-ilova).	
	2.4. Tarbiya jarayonining o`ziga xosliklari, qonuniyat va tamoyillarini izohlaydi (5-ilova).	
	2.5. Tarbiya turlarining umumiy tasnifi bilan tanishtiradi (6-ilova).	
<b>3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (20 minut)</b>	3.1. Talabalarning tarbiya jarayoni mazmuni va mohiyati haqidagi tasavvurlarini tizimlashtirish maqsadida maqsadida “Ikki qismli kundaliklar” interfaol metodini taqdim etadi (7-ilova).	“Ikki qismli kundalik”larni individual ravishda to`ldirishadi.
	3.2. Talabalarning “Ikki qismli kundalik”lari bilan tanishish orqali ularning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi.	O`z fikrlarini boyitadi va to`ldiradi.
	Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi.	

***Mavzu: Pedagogik menejment nazariyasi va amaliyoti***

***Reja:***

1. Ta'lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha.
2. Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari haqidagi Nizom.
3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish.
4. Ta'lim muassasasi Ustavi – rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjat.

***Adabiyotlar:***

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, SHarq nashriyot-matbaa konserni, 1998.
2. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, SHarq nashriyot-matbaa konserni, 1998.
3. «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida»gi Nizom. / Xalq ta'limi j., № 6, 1999.
4. Pedagogika. // M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tah.ost. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
5. Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. – T.: Fan, 2006.
6. Obshaya pedagogika / Pod. Red. V.A.Slastenin: V 2 ch. – M.: Vldos, 2003 g. CH.2.

2-ilova

Boshqarish ma'lum bir ob'ektga tashkiliy, rejali, tizimli ta'sir ko'rsatish demakdir. Ta'lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish ta'lim muassasasining faoliyat xususiyatiga ko'ra pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilish maqsadida amalga oshiriluvchi boshqaruv faoliyatidir. Menejment deganda mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayoni tushuniladi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida, O'zbekistonda ta'lim sohasini boshqarish respublika tasarrufidagi yuqori hukumat va uning boshqarish organlari

hamda mahalliy hukumat va uning boshqarish organlari tomonidan amalga oshirilishi ko`rsatilgan. Xalq ta`limi Vazirligi, Oliy va o`rta maxsus ta`lim Vazirligi O`zbekiston Respublikasida ta`limni boshqarishning davlat yuqori organlari hisoblanadi. Ta`lim tizimini jamoatchilik asosida boshqarish o`qituvchilar, o`quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik vakillaridan iborat pedagogik Kengashning umumiy o`rta ta`lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etishga yo`naltirilgan faoliyatidir. Bir yilda bir marta o`tkaziladigan maktab konferensiyasi ham jamoatchilik boshqaruviga kiradi. Konferensiyada maktab Kengashi, uning raisi saylanadi, maktabning Ustavi qabul qilinadi.

### **3-ilova**

O`zbekiston Respublikasining “Umumiy o`rta ta`lim to`g`risida”gi Nizomi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi 203-sonli qaroriga muvofiq qabul qilingan. Nizom quyidagi bo`limlarni o`z ichiga olgan: 1. Umumiy qoidalar. 2. Umumiy o`rta ta`limning maqsadi va vazifalari. 3. Umumiy o`rta ta`limni tashkil etish. 4. O`quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni. 5. Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish. 6. Umumiy o`rta ta`limni boshqarish. 7. Mablag` bilan ta`minlash va moddiy-texnika ta`minoti. 8. Xalqaro hamkorlik.

«Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari to`g`risida»gi Nizom O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi 204-sonli qaroriga muvofiq qabul qilingan. Ushbu Nizom mazmunida quyidagi masalalar yoritilgan: Umumiy qoidalar. 2. O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limining maqsadi, vazifalari va uni tashkil etish. 3. Akademik lisey va kasb-hunar kollejlariga o`quvchilarni qabul qilish, ta`lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni. 4. Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish. 5. O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limini boshqarish. 6. O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limini mablag` bilan ta`minlash va moddiy-texnika ta`minoti. 7. Xalqaro hamkorlik.

### **4-ilova**

Ta`lim muassasining Ustavi ta`lim muassasasi faoliyatiga rahbarlik va boshqarish tizimini aniqlovchi hujjatdir. Ta`lim muassasasining Ustavida ta`lim muassasasining joylashgan o`rni, uning turi, ta`lim tili, guruh raqbarlari, o`qituvchilarning huquq va burchlari, ta`lim oluvchilar va ularning ota-onalarining huquq va burchlari, shuningdek, ta`lim muassasasining iqtisodiy tuzilishi va xujalik faoliyati, boshqarish tartibi aniq belgilanishi ko`rsatib berilgan.

Ta`lim muassasasining Ustavi quyidagi bo`limlardan tashkil topadi:

1. Qisqacha ta`lim muassasasi haqidagi ma`lumotlar.
2. Ta`lim muassasasining maqsad va vazifalari.
3. Ta`lim muassasasini boshqarish.
4. O`quv-tarbiya va ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish.
5. O`qituvchi. Huquq va burchlari.
6. O`quvchi. Huquq va burchlari.
7. O`quv-ishlab chiqarish ta`limi ustalari, ma`muriy va yordamchi xodimlarning huquq va burchlari.
8. Ota-onalar yoki ularning o`rnini bosuvchi shaxslarning huquqlari, majburiyat va mas`uliyatlari.
9. Ta`lim muassasasining moddiy va moliyaviy xo`jalik ta`minoti.

**1.25. “Boshqaruvning nazariy asoslari” mavzusidagi ma`lumotli ma`ruza ta`lim texnologiyasi modeli**

<i>Ma`ruzaga ajratilgan vaqt – 2s</i>	<i>Talabalar soni – 50 ta</i>
<i>O`quv mashg`ulotining shakli</i>	<i>Ma`lumotli ma`ruza</i>
<i>Mashg`ulotning rejasi</i>	<p><i>1.Ta`lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha.</i></p> <p><i>2.Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari haqidagi Nizom.</i></p> <p><i>3.O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limini boshqarish.</i></p> <p><i>4.Ta`lim muassasasi Ustavi – rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjat.</i></p>
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi</i>	Talabalarda tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati hamda tarbiya qonuniyat va tamoyillari haqida yaxlit tasavvurlarni shakllantirish
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- tarbiya tushunchasining keng va tor ma`nodagi ifodalarini tushuntirib berish;</li> <li>- tarbiya jarayoni, maqsadi, mazmuni va vazifalari haqida ma`lumot berish;</li> <li>- tarbiya jarayonining o`ziga xos xususiyatlari, qonuniyat va tamoyillarini ochib berish;</li> <li>- tarbiya turlarini umumiy tasniflaydi.</li> </ul>	<p>O`quv faoliyati natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-keng va tor ma`nodagi tarbiya tushunchasi ta`rifini bilib oladilar;</li> <li>-tarbiya jarayoni, maqsadi, mazmuni va vazifalarini o`zlashtiradilar;</li> <li>-tarbiya jarayonining o`ziga xos xususiyatlari, qonuniyat va tamoyillari haqida ma`lumotga ega bo`ladilar;</li> <li>-tarbiya turlarining umumlashgan tasnifi bilan tanishadilar.</li> </ul>
Ta`lim metodi	Ma`ruza, tushuntirish, suhbat, “Ikki qismli kundaliklar” interfaol metodi
Ta`limni tashkil etish shakli	Ma`ruza, ommaviy, individual
Didaktik vositalar	Ma`ruza matni, slayd-prezentasiya
Ta`limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
Nazorat	O`z-o`zini nazorat qilish, refleksiya



**“Boshqaruvning nazariy asoslari” mavzusidagi ma`lumotli  
ma`ruzaning texnologik kartasi**

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O`qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
<b>1-bosqich. O`quv mashg`ulotiga kirish (Da`vat bosqichi) (5 minut)</b>	Talabalarni mavzuning nomlanishi, rejadagi masalalar va mustaqil o`qish uchun adabiyotlar bilan tanishtiradi (1-ilova).	Tinglashadi, yozib borishadi.
<b>2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (55 minut)</b>	2.1. Mavzuning asosiy tushunchalari bilan tanishishni taklif etadi (2-ilova).	Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etishadi, muhim chizma va jadvallarni o`z daftarlariga qayd etishadi.
	2.2. Keng va tor ma`nodagi tarbiya tushunchalarini izohlaydi (3-ilova).	
	2.3. Tarbiya jarayoni, maqsadi, mazmuni va vazifalarini yoritib beradi (4-ilova).	
	2.4. Tarbiya jarayonining o`ziga xosliklari, qonuniyat va tamoyillarini izohlaydi (5-ilova).	
	2.5. Tarbiya turlarining umumiy tasnifi bilan tanishtiradi (6-ilova).	
<b>3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (20 minut)</b>	3.1. Talabalarining tarbiya jarayoni mazmuni va mohiyati haqidagi tasavvurlarini tizimlashtirish maqsadida maqsadida “Ikki qismlı kundaliklar” interfaol metodini taqdim etadi (7-ilova).	“Ikki qismlı kundalik”larnı individual ravishda to`ldirishadi.
	3.2. Talabalarining “Ikki qismlı kundalik”lari bilan tanishish orqali ularning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi.	O`z fikrlarini boyitadi va to`ldiradi.
	Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi.	

***Mavzu: Boshqaruvning nazariy asoslari***

***Reja:***

1. Boshqaruv funksiyalari.
2. Boshqaruv metodlari.
3. Boshqaruv uslublari.

***Adabiyotlar:***

1. Pedagogika. // M.X. Toxtaxodjaevaning umumiy tah. ostida. – T.: O`zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Djuraev R.X., Turg`unov S.T. Umumiy o`rta ta`lim muassasalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. - Toshkent: Fan, 2006.
3. Djuraev R.X., Turg`unov S.T. Ta`lim menejmenti. - Toshkent: Voris, 2006.

**2-ilova**

Boshqarish funksiyasi deganda u yoki bu ob`ektni boshqarishga oid aniq vazifalarni hal etishga qaratilgan bir turdagi ishlar majmui tushuniladi. Boshqarish nazariyasi asoschilaridan Anri Fayol ` XX asrning boshlarida boshqaruvning besh funksiyasini ajratib ko`rsatgan: rejalashtirish, tashkil etish, farmoyish berish, muvofiqlashtirish, nazorat. A.T. To`xtaboev mazkur funksiyalarni faqat ma`muriy ekanligini ta`kidlab, ma`muriy boshqaruv funksiyalarining uch guruhini ajratib ko`rsatadi: umumiy funksiyalar; ijtimoiy-psixologik funksiyalar; texnologik funksiyalar.

Turli olimlarning fikrlarini umumlashtirgan holda, boshqaruvning quyidagi funksiyalarini ajratib ko`rsatish mumkin: 1. Axborot-tahlil funksiyasi. 2. Maqsadli-motivlashtirish funksiyasi. 3. Oldindan ko`rish-rejalashtirish funksiyasi. 4. Tashkiliy-ijrochilik funksiyasi. 5. Nazorat-tashxis funksiyasi. 6. Tartibga solish-muvofiqlashtirish funksiyasi.

### 3-ilova

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda ta'lim muassasasini boshqarishga ko'p darajada mos keladigan metodlarning to'rt asosiy guruhi: iqtisodiy, tashkiliy-ma'muriy, ijtimoiy-psixologik va axborotlar to'plash metodlarini ajratib ko'rsatish mumkin. *Istisodiy metodlar* o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlarning yig'indisini tavsiflab, har bir ishchi va butun muassasa uchun talablar belgilash bilan birgalikda zamonaviy talablar darajasida faoliyat ko'rsatishlari uchun sharoitlar yaratadi. Ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish, innovasion jarayonlarni kuchaytirish, ya'ni xodimlarning innovasion faoliyatlarini tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faolliklarini rivojlantirishda iqtisodiy metodlardan foydalaniladi. *Tashkiliy-ma'muriy metodlar* ham iqtisodiy metodlar bajaradigan vazifalarni bajaradi, faqat ularning ta'sir ko'rsatish usullari va shakllari o'zaro farq qiladi. Iqtisodiy metodlarda belgilangan masalalarni hal qilish uchun rahbarlar ta'sir ko'rsatishning turli xil usul va shakllarini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Tashkiliy-ma'muriy metodlar qarorlar, buyruqlar, farmoyishlar va ko'rsatmalar tayyorlash, ularni o'z vaqtida tegishli shaxslarga etkazish va bajarilishini nazorat qilish orqali ta'sir ko'rsatishni nazarda tutadi. *Ijtimoiy-psixologik* metodlar jamoa a'zolari o'rtasida shunday munosabatlarni vujudga keltirishni nazarda tutadiki, bunda rahbar xodimlarning bemalol, erkin harakat qilishi, o'zini-o'zi namoyon qilishi, turli jarayonlarda erkin ishtirok etishi, fikr bildirishi uchun shart-sharoitni va ijodiy muhitni yaratishi zarur.

### 4-ilova

Boshqaruv uslubi – bu ish uslublarining to'plami bo'lib, u o'zining faoliyatida ushbu boshqaruv apparatini qo'llaydi. Menejment uslubi – bu rahbarni shaxsiy sifatlarining to'plami, rahbarni qo'l ostidagilar bilan munosabati, rahbarning o'z faoliyatida ishlatadigan uslubi va yo'llari, rahbarning xodimlarni amalda bilishidir. Boshqaruv uslubi boshqaruv usulidan kelib chiqadi. Boshqaruv usuli - bu boshqaruv faoliyatini amalga oshiruvchi usul va yo'llarning to'plamidir. Boshqaruvning uchta uslubi keng tarqalgan:

1. Avtoritar (direktiv) uslubda rahbar o'z irodasini qo'l ostidagilarga ma'muriy kuch vositasida o'tkazishga intiladi, ya'ni majburlash, qo'rqitish, rag'batlantirish va boshqa chora-tadbirlardan foydalanadi.

2. Liberal (erkin ish yuritish) uslubi rahbarning o'z qarorlarini taveiyalar ko'rinishida berishi, xodimlarning ishiga kamroq aralashishi bilan tavsiflanadi. Bunda rahbar vositachi sifatida faoliyat ko'rsatadi, xodimlariga keng doirada mustaqillik, to'la erkinlik berish bilan bir qatorda, ularning harakatlariga kam e'tibor beradi va nazoratni sustlik bilan amalga oshiradi.

3. Demokratik (kollegial) uslubda rahbar o'z faoliyatini o'zining jamoasi a'zolariga tayangan holda, jamoa fikrini inobatga olib amalga oshiradi. Boshqaruv vakolatlari, faoliyat uchun javobgarlik xodimlar o'rtasida taqsimlanadi. Xodimlarning o'zaro munosabatlarini rag'batlantirish bilan birgalikda ularning bildirgan fikriga quloq soladi, ular bilan maslahatlashadi, ijobiy tomonlarini inobatga olib rag'batlantirib boradi.

**1.26. “Ta`lim muassasasining ichki boshqaruvi” mavzusidagi  
ma`lumotli ma`ruza ta`lim texnologiyasi modeli**

<i>Ma`ruzaga ajratilgan vaqt – 2s</i>	<i>Talabalar soni – 50 ta</i>
<i>O`quv mashg`ulotining shakli</i>	<i>Ma`lumotli ma`ruza</i>
<i>Mashg`ulotning rejasi</i>	<i>1.Pedagogik Kengash – ta`lim muassasasining boshqaruv organi. 2.Ta`lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish. 3.Ta`lim muassasasida ichki nazoratni tashkil etish. 4.Pedagog kadrlarni attestasiyadan o`tkazish.</i>
O`quv mashg`ulotining maqsadi	Talabalarda tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati hamda tarbiya qonuniyat va tamoyillari haqida yaxlit tasavvurlarni shakllantirish
<i><b>Pedagogik vazifalar:</b></i> - tarbiya tushunchasining keng va tor ma`nodagi ifodalarini tushuntirib berish; - tarbiya jarayoni, maqsadi, mazmuni va vazifalari haqida ma`lumot berish; - tarbiya jarayonining o`ziga xos xususiyatlari, qonuniyat va tamoyillarini ochib berish; - tarbiya turlarini umumiy tasniflaydi.	<i><b>O`quv faoliyati natijalari:</b></i> -keng va tor ma`nodagi tarbiya tushunchasi ta`rifini bilib oladilar; -tarbiya jarayoni, maqsadi, mazmuni va vazifalarini o`zlashtiradilar; -tarbiya jarayonining o`ziga xos xususiyatlari, qonuniyat va tamoyillari haqida ma`lumotga ega bo`ladilar; -tarbiya turlarining umumlashgan tasnifi bilan tanishadilar.
Ta`lim metodi	Ma`ruza, tushuntirish, suhbat, “Ikki qismli kundaliklar” interfaol metodi
Ta`limni tashkil etish shakli	Ma`ruza, ommaviy, individual
Didaktik vositalar	Ma`ruza matni, slayd-prezentasiya
Ta`limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
Nazorat	O`z-o`zini nazorat qilish, refleksiya

**“Ta`lim muassasasining ichki boshqaruvi” mavzusidagi ma`lumotli  
ma`ruzaning texnologik kartasi**

<b><i>Ish bosqichlari va vaqti</i></b>	<b><i>Faoliyat mazmuni</i></b>	
	<b><i>O`qituvchi</i></b>	<b><i>Talaba</i></b>
<b><i>1-bosqich. O`quv mashg`ulotiga kirish (Da`vat bosqichi) (5 minut)</i></b>	Talabalarni mavzuning nomlanishi, rejadagi masalalar va mustaqil o`qish uchun adabiyotlar bilan tanishtiradi (1-ilova).	Tinglashadi, yozib borishadi.
<b><i>2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (55 minut)</i></b>	2.1. Mavzuning asosiy tushunchalari bilan tanishishni taklif etadi (2-ilova).	Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etishadi, muhim chizma va jadvallarni o`z daftarlariga qayd etishadi.
	2.2. Keng va tor ma`nodagi tarbiya tushunchalarini izohlaydi (3-ilova).	
	2.3. Tarbiya jarayoni, maqsadi, mazmuni va vazifalarini yoritib beradi (4-ilova).	
	2.4. Tarbiya jarayonining o`ziga xosliklari, qonuniyat va tamoyillarini izohlaydi (5-ilova).	
	2.5. Tarbiya turlarining umumiy tasnifi bilan tanishtiradi (6-ilova).	
<b><i>3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (20 minut)</i></b>	3.1. Talabalarning tarbiya jarayoni mazmuni va mohiyati haqidagi tasavvurlarini tizimlashtirish maqsadida maqsadida “Ikki qismli kundaliklar” interfaol metodini taqdim etadi (7-ilova).	“Ikki qismli kundalik”larni individual ravishda to`ldirishadi.
	3.2. Talabalarning “Ikki qismli kundalik”lari bilan tanishish orqali ularning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi.	O`z fikrlarini boyitadi va to`ldiradi.
	Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi.	

***Ta`lim muassasasi ichki boshqaruvi***

***Reja:***

1. Pedagogik Kengash – ta`lim muassasasining boshqaruv organi.
2. Ta`lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish.
3. Ta`lim muassasasida ichki nazoratni tashkil etish.
4. Pedagog kadrlarni attestasiyadan o`tkazish.

***Adabiyotlar:***

1. Pedagogika. // M.X. Toxtaxodjaevaning umumiy tah. ostida. – T.: O`zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Djuraev R.X., Turg`unov S.T. Umumiy o`rta ta`lim muassasalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Djuraev R.X., Turg`unov S.T. Ta`lim menejmenti. - Toshkent: Voris, 2006.

***Pedagogik Kengashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:***

ta`lim muassasasi (umumiy o`rta ta`lim maktabi, akademik lisey, kasb-hunar kolleji)ning tayyorlangan muhim hujjatlarini muhokamadan o`tkaziladi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi;

ta`lim muassasasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishning istiqbolli yo`nalishlarini belgilaydi;

ta`lim muassasasida o`quv, tarbiya jarayonini tashkil etish va ta`lim samaradorligini oshirishda maqbul shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qarorlarni qabul qiladi;

ta`lim muassasasi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo`yicha yo`l-yo`riqlarni ishlab chiqadi;

pedagogik jamoaning ma`lum yo`nalishlardagi faoliyatini tahlil qiladi va yakuniy xulosa chiqaradi;

ta`lim muassasasi pedagogik jamoasi uchun o`z vakolati doirasida me`yoriy talablarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi.

### 3-ilova

#### *Pedagogik Kengash quyidagi huquqlarga ega:*

ta`lim muassasasini rivojlantirish yo`nalishlarini istiqbol rejasini belgilash;  
ta`lim muassasasi jamoasi oldiga qo`yilgan maqsad va vazifalarining bajarilishini amalga oshirish;

o`quv rejada maktab ixtiyoriga berilgan soatlarni taqsimlash, yillik va taqvimiy ish rejasi mazmuni hamda dars jadvalini muhokama qilish;

o`quv jarayonini tashkil qilishning turli shakl va metodlarini muhokama qilish, amaliyotga tatbiq etish;

ta`lim muassasasi ta`lim jarayoniga oid barcha masalalarni o`z vakolati doirasida muhokama etish va tegishli qaror qabul qilish;

pedagoglar malakasini oshirish tizimi, ularning ijodiy tashabbuskorliklarini rivojlantirish bo`yicha o`z takliflarini berish;

o`quvchilarning bilim darajasini aniqlashda oraliq nazorat bo`yicha qaror qabul qilishda qatnashish, uni o`tkazish shakli va vaqtini belgilash;

ta`lim oluvchilarni sinfdan-sinfga, kursdan-kursga ko`chirish va bituvchilarni yakuniy attestasiyaga qo`yish bo`yicha qaror qabul qilish;

ta`lim darayonini tashkil qilish hamda ta`lim muassasasini rivojlantirishga doir masalalar bo`yicha maktab rahbariyatining hisobotlarini tinglash;

ta`lim maqsadiga muvofiq holda o`quvchilarni rag`batlantirish va jazolash bo`yicha masalalarni hal etish;

chorak, yarim yillik «semestr», yil yakuniga doir xulosalar chiqarish;

pedagogik Kengash a`zolaridan pedagogik faoliyatni bir xil tamoyillarga asosan amalga oshirishni talab qilish;

ta`lim-tarbiya jarayonida alohida xizmat ko`rsatgan ta`lim muassasasi xodimlarini rag`batlantirishga tavsiya qilish;

yakuniy attestasiyadan muvaffaqiyatli o`tgan o`quvchilarga o`rnatilgan tartibda hujjatlar berish to`g`risida qaror qabul qilish.

### 4-ilova

Boshqaruv faoliyatining maqsadi – ishning umumiy yo`nalishi, mazmuni, shakli va metodlarini aniqlash. Demak, maqsad – rejaning asosi. Boshqaruvda asosiy maqsad aniq-langandan keyin, unga erishish uchun qo`shimcha maqsad qo`yiladi. Ta`lim muassasasini boshqarishni rejalashtirish pedagogik tahlil asosida belgilangan dasturiy maqsadga muvofiq qaror qabul qilishdir. Bunday qarorlar ma`lum bir muddat davridagi ma`lumotlarni tahlil qilish orqali yoki yakuniy ishlarni bajarib bo`lgandan so`ng qabul qilinishi mumkin.

Rejalashtirish boshqarishga bevosita rahbarlik qilish yoki uni amalga oshirish yo`lidir. Boshqarishda belgilangan maqsad, tadbirlarni hayotga tatbiq etish uchun rejalashtirish kerak. So`ng uni ijrochilar xukmiga havola qilish lozim. Rejalashtirish qaror qabul qilish va ijrosini nazorat qilishdir. Rejalashtirishning mohiyati shundaki, unda boshqarishning maqsad va vazifalari aniqlanadi, har bir tadbirni bajarish muddati, ma`sul shaxs, uning ijrosini tekshirish va nazorat usuli aniqlanadi.

## **5-ilova**

Ichki nazorat ham ta`lim muassasasini boshqarishda alohida o`rin tutadi. Nazoratni tashkil etishda etishmovchiliklarni bartaraf etish uchun bir qancha talablarni bilish zarur. Bunday talablarga tizimlilik, ob`ektivlik, harakatlilik, to`ldiruvchilik kabilarni ko`rsatish mumkin.

Pedagogik boshqaruvga doir adabiyotlarda, ta`lim muassasasi ichki nazoratining quyidagi yo`nalishlarda tashkil etilishi bayon etilgan:

Pedagogik tashkilotchilikka doir savollarning qo`yilishi.

Ta`lim dasturlari, DTSning bajarilish sifati.

O`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarining sifati.

O`quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi.

O`qitishning ta`limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarining bajarilish holati.

Darsdan tashqari tarbiya ishlarning tashkil etilish holati va sifati.

Pedagogik kadrlar bilan ishlash.

Ta`lim muassasasi faoliyatining o`ziga xos samaradorligi.

qabul qilingan qarorlar va me`yoriy-huquqiy hujjatlarda ko`rsatilgan talablarning bajarilishi.

## **6-ilova**

Tarbiyalanuvchining psixikasi va jismoniy taraqqiyotida bosqichma-bosqich va qonuniy o’zgarishlarning sodir bo’lishi

***E) shakllanish***

### 3.2. “Ta’lim jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari” mavzusidagi amaliy mashg’ulotning texnologik modeli

<b>Mashg’ulot vaqti –</b> <b>2 soat</b>	<b>Talabalar soni: 20-30 nafar</b>
<b>Mashg’ulot shakli</b>	<b>Amaliy</b>
<b>Amaliy mashg’ulotning tuzilishi</b>	<p>Ta’lim jarayonini yaxlit tizim sifatida o’rganish va tahlil etish.</p> <p>“Qonun”, “qonuniyat” va “tamoyil” tushunchalarining mazmun-mohiyatini aniqlashtirish.</p> <p>Ta’limning umumiy va xususiy qonuniyatlarini izohlash hamda mohiyatini ochib berish.</p> <p>Ta’limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillarini tahlil etish hamda ta’lim qonuniyatlari bilan aloqadorligini baholash.</p>
<b>Amaliy mashg’ulotining maqsadi:</b> talabalarning ta’lim jarayoni, uning qonuniyatlari va tamoyillariga doir nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularda ta’lim qonuniyatlari va tamoyillaridan foydalanish ko’nikma va malakalarini tarkib toptirish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> 1. Talabalarni ta’lim jarayonini yaxlit hodisa sifatida tushunishga yo’naltirish. 2. “Qonun”, “qonuniyat”, “tamoyil” va “qoida” tushunchalarining mazmun-mohiyatini o’zlashtirilishiga erishish. 3. Ta’limning umumiy va xususiy qonuniyatlarini ajrata olishga o’rgatish. 4. Ta’limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillarining ta’lim qonuniyatlari bilan aloqadorligini ko’rsatib berish.	<b>O’quv faoliyati natijalari:</b> 1. Ta’lim jarayoni yaxlit hodisa sifatida maqsad, natija, o’qituvchi va o’quvchi faoliyati, mazmun, shakl, metod va vosita kabi tarkibiy qismlarning o’zaro aloqadorligi va bog’liqligidan iborat ekanligini anglaydilar. 2. “Qonun”, “qonuniyat”, “tamoyil”, “qoida” tushunchalarining ta’rifini bilib olishadi. 3. Ta’limning umumiy va xususiy qonuniyatlarini o’zlashtiradilar. 4. Ta’limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillarining ta’lim qonuniyatlari bilan aloqadorligi haqida xulosalar chiqaradilar.
Ta’lim metodlari	Tushuntirish, suhbat, keys, ijodiy test, amaliy, chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi.
O’quv faoliyatini tashkil etish shakllari	Individual va guruhlarda ishlash.
O’quv vositalari	Uslubiy qo’llanma, proektor, markerlar, tarqatma materiallar
Ta’lim berish sharoiti	Texnik ta’minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo’ljallangan auditoriya
Nazorat va baholash	Yozma (topshiriqlarni daftarga yozish) va og’zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat; ikki ballik shkala asosida baholash.

**“Ta’lim jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari” mavzusidagi amaliy mashg’ulotning texnologik kartasi**

<b>Ish bosqichlari va vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>Ta’lim beruvchi</b>	<b>Ta’lim oluvchilar</b>
<b>Tayyorlov bosqichi</b>	Mavzuni aniqlaydi, ta’limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta’limiy maqsadlarga mos o’quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi (1-ilova).	Amaliy topshiriqlari bilan tanishadilar, o’zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishadi.
	Talabalarning individual va guruhdagi ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi (2-ilova).	
<b>O’quv mashg’ulotiga kirish bosqichi (10 daq)</b>	1.1. Mashg’ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyati va dolzarbligini asoslaydi.	Mashg’ulotga tayyorlanish jarayonida yuzaga kelgan savollar bilan murojaat qilishadi
	1.2. Talabalarni mashg’ulotga chorlab olish maqsadida ta’lim jarayoni formulasini taqdim etadi va unga izoh berishni so’raydi (3-ilova).	Pedagogik formulalar bilan tanishishadi va o’z fikr-mulohazalarini bayon etishadi.
<b>Asosiy bosqich (55 daqiqa)</b>	2.1. Ta’lim jarayonini yaxlit hodisa sifatida tushunishga yordam beruvchi keys topshirig’ini beradi va bajarish tartibini tushuntiradi (4-ilova).	Keys topshirig’ini bajarishadi va uni taqdimot qilishadi
	2.2. “Qonun”, “qonuniyat”, “tamoyil” va “qoida” tushunchalarining talabalar tomonidan o’zlashtirilganligini aniqlashga doir ijodiy test o’tkazadi (5-ilova).	Ijodiy test topshirig’ini bajarishadi va o’z-o’zini nazorat qiladi
	2.3. Ta’limning umumiy va xususiy qonuniyatlarining o’zlashtirishga doir amaliy topshiriqlarni taqdim etadi va uni bajarishga doir zarur ko’rsatmalar beradi (6-ilova).	Amaliy topshiriqlarni bajarishadi va unga zaruriy o’zgartirishlar kiritadi
	2.4. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi interfaol metodi asosida ta’limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillarini ajratib olishga o’rgatadi (7-ilova)	Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlarni to’g’ri o’ringa qo’yish asosida ta’limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillari haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar
<b>Yakuniy bosqich (20 daqiqa)</b>	3.1. Mashg’ulot yuzasidan umumiy xulosalarni chiqaradi va talabalar tomonidan yo’l qo’yilgan xatolarni tuzatadi.	Tinglaydilar va o’zlarining xatolarini daftarlariga tuzatadilar
	3.2. Talabalar tomonidan to’plangan ballarni e’lon qiladi va mashg’ulotni yakunlaydi.	O’zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishadi.

**2-amaliy mashg'ulot. Mavzu: Ta'lim jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari.**

***Mashg'ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun):***

Ta'lim jarayonini yaxlit hodisa sifatida o'rganish va uning tuzilishini aniqlashtirish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. – B. 31-32; Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. – B.29-31; Podlasъy I.P. Pedagogika. – M: Vыsshee obrazovanie, 2008).

Pedagogikaga oid lug'atlardan (Hasanboev J., To'raqulov X., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2009; Pedagogicheskiy entsiklopedicheskiy slovar ` . – M.: Nauchnoe izdatel `stvo «Bol `shaya Rossiyskaya entsiklopediya», 2007; Morozova O.P. Pedagogicheskiy slovar ` -spravochnik. – Barnaul: 2000) foydalangan holda “qonun”, “qonuniyat”, “tamoyil” va “qoida” tushunchalariga izoh yozish.

Ta'limning umumiy va xususiy qonuniyatlarini o'rganish hamda har biriga alohida-alohida izoh berish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. – B. 31-32; Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. – B.29-31; Podlasъy I.P. Pedagogika. – M: Vыsshee obrazovanie, 2008.).

Ta'limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillarini o'rganish va tahlil etish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. – B. 31-32; Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. – B.29-31; Podlasъy I.P. Pedagogika. – M: Vыsshee obrazovanie, 2008).

***Talabalarning mashg'ulot bo'yicha baholash mezonlari***

***Jami: 2 ball***

***Adabiyotlar bilan ishlash va konspekt qilish. – 0,5 ball.***

***Mashg'ulotga doir topshiriqlarni bajarish va munozaralarda ishtirok etish – 1,5 ball.***



### *Ta'lim jarayoni "formula"si*

**Izoh:** odatda formula deganda ko'z oldimizga matematik-fizik hodisalar gavdalanadi. Biroq ta'lim jarayoni ham o'ziga xos formulalarda ifodalanish xususiyatiga ega. Quyidagi formulaga e'tibor qarating va uni izohlang. Sizningcha, unda qanday ma'no ifoda etilgan?

$$DJ = M + A_{bf} + A_b$$

$DJ$  –


$M$  –

$A_{bf}$  –

$A_b$  –

### **Keys topshirig'i: "Ta'lim jarayoni yaxlit hodisa sifatida"**

Quyida keltirilgan chizmaga e'tibor qarating. Unda grafik ifoda etilgan, biroq unda aks etishi lozim bo'lgan jumlar chizma ostida berilgan. Mazkur jummalarni shunday ketma-ketlikda joylashtiringki, natijada ta'lim jarayoni tarkibiy qismlarining o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi aniq namoyon bo'lsin.



***Chizmada aks ettirilishi lozim bo'lgan jumlar:***

1. Maqsad. 2. Natija. 3. O'qituvchi faoliyati. 4. O'quvchi faoliyati. 5. Mazmun.  
6. SHakl. 7. Metod. 8. Vosita

**5-ilova**

***Ijodiy test topshirig'i***

Gapni tugallang.

Barqaror, takrorlanuvchi, invariantli tavsifga ega narsa-hodisa va jarayonlarning ichki mavjud aloqalari ...

Nuqtalar o'rniga kerakli so'z yoki jumlani topib qo'ying.

Didaktikada ... deganda ta'limiy hodisalarning namoyon bo'lishi va rivojlanishi bilan shartlanadigan ichki mavjud aloqalar tushuniladi.

Gapni davom ettiring.

Qonuniyat – bu ...

Gapni tugallang.

Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari orasidagi ob'ektiv, mavjud, barqaror, takrorlanuvchi aloqadorlik ...

Gapni davom ettiring.

Tamoyil deganda ...

6. Nuqtalar o'rniga kerakli jumlani topib qo'ying.

... o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilovchi boshlang'ich qoidalardir

7. Gapni tugallang.

Ta'lim tamoyillarini amalga oshirish texnologiyasi ...

**6-ilova**

Ta'limning qonuniyatlarini o'zlashtirishga doir topshiriqlar ta'limning umumiy qonuniyatlariga doir topshiriqlar.

**1.1. Quyidagilar orasidan ta'lim maqsadini belgilovchi qonuniyatlarni aniqlang.**

1) jamiyatning rivojlanish sur'ati va darajasi; 2) ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur'ati; 3) o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi; 4) jamiyatning talablari va imkoniyatlari; 5) o'quvchilarning yoshi, ta'lim olish imkoniyatlari; 6) pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari

**1.2. Quyidagi qonuniyatlarni ta'lim jarayonining qaysi tarkibiy qismiga tegishli deb hisoblaysiz?**

1) avvalgi bosqich mahsuldorligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar; 2) o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi; 3) o'quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta'sir ko'rsatish; 4) o'quvchilarning bilim olishga qobiliyatlari va ta'lim vaqti.

**1.3. Ta'lim metodlari samaradorligi quyidagi qaysi qonuniyatlarni hisobga olish bilan bog'liq?**

1) ta'lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korrektsiyaga; 2) ta'limning ichki rag'batlariga; 3) ta'lim maqsadiga; 4) o'quvchilarning yoshi, ta'lim olish imkoniyatlariga; 5) ta'lim muassasasining moddiy-texnik ta'minotiga.

**1.4. Quyidagi qonuniyatlardan qaysilari ta'lim sifatini ta'minlashga xizmat qiladi?**

1) o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi; 2) ta'lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi; 3) ta'limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari; 4) avvalgi bosqich mahsuldorligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar.

**1.5. Ta'lim mazmunini belgilashda qaysi qonuniyatlarga amal qilish lozim?**

1) ta'limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari; 2) o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi; 3) ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur'ati; 4) o'quvchilarning yoshi imkoniyatlari; 4) ta'lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korrektsiya; 5) ta'lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi.

### ***Ta'limning xususiy qonuniyatlariga doir topshiriq.***

Quyidagi fikrlar bilan tanishing va ularni ta'limning qaysi xususiy (tashkiliy, sotsiologik, psixologik, kibernetik, gnoseologik) qonuniyatiga tegishli ekanligini aniqlang:

Ta'lim natijalari o'quvchilarning o'zlashtirish ko'nikmalariga; ta'lim samaradorligi o'quvchilarning o'quv faoliyati hajmiga; bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligi ularning amalda qo'llanilishiga; o'quvchilarning aqliy rivojlanishi o'zaro aloqador bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish hajmiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq.

Ta'lim samaradorligi o'quvchilarning o'quv faoliyatiga qiziqishiga; fikrlash darajasi, kuchi, jadalligi va o'ziga xosligiga; xotiraning rivojlanganlik darajasiga; bilish faolligi darajasiga bevosita bog'liq.

Ta'lim samaradorligi qayta aloqalarning tezligi va hajmiga; bilimlarning sifati nazoratning to'g'ri olib borilishiga; ta'lim sifati o'quv jarayonini boshqarish sifatiga; boshqaruvning samaradorligi boshqaruvga doir axborotlarning soni va sifatiga bevosita bog'liq.

Individning rivojlanishi u bevosita va bilvosita muloqotda bo'ladigan individlarning rivojlanishiga; ta'lim samaradorligi "intellektual muhit"ning mavjud holatiga, o'zaro bir-biriga o'rgatishning jadalligiga; o'qituvchi va o'quvchilar muloqotining sifatiga bevosita bog'liq.

Ta'lim natijasi o'quvchining o'quv mehnatiga, o'zining o'quv majburiyatlariga munosabatiga; o'quvchining ishchanlik qobiliyatiga; o'quvchilarning aqliy faolligini oshirish o'quv mashg'uloti jadvalining tuzilishi, unda jismoniy tarbiya va mehnat mashg'ulotlarining joylashtirilishiga bevosita bog'liq.

### **7-ilova**

Ta'limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillarini aniqlashga doir chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar

Quyida keltirilgan ta'limning tamoyillari bilan tanishing. Ularni maqsadiga ko'ra ikki tur (mazmunli va tashkiliy-metodik)ga ajrating.

Insonparvarlik.

Tabiat bilan uyg'unlik.  
 Ko'rgazmalilik.  
 Onglilik, faollik, ijodiylik.  
 Madaniyat bilan uyg'unlik.  
 Tushunarlilik.  
 Ilmiylik.  
 Ta'limning amaliyot bilan uyg'unligi.  
 Izchillik, tizimlilik, ketma-ketlik.  
 Tarbiyalovchi ta'lim.  
 O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.  
 Oqilona talabchanlik bilan ta'lim oluvchi shaxsini hurmat qilish.

<i>Ta'limning mazmunli tamoyillari</i>	<i>Ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillari</i>

### 3.3. “Ta’lim mazmuni” mavzusidagi amaliy mashg’ulotning texnologik modeli

<b>Mashg’ulot vaqti – 2 soat</b>	<b>Talabalar soni: 20-30 nafar</b>
<b>Mashg’ulot shakli</b>	<b>Amaliy</b>
<b>Amaliy mashg’ulotning tuzilishi</b>	<p>“Ta’lim mazmuni” tushunchasini va ta’lim mazmunini belgilashga doir yondashuvlarni o’rganish hamda tahlil etish.</p> <p>Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi zamonaviy g’oyalarni mazmun-mohiyatini yoritish.</p> <p>Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi asosiy me’yoriy hujjatlarni o’rganishga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.</p> <p>Darslik va uning vazifalari, unga qo’yiladigan talablar hamda o’quv qo’llanmalarining turlarini aniqlashtirish.</p>
<b>Amaliy mashg’ulotning maqsadi:</b> talabalarning ta’lim mazmuni, ta’lim mazmunini belgilab zamonaviy g’oyalarga doir nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularda ta’lim mazmunini belgilab beruvchi me’yoriy hujjatlar bilan ishlash ko’nikma va malakalarini tarkib toptirish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O’quv faoliyati natijalari:</b>
1.“Ta’lim mazmuni” tushunchasini va ta’lim mazmunini belgilashga doir yondashuvlar mohiyatini anglab olinishiga erishish.	1.“Ta’lim mazmuni” tushunchasini va ta’lim mazmunini belgilashga doir yondashuvlar mohiyatini tushunib olishadi.
2.Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi zamonaviy g’oyalarning o’ziga xosliklarini ajrata olishga o’rgatish.	2.Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi zamonaviy g’oyalarni o’zlashtiradilar.
3.Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi asosiy me’yoriy hujjatlar bilan ishlash ko’nikma va malakalarini tarkib toptirish.	3.Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi asosiy me’yoriy hujjatlarni o’rganadilar hamda ular bilan ishlash ko’nikmalariga ega bo’lishadi.
4.Darslik va o’quv qo’llanmalarining ta’lim mazmunini yoritishdagi ahamiyatini aniqlashtirish.	4.Darslik va o’quv qo’llanmalarining ta’lim mazmunini yoritishdagi ahamiyati haqida aniq xulosalarga kelishadi.
Ta’lim metodlari	Tushuntirish, suhbat, aqliy hujum, blits-so’rov, muqobilini tanlab olish testi, asoslangan esse.
O’quv faoliyatini tashkil etish shakllari	Individual va guruhlarda ishlash.
O’quv vositalari	Uslubiy qo’llanma, proektor, markerlar, tarqatma materiallar
Ta’lim berish sharoiti	Texnik ta’minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo’ljallangan auditoriya
Nazorat va baholash	Yozma (topshiriqlarni daftarga yozish) va og’zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat; ikki ballik shkala asosida baholash.

**“Ta’lim mazmuni” mavzusidagi amaliy mashg’ulotning texnologik kartasi**

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta’lim beruvchi</i>	<i>Ta’lim oluvchilar</i>
<b>Tayyorlov bosqichi</b>	Mavzuni aniqlaydi, ta’limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta’limiy maqsadlarga mos o’quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi (1-ilova).	Amaliy topshiriqlari bilan tanishadilar, o’zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishadi.
	Talabalarning individual va guruhdagi ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi (2-ilova).	
<b>O’quv mashg’ulotiga kirish bosqichi (10 daq)</b>	1.1.Mashg’ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyati va dolzarbligini asoslaydi.	Mashg’ulotga tayyorlanish jarayonida yuzaga kelgan savollar bilan murojaat qilishadi
	1.2.Talabalarni mashg’ulotga chorlab olish maqsadida “Nima uchun o’zlashtirish zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning aniq doirasini belgilab olish lozim?” mavzusida aqliy hujumni tashkil etadi (3-ilova).	O’zlarining mustaqil fikrlarini bildirishadi va jamoaviy munozarada ishtirok etishadi.
<b>Asosiy bosqich (55 daqiqa)</b>	2.1. Ta’lim mazmuni va ta’lim mazmunini belgilashga doir yondashuvlar bilan bog’liqlikda blits-so’rov o’tkazadi (4-ilova).	Savollarga javob berishadi va o’zlarining yozganlariga tuzatishlar kiritishadi.
	2.2.Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi zamonaviy g’oyalarni o’zlashtirishga doir muqobilini tanlab olish testini o’tkazadi (5-ilova).	Test topshirig’ini bajarishadi va o’z-o’zini nazorat qiladi
	2.3.Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi asosiy me’yoriy hujjatlarni o’rganishga doir amaliy topshiriqlarni taqdim etadi va uni bajarishga doir zarur ko’rsatmalar beradi.(6-ilova).	Amaliy topshiriqlarni bajarishadi va unga zaruriy o’zgartirishlar kiritadi
	2.4.Darslik va o’quv qo’llanmalarining ta’lim mazmunini yoritishdagi ahamiyatiga doir talabalar tomonidan yozib kelingan asoslangan esselar bilan tanishadi va o’z munosabatini bildiradi.	Asoslangan esseni taqdim etishadi va o’z nuqtai nazarlarini himoya qiladilar
<b>Yakuniy bosqich (20 daqiqa)</b>	3.1.Mashg’ulot yuzasidan umumiy xulosalarni chiqaradi va talabalar tomonidan yo’l qo’yilgan xatolarni tuzatadi.	Tinglaydilar va o’zlarining xatolarini daftarlariga tuzatadilar
	3.2.Talabalar tomonidan to’plangan ballarni e’lon qiladi va mashg’ulotni yakunlaydi.	O’zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishadi.

### **3-amaliy mashg'ulot. Mavzu: Ta'lim mazmuni.**

#### ***Mashg'ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun):***

“Ta'lim mazmuni” tushunchasini va ta'lim mazmunini belgilashga doir yondashuvlarni o'rganish hamda tahlil etish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. – B. 31-32; Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. – B.29-31; Podlasъy I.P. Pedagogika. – M: Vыsshee obrazovanie, 2008; Pedagogika / pod.red. P.I.Pidkasistogo. – M.: Vыsshee obrazovanie, 2008).

Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi zamonaviy g'oyalar mazmun-mohiyatini yoritish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. – B. 31-32; Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. – B.29-31; Podlasъy I.P. Pedagogika. – M: Vыsshee obrazovanie, 2008; Pedagogika / pod.red. P.I.Pidkasistogo. – M.: Vыsshee obrazovanie, 2008).

DTS, o'quv rejasi, o'quv dasturi haqidagi nazariy ma'lumotlarni o'rganish va konspekt qilish (O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni (7-modda); Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. – B. 31-32; Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. – B.29-31; Podlasъy I.P. Pedagogika. – M: Vыsshee obrazovanie, 2008; Pedagogika / pod.red. P.I.Pidkasistogo. – M.: Vыsshee obrazovanie, 2008).

Darslik va uning vazifalari, unga qo'yiladigan talablar hamda o'quv qo'llanmalarining turlarini o'rganish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. – B. 31-32; Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. – B.29-31; Podlasъy I.P. Pedagogika. – M: Vыsshee obrazovanie, 2008; Pedagogika / pod.red. P.I.Pidkasistogo. – M.: Vыsshee obrazovanie, 2008).

“Darslik va o'quv qo'llanmalarining bilim manbai sifatidagi ahamiyati shundaki...” mavzusida asoslangan esse yozish.

Topshiriqni bajarishga doir ko'rsatma:

mazkur mavzu yuzasidan o'z nuqtai nazaringizni bayon eting;

nuqtai nazaringizni asoslash uchun dalillar kiriting;

mavzu yuzasidan aniq xulosalar chiqaring.



## 2-ilova

### *Talabalarning mashg'ulot bo'yicha baholash mezonlari*

*Jami: 2 ball*

*Adabiyotlar bilan ishlash va konspekt qilish. – 0,5 ball.*

*Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar bilan ishlash – 1,5 ball.*

## 3-ilova

“Nima uchun o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning aniq doirasini belgilab olish lozim?” mavzusida aqliy hujumni o'tkazishga doir ko'rsatmalar

O'qituvchi savolni muhokama qilish uchun o'rtaga tashlaydi va o'ylash uchun bir daqiqa vaqt beradi.

Talabalarning javoblari tinglanadi va doskaga ketma-ketlikda yozib boriladi. Garchi takrorlanish holati mavjud bo'lsa ham, mazkur holatda hamma javoblarning yozib borilishi talab etiladi,.

Hamma o'z fikrini bildirib bo'lgach, o'qituvchi doskaga yozilganlarini talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi va to'g'ri javoblar ajratib olinadi.

## 4-ilova

Ta'lim mazmuni va ta'lim mazmunini belgilashga doir yondashuvlarni aniqlashtirishga doir blits-so'rov savollari

Ta'lim mazmuni deganda nima tushuniladi?

Ta'lim mazmunini belgilashda ekstensiv yondashuv deganda nimani tushunasiz?

SHaxsga yo'naltirilgan yondashuvning ta'lim mazmunini belgilashdagi imkoniyatlarini qanday baholaysiz?

Formal ta'lim nazariyasining asosiy g'oyasi nimadan iborat?

“Ko'p bilim aql o'rgata olmaydi” iborasini qanday izohlash mumkin?

Formal ta'lim nazariyasi tarafdorlari qanday falsafiy oqimga tayanadilar?

Moddiy ta'lim nazariyasining asosida qanday g'oya yotadi?

Moddiy ta'lim nazariyasining rivojlanishiga qanday omil turtki bo'ldi?

Qaysi pedagog olimlar formal va moddiy ta'lim nazariyasini birlashtirish g'oyasini ilgari surdilar?

Pragmatik yondashuv asosini nima tashkil etadi?

Uil `yam Kilpatrik tomonidan ilgari surilgan “loyihalar metodi”ni qanday baholaysiz?

Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi zamonaviy g'oyalarni o'zlashtirishga doir muqobilini tanlab olish testi

Ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsi-ning ustuvor o'rin tutishi, uning shaxsi, xohish-istak va qiziqishlarini hurmat qilish, birinchi navbatda ularning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil hayotda o'z yo'llarini topib olishlari uchun sharoit yaratishni ko'zda tutadi.

A. Standartlashtirish

O'quv dasturidagi soatlarga qo'shimchalar kiritish, chuqurlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan tarzda o'qitish.

V. Amaliylashtirish

3. Bir-biriga yaqin bo'lgan fanlar va mavzularni qo'shib o'qitish, fanlar sonini kamaytirish va ixchamlashtirish.

S. Insonparvarlashtirish

4. Egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal darajasini aniq belgilash.

D. Tabaqalashtirish

5. Nazariy bilimlarni puxta o'zlashtirgan holda ularni amaliyotda faol qo'llay olishga tayyorlash

J. Individuallashtirish

6. O'quvchilarning alohida o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda o'qitish mazmunini belgilash.

E. Integratsiyalash

***Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi asosiy me'yoriy hujjatlarni o'rganishga doir amaliy topshiriqlar***

***1-topshiriq. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining tarmoq standartini quyidagi chizma asosida tahlil eting.***

<b><i>O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari TStlarining tuzilishi</i></b>	<b><i>Mazmuni</i></b>
1. Qo'llanilish sohasi. 2. Me'yoriy hujjatlar. 3. Standartning maqsad va vazifalari 4. Ta'riflar 5. Kasbiy tavsifnoma 6. Kasb-hunar tayyorgarligining majburiy minumimi	

***2-topshiriq. Quyidagi sxema asosida o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari o'quv rejasini tahlil eting.***

***O'quv jarayoni jadvali bo'yicha:***

<b><i>O'quv jarayonining tuzilishi</i></b>	<b><i>Haftalar soni</i></b>
Nazariy va amaliy ta'lim	
Amaliyot	
Attestatsiya	
Ta'til	
Jami:	

**2. O'quv rejasini o'rganishga doir:**

<i>O'quv fanlari, integrallashgan kurslar va bloklarning nomlari</i>	<i>Umuni o'quv yuklama</i>	<i>Jami</i>	<i>Nazariy</i>	<i>Amaliy</i>	<i>Amaliy</i>	<i>Seminar</i>	<i>Kurs ishi</i>	<i>Mustaqil ta'lim</i>

**3-topshiriq. Quyidagi chizma asosida biror bir fanning o'quv dasturini tahlil eting.**

<i>Tushuntirish xati (tuzilishi va mazmuni)</i>	<i>Asosiy qism (tuzilishi va mazmuni)</i>	<i>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (tuzilishi va mazmuni)</i>

**7-ilova**

***Ta'limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillarini aniqlashga doir chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar***

Quyida keltirilgan ta'limning tamoyillari bilan tanishing. Ularni maqsadiga ko'ra ikki tur (mazmunli va tashkiliy-metodik)ga ajrating.

Insonparvarlik.

Tabiat bilan uyg'unlik.

Ko'rgazmalilik.  
 Onglilik, faollik, ijodiylik.  
 Madaniyat bilan uyg'unlik.  
 Tushunarlilik.  
 Ilmiylik.  
 Ta'limning amaliyot bilan uyg'unligi.  
 Izchillik, tizimlilik, ketma-ketlik.  
 Tarbiyalovchi ta'lim.  
 O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.  
 Oqilona talabchanlik bilan ta'lim oluvchi shaxsini hurmat qilish.

<i>Ta'limning mazmunli tamoyillari</i>	<i>Ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillari</i>

### 3.4. “Ta’lim metodlari va vositalari” mavzusidagi amaliy mashg’ulotning texnologik modeli

<b>Mashg’ulot vaqti – 2 soat</b>	<b>Talabalar soni: 20-30 nafar</b>
<b>Mashg’ulot shakli</b>	<b>Amaliy</b>
<b>Amaliy mashg’ulotning tuzilishi</b>	<p>“Metod”, “ta’lim metodi”, “usul”, “qoida” tushunchalarining mohiyatini aniqlashtirish.</p> <p>Ta’lim metodlarini tasniflashga doir zamonaviy yondashuvlarni o’zlashtirish.</p> <p>Ta’lim metodlarini o’zlashtirishga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.</p> <p>Ta’lim vositalarini o’zlashtirish va ulardan foydalanishga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.</p>
<b>Amaliy mashg’ulotning maqsadi:</b> talabalarning ta’lim metodlari va vositalariga doir nazariy nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ulardan foydalanishga doir ko’nikma va malakalarini tarkib toptirish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O’quv faoliyati natijalari:</b>
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. “Metod”, “ta’lim metodi”, “usul”, “qoida” tushunchalarining mohiyatini anglab olinishiga erishish.</li> <li>2. Ta’lim metodlarini tasniflashga doir zamonaviy yondashuvlarni o’ziga xosliklarini ajrata olishga o’rgatish.</li> <li>3. Ta’lim metodlarini o’quv jarayoniga qo’llash ko’nikma va malakalarini tarkib toptirish.</li> <li>4. Talabalarni ta’lim vositalaridan foydalanish va ularni yaratishga o’rgatish.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. “Metod”, “ta’lim metodi”, “usul”, “qoida” tushunchalarining mohiyatini tushunib olishadi.</li> <li>2. Ta’lim metodlarini tasniflashga doir zamonaviy yondashuvlarni o’zlashtiradilar.</li> <li>3. Ta’lim metodlarini o’quv jarayoniga qo’llash ko’nikma va malakalariga ega bo’lishadi.</li> <li>4. Ta’lim vositalaridan foydalanish va ularni yaratishga o’rganadilar.</li> </ol>
Ta’lim metodlari	Tushuntirish, suhbat, mantiqiy zajirlar ketma-ketligi, blits-so’rov, to’ldirilmagan jadvallar metodikasi, amaliy ish.
O’quv faoliyatini tashkil etish shakllari	Individual va guruhlarda ishlash.
O’quv vositalari	Uslubiy qo’llanma, proektor, markerlar, tarqatma materiallar
Ta’lim berish sharoiti	Texnik ta’minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo’ljallangan auditoriya
Nazorat va baholash	Yozma (topshiriqlarni daftarga yozish) va og’zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat; bikki ballik shkala asosida baholash.

**“Ta’lim metodlari va vositalari” mavzusidagi amaliy mashg’ulotning texnologik kartasi**

<b><i>Ish bosqichlari va vaqti</i></b>	<b><i>Faoliyat mazmuni</i></b>	
	<b><i>Ta’lim beruvchi</i></b>	<b><i>Ta’lim oluvchilar</i></b>
<b><i>Tayyorlov bosqichi</i></b>	Mavzuni aniqlaydi, ta’limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta’limiy maqsadlarga mos o’quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi (1-ilova).	Amaliy topshiriqlari bilan tanishadilar, o’zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishadi.
	Talabalarning individual va guruhdagi ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi (2-ilova).	
<b><i>O’quv mashg’ulotiga kirish bosqichi (10 daq)</i></b>	1.1.Mashg’ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyati va dolzarbligini asoslaydi.	Mashg’ulotga tayyorlanish jarayonida yuzaga kelgan savollar bilan murojaat qilishadi Topshiriqni bajarishadi va jamoaviy munozarada ishtirok etishadi.
	1.2.Talabalarni mashg’ulotga chorlab olish maqsadida “Ta’lim metodlari” mavzusida chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligini taqdim etadi (3-ilova).	
<b><i>Asosiy bosqich (55 daqiqa)</i></b>	2.1.“Metod”, “ta’lim metodi”, “usul”, “qoida” tushunchalarining mohiyatini anglab olinishiga erishish maqsadida blits-so’rov o’tkazadi (4-ilova).	Savollarga javob berishadi va o’zlarining yozganlariga tuzatishlar kiritishadi.
	2.2.To’ldirilmagan jadvallar metodikasi bo’yicha ta’lim metodlarini tasniflashni taklif etadi (5-ilova).	Jadvallarni to’ldirishadi va o’z-o’zini nazorat qiladi.
	2.3.Ta’lim metodlarini o’quv jarayoniga qo’llashga doir amaliy topshiriqlarni taqdim etadi va uni bajarishga doir zarur ko’rsatmalar beradi (6-ilova).	Amaliy topshiriqlarni bajarishadi va unga zaruriy o’zgartirishlar kiritadi.
	2.4.Talabalar tomonidan mutaxassislik fani bilan bog’liqlikda tayyorlab kelingan ko’rgazmali vositalar bilan tanishadi va o’z munosabatini bildiradi.	Ko’rgazmali vositani taqdimot qilishadi va uning ahamiyatini tushuntirib berishadi.
<b><i>Yakuniy bosqich (20 daqiqa)</i></b>	3.1.Mashg’ulot yuzasidan umumiy xulosalarni chiqaradi va talabalar tomonidan yo’l qo’yilgan xatolarni tuzatadi.	Tinglaydilar va o’zlarining xatolarini daftarlariga tuzatadilar
	3.2.Talabalar tomonidan to’plangan ballarni e’lon qiladi va mashg’ulotni yakunlaydi.	O’zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishadi.

**4-amaliy mashg'ulot. Mavzu: Ta'lim metodlari va vositalari.**

***Mashg'ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun):***

“Metod”, “ta’lim metodi”, “usul”, “qoida” tushunchalarining mazmun-mohiyatini o’rganish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. – B. 114-117; Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. – B.223; Podlasyy I.P. Pedagogika. – M.: Vysshee obrazovanie, 2008. – S.287-290; Pedagogika / pod.red. P.I.Pidkasistogo. – M.: Vysshee obrazovanie, 2008. – S.189-191).

Ta’lim metodlarini tasniflashga doir zamonaviy yondashuvlarni o’rganish va tahlil etish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. – B. 117-128; Podlasyy I.P. Pedagogika. – M.: Vysshee obrazovanie, 2008. – S.290-295; Pedagogika / pod.red. P.I.Pidkasistogo. – M.: Vysshee obrazovanie, 2008. – S.191-207.).

Ta’limning og’zaki, ko’rgazmali, amaliy metodlarini o’rganish va konspekt qilish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. – B. 128-132; Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. – B.224-231; Podlasyy I.P. Pedagogika. – M.: Vysshee obrazovanie, 2008. – S.297-312).

Mutaxassislik fani bilan bog’liqlikda ko’rgazmali vosita tayyorlab kelish.

Ko’rgazmali vositani tayyorlashga doir zaruriy ko’rsatmalar:

- 1) mutaxassislik fani bilan bog’liqlikda biror mavzuni tanlab oling;
- 2) mavzu mohiyati bilan bog’liqlikda chizma, jadval, rasmni qo’lda yoki komp`yuter grafikasi yordamida tayyorlang;
- 3) ko’rgazmali vositani izohlashga doir tavsifnoma yozing.

**Talabalarning mashg'ulot bo'yicha baholash mezonlari**

**Jami: 2 ball**

**Adabiyotlar bilan ishlash va konspekt qilish. – 0,5 ball.**

**Ta'lim metodlarini o'quv jarayoniga qo'llashga doir amaliy topshiriqni bajarish – 1,5 ball.**



### 3-ilova

#### ***“Ta’lim metodlari” mavzusida chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi***

1. Suhbat.
2. Tushuntirish.
3. Ma’ruza.
4. Mashq.
5. Illyustratsiya.
6. Demonstratsiya.
7. Didaktik o’yin.
8. Kitob bilan ishlash.
9. Videometod.
10. Hikoya.
11. Amaliy.
12. Amaliy.

#### ***Topshiriqni bajarishga doir ko’rsatma:***

chalkashtirilgan holda berilgan ta’lim metodlari bilan tanishing; metodlarni jadvalda ko’rsatilganidek, mos ustunga yozib chiqing.

<b><i>Og’zaki</i></b>	<b><i>Ko’rgao’z mali</i></b>	<b><i>Amaliy</i></b>

### 4-ilova

#### ***“Metod”, “ta’lim metodi”, “usul”, “qoida” tushunchalarining mohiyatini o’zlashtirishga doir blits-so’rov savollari***

1. Metod deganda nima tushuniladi?
2. Ta’lim metodi tushunchasini qanday izohlash mumkin?
3. “Ta’lim metodlari” va “ta’lim usullari” tushunchalari bir xil mazmunga egami?
4. Ta’lim usullari deganda nima tushuniladi?
5. Ta’lim metodlarini qo’llashda qandaydir ko’rsatmalarga rioya etish zarurmi?
6. Ta’lim metodlarini qo’llashga doir ko’rsatmalar nima deb ataladi?

### 5-ilova

#### ***Ta’lim metodlari tasnifiga doir to’ldirilmagan jadvallar***

***Topshiriq: quyidagi to’ldirilmagan jadvallar bilan tanishing va ularni tugallang.***

1)

*An'anaviy (manbasiga ko'ra) ta'lim metodlari tasnifi*

<i>Og'zaki</i>	<i>Ko'rgazmali</i>	<i>Amaliy</i>	<i>Kitob bilan ishlash</i>	<i>Videometod</i>

2)

*O'quvchilarning bilish faoliyati turiga ko'ra ta'lim metodlari tasnifi*

<i>Ta'lim metodining nomlanishi</i>	<i>O'qituvchi faoliyati</i>	<i>O'quvchi faoliyati</i>

3)

*Ta'limning binarv metodlari*

<i>O'rgatish metodlari</i>	<i>O'rganish metodlari</i>

4)

*Interfaol metodlar*

<i>O'rganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari</i>	<i>Yangi materialni anglash metodlari</i>	<i>O'rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar</i>

--	--	--

## 6-ilova

Ta'lim metodlarini o'quv jarayoniga qo'llashga doir doir amaliy topshiriqlar

1-topshiriq. Mutaxassislik faningiz bilan bog'liqlikda quyidagi metodlarni har birini qo'llashga doir bittadan misol yozing.

suhbat; 2) o'quv munozarasi; 3) mashq; 4) kitob bilan ishlash.

2-topshiriq. Kichik guruhlarga bo'lining va og'zaki, ko'rgazmali, amaliy metodlardan birini tanlab olib, biror mavzu misolida metodni amaliyotda qo'llab ko'rsating.

### 3.5. “Dars – ta’limni tashkil etishning asosiy shakli” mavzusidagi amaliy mashg’ulotning texnologik modeli

<b>Mashg’ulot vaqti – 2 soat</b>	<b>Talabalar soni: 20-30 nafar</b>
<b>Mashg’ulot shakli</b>	<b>Amaliy</b>
<b>Amaliy mashg’ulotning tuzilishi</b>	Dars va unga qo’yiladigan umumiy, didaktik, psixologik hamda metodik talablarni aniqlashtirish. Darsning turlari va tuzilishini o’zlashtirish. An’anaviy va noan’anaviy dars turlariga doir amaliy topshiriqlarni bajarish. Bir soatlik dars ishlanmasini tayyorlash va uni taqdimot qilish.
<b>Amaliy mashg’ulotning maqsadi:</b> talabalarning dars va uning o’ziga xosliklariga doir nazariy nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularda darsni tashkil etish va o’tkazishga doir ko’nikma va malakalarini tarkib toptirish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> 1.Dars va unga qo’yiladigan talablarning o’zlashtirilishiga erishish. 2. Darsning turlarini farqlay olish va ularning tuzilishidagi o’ziga xosliklarni ajrata olishga o’rgatish.  3.An’anaviy va noan’anaviy dars turlarini tashkil etishga doir ko’nikma va malakalarni tarkib toptirish. 4.Talabalarni darsni loyihalash va rejalashtirishga o’rgatish.	<b>O’quv faoliyati natijalari:</b> 1.Dars va unga qo’yiladigan talablarni bilib olishadi.  2.Darsning turlari(aralash, yangi bilimlarni bayon qilish, o’rganilganlarini mustahkamlash va takrorlash, o’quvchilarning BKMLarini nazorat qilish)ni farqlaydilar hamda ularning tuzilishini o’rganadilar  3. An’anaviy va noan’anaviy dars turlarini tashkil etishga doir ko’nikma va malakalariga ega bo’lishadi. 4.Darsni loyihalash va rejalashtirishni o’zlashtiradilar.
Ta’lim metodlari	Tushuntirish, suhbat, asoslangan esse, ijodiy test, didaktik o’yin, ijodiy ish.
O’quv faoliyatini tashkil etish shakllari	Individual va guruhlarda ishlash.
O’quv vositalari	Uslubiy qo’llanma, proektor, markerlar, tarqatma materiallar
Ta’lim berish sharoiti	Texnik ta’minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo’ljallangan auditoriya
Nazorat va baholash	Yozma (topshiriqlarni daftarga yozish) va og’zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat; ikki ballik shkala asosida baholash.

**“Dars – ta’limni tashkil etishning asosiy shakli” mavzusidagi amaliy mashg’ulotning texnologik kartasi**

<b>Ish bosqichlari va vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>Ta’lim beruvchi</b>	<b>Ta’lim oluvchilar</b>
<b>Tayyorlov bosqichi</b>	Mavzuni aniqlaydi, ta’limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta’limiy maqsadlarga mos o’quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi (1-ilova).	Amaliy topshiriqlari bilan tanishadilar, o’zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishadi.
	Talabalarning individual va guruhdagi ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi (2-ilova).	
<b>O’quv mashg’ulotiga kirish bosqichi (10 daq)</b>	1.1.Mashg’ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyati va dolzarbligini asoslaydi.	Mashg’ulotga tayyorlanish jarayonida yuzaga kelgan savollar bilan murojaat qilishadi
	1.2.Talabalarni mashg’ulotga chorlab olish maqsadida ulardan “Sevimli o’qituvchimning darsi qiziqqarli bo’lishining sababi shundaki...” mavzusida asoslangan esse yozishni so’raydi (3-ilova).	Asoslangan esseni yozishadi va fikrlarini ilmiy jihatdan asoslaydilar.
<b>Asosiy bosqich (55 daqiqa)</b>	2.1.Dars va unga qo’yiladigan talablarning o’zlashtirilishiga erishish maqsadida ijodiy test o’tkazadi (4-ilova).	Ijodiy testni echishadi va o’z-o’zini nazorat qilishadi.
	2.2.Darsning turlarini farqlay olish va ularning tuzilishidagi o’ziga xosliklarni ajrata olishga o’rgatish maqsadida “CHalkashlikni aniqlang” didaktik o’yinini o’tkazadi (5-ilova).	Jamoaviy tarzda didaktik o’yinda ishtirok etishadi va o’zining shaxsiy munosabatini bildiradi.
	2.3.An’anaviy va noan’anaviy dars turlarini tashkil etishga doir amaliy topshiriqlarni taqdim etadi va uni bajarishga doir zarur ko’rsatmalar beradi (6-ilova).	Amaliy topshiriqlarni bajarishadi va unga zaruriy o’zgartirishlar kiritadi
	2.4.Talabalar tomonidan tayyorlab kelingan bir soatlik dars ishlanmasi bilan tanishadi va ularning har biriga o’z munosabatini bildiradi.	Bir soatlik dars ishlanmalarini taqdimot qilishadi va ishlanma yuzasidan berilgan savollarga javob berishadi
<b>Yakuniy bosqich (20 daqiqa)</b>	3.1.Mashg’ulot yuzasidan umumiy xulosalarni chiqaradi va talabalar tomonidan yo’l qo’yilgan xatolarni tuzatadi.	Tinglaydilar va o’zlarining xatolarini daftarlariga tuzatadilar
	3.2.Talabalar tomonidan to’plangan ballarni e’lon qiladi va mashg’ulotni yakunlaydi.	O’zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishadi.

**5-amaliy mashg'ulot. Mavzu: Dars – ta'limni tashkil etishning asosiy shakli.**

**Mashg'ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun):**

Dars va unga qo'yiladigan umumiy, didaktik, psixologik hamda metodik talablarni o'rganish hamda tahlil etish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. – B. 152-154; Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. – B.234-238; Podlasъy I.P. Pedagogika. – M: Vysshee obrazovanie, 2008. – S.333-337).

Darsning turlari va tuzilishini o'zlashtirish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. – B. 152-154; Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. – B.234-238; Podlasъy I.P. Pedagogika. – M: Vysshee obrazovanie, 2008. – S.333-337).

Noan'anaviy dars turlari bilan tanishish va ularning an'anaviy darsdan farqli jihatlarini aniqlash (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. – B. 152-154; Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. – B.234-238; Podlasъy I.P. Pedagogika. – M: Vysshee obrazovanie, 2008. – S.333-337).

Bir soatlik dars ishlanmasini tayyorlash. Bir soatlik dars ishlanmasini tayyorlashda quyidagi chizmaga asoslaning.

<b><i>Mavzu</i></b>	
Maqsad: a) ta'limiy b) tarbiyaviy v) rivojlantiruvchi	
<b><i>Vazifalar</i></b>	
O'quv jarayonining mazmuni	
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Metod: SHakl: Vosita: Usul: Nazorat:

	Baholash:
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: O'quvchi:

**2-ilova**

***Talabalarning mashg'ulot bo'yicha baholash mezonlari***

***Jami: 2 ball***

***Adabiyotlar bilan ishlash va konspekt qilish. – 0,5 ball.***

***Darsni tashkil etishga doir amaliy topshiriqlarni bajarish va dars ishlanmasini ishlab chiqish – 1,5 ball.***

**3-ilova**

***“Sevimli o'qituvchimning darsi qiziqarli bo'lishining sababi shundaki...” mavzusida asoslangan esse***

Topshiriqni bajarish tartibi:

Mazkur mavzu yuzasidan o'z nuqtai nazarinigizni bayon eting.

Nuqtai nazarinigizni asoslash uchun dalillar kiriting.

Mavzu yuzasidan aniq xulosalar chiqaring.

**4-ilova**

***Dars va unga qo'yiladigan talablarning o'zlashtirilishiga doir ijodiy test topshirig'i***

***1. Kerakli so'z yoki jumlani topib qo'ying.***

... bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli.

***2. Gapni davom ettiring.***

Dars ta'limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi quyidagi o'ziga xos belgilarga ega: ...

***3. Gapni tugallang.***

Darsga qo'yiladigan didaktik (yoki ta'lim)iy talablarga har bir darsning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko'rinishlaridan mos ravishda foydalanish ...

#### ***4. Kerakli so'zni topib qo'ying.***

O'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo'yish, faqat o'quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish kabilarning darsga qo'yiladigan ... talablarni o'zida aks ettiradi.

#### ***5. Gapni davom ettiring.***

Darsga qo'yiladigan rivojlantiruvchi talablarga o'quvchilarda o'quv-o'rganish faoliyati ijobiy sifatlari, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik shakllantirish hamda rivojlantirish, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, "rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish", "o'zib ketish" darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish ...

**5-ilova**

### ***“Chalkashlikni aniqlang” didaktik o'yini***

#### ***O'yinni o'tkazish tartibi:***

O'qituvchi doskaga yoki proektor orqali dars turlaridan birining tuzilishini yozadi. Darsning tuzilish o'rnini almashtirish yoki boshqa dars turiga xos belgini yozish orqali chalkashlikka yo'l qo'yadi.

***Talabalar dars turi bilan tanishidilar va uning tuzilishida yo'l qo'yilgan xatolikni topadilar.***

#### ***1) aralash dars:***

- a) tashkiliy qism;
- b) o'rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash;
- v) o'quvchilarni baholash;
- g) yangi mavzuni bayon qilish;
- d) uy vazifasi.



## **2) yangi bilimlarni bayon qilish darsi:**

- a) yangi mavzuni bayon qilish;
- b) o'rganilganlarini mustahkamlash;
- v) o'quvchilarni baholash;
- g) uy vazifasi.

## **3) o'rganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi:**

- a) tashkiliy qism;
- b) o'quvchilarni baholash;
- v) uy vazifasi.

## **4) o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish darsi:**

- a) tashkiliy qism;
- b) o'rganilganlarini takrorlash;
- v) o'quvchilarning bilimlarini tekshirish va baholash;
- g) uy vazifasi.

## **6-ilova**

### ***Kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan an'anaviy va noan'anaviy dars turlarini tashkil etishga doir amaliy topshiriqlar***

**1-topshiriq.** Kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash asosida aralash darsni ko'rsatib berish.

**1-guruh** darsning tashkiliy qismi va o'tilgan mavzuni takrorlashni ko'rsatib beradi;

**2-guruh:** yangi o'quv materialini bayon qilish tartibini tushuntirib beradi;

**3-guruh:** o'rganilganini mustahkamlash, o'quvchilarni baholash va uy vazifasi berishni amalga oshiradi.

Mazkur topshiriqni bajarishda o'qituvchi zig-zag metodiga asoslanadi. Ya'ni har bir kichik guruh o'ziga berilgan topshiriqni bajarib bo'lgach, bir-birlari bilan o'zaro almashinuv asosida o'tkaziladigan dars haqida yaxlit tasavvur hosil qilinadi. Talabalarda o'tkaziladigan dars haqida yaxlit tasavvur hosil bo'lgach, kichik guruhlar navbati bilan o'zlariga berilgan vazifalarning taqdimotini o'tkazishadi.

Topshiriqni bajarish oldidan guruh bilan kelishilgan holda, mutaxassislik bilan bog'liq biror mavzuni tanlab olish maqsadga muvofiq.

**2-topshiriq.** Kichik guruhlarda nostandart darslardan lavha ko'rsatish.

1-guruh uchun: konferentsiya darsini o'tkazilishini ko'rsatib berish.

2-guruh uchun: musobaqa turidagi darsni tashkil etish.

3-guruh uchun: o'yin tipidagi darsni namoyish etish.

**3.6. “O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini tashxis etish” mavzusidagi amaliy mashg’ulotning texnologik modeli**

<b>Mashg’ulot vaqti – 2 soat</b>	<b>Talabalar soni: 20-30 nafar</b>
<b>Mashg’ulot shakli</b>	<b>Amaliy</b>
<b>Amaliy mashg’ulotning tuzilishi</b>	<p>Ta’lim olganlikni tashxis etishning tarkibiy qismlarini o’zlashtirish.</p> <p>O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat qilish shakl, metod va vositalarini aniqlashtirish.</p> <p>O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini baholash mezonlarini o’rganish.</p> <p>O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat qilishga doir muammoli vaziyatlarni hal etish.</p>
<b>Amaliy mashg’ulotning maqsadi:</b> talabalarning ta’lim olganlikni tashxis etishga doir nazariy nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularni o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini to’g’ri baholashga o’rgatish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O’quv faoliyati natijalari:</b>
<p>1. Ta’lim olganlikni tashxis etishning tarkibiy qismlarini o’zlashtirilishiga erishish.</p> <p>2. O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat qilish shakl, metod va vositalarini farqlay olishga o’rgatish.</p> <p>3. O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini baholashga o’rgatish.</p> <p>4. Talabalarda o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat qilish ko’nikma va malakalarini tarkib toptirish.</p>	<p>1. Ta’lim olganlikni tashxis etishning mohiyatini bilib oladilar.</p> <p>2. O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat qilish shakl, metod va vositalarini o’zlashtiradilar</p> <p>3. O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini baholash mezonlarini o’rganadilar.</p> <p>4. O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat qilish ko’nikma va malakalarini egallaydilar.</p>
Ta’lim metodlari	Tushuntirish, suhbat, aqliy hujum, blits-so’rov, muqobilini tanlab olish testi, asoslangan esse.
O’quv faoliyatini tashkil etish shakllari	Individual va guruhlarda ishlash.
O’quv vositalari	Uslubiy qo’llanma, proektor, markerlar, tarqatma materiallar
Ta’lim berish sharoiti	Texnik ta’minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo’ljallangan auditoriya
Nazorat va baholash	Yozma (topshiriqlarni daftarga yozish) va og’zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat; ikki ballik shkala asosida baholash.

**“O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini tashxis etish” mavzusidagi  
amaliy mashg’ulotning texnologik kartasi**

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta’lim beruvchi</i>	<i>Ta’lim oluvchilar</i>
<b>Tayyorlov bosqichi</b>	Mavzuni aniqlaydi, ta’limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta’limiy maqsadlarga mos o’quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi (1-ilova).	Amaliy topshiriqlari bilan tanishadilar, o’zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishadi.
	Talabalarning individual va guruhdagi ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi (2-ilova).	
<b>1.O’quv mashg’ulotiga kirish bosqichi (10 daq)</b>	1.1. Mashg’ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyati va dolzarbligini asoslaydi.	Mashg’ulotga tayyorlanish jarayonida yuzaga kelgan savollar bilan murojaat qilishadi
	1.2. Talabalarni mashg’ulotga chorlab olish maqsadida ulardan “O’qituvchimiz bizni qanday baholar edi?” mavzusida erkin yozish topshirig’ini beradi (3-ilova).	Erkin yozish topshirig’ini bajarishadi va boshqalarning fikr-mulohazalari bilan tanishadilar.
<b>Asosiy bosqich (55 daqiqa)</b>	2.1.Ta’lim olganlikni tashxis etishning tarkibiy qismlarini o’zlashtirilishiga doir blits-so’rov o’tkazadi (4-ilova).	Ijodiy testni echishadi va o’z-o’zini nazorat qilishadi.
	2.2.O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat qilish shakl, metod va vositalarini farqlay olishga o’rgatish maqsadida “CHalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi”ni taqdim etadi (5-ilova).	Jamoaviy tarzda didaktik o’yinda ishtirok etishadi va o’zining shaxsiy munosabatini bildiradi.
	2.3.O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini baholashga doir amaliy topshiriqlarni taqdim etadi va uni bajarishga doir zarur ko’rsatmalar beradi (6-ilova).	Amaliy topshiriqlarni bajarishadi va unga zaruriy o’zgartirishlar kiritadi
	2.4.O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat qilishga doir muammoli vaziyatlarni taqdim etadi va talabalarning muammoli vaziyatlarni hal etishlariga ko’maklashadi (7-ilova).	Muammoli vaziyatlarni hal etishadi va jamoaviy munozarada ishtirok etishadi
<b>3–Yakuniy bosqich (20 daqiqa)</b>	3.1.Mashg’ulot yuzasidan umumiy xulosalarni chiqaradi va talabalar tomonidan yo’l qo’yilgan xatolarni tuzatadi.	Tinglaydilar va o’zlarining xatolarini daftarlariga tuzatadilar
	3.2.Talabalar tomonidan to’plangan ballarni e’lon qiladi va mashg’ulotni yakunlaydi.	O’zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishadi.

**6-amaliy mashg'ulot. Mavzu: O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish.**

***Mashg'ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun):***

Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyatini o'rganish va uning tarkibiy qismlarini aniqlashtirish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. – B. 159-161; Podlasъy I.P. Pedagogika. V 2 kn. Kn 1. – Moskva, VLADOS, 1998).

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish shakl, metod va vositalarini o'rganish va tizimlashtirish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. – B. 159-161; Podlasъy I.P. Pedagogika. V 2 kn. Kn 1. – Moskva, VLADOS, 1998).

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlarini o'rganish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. – B. 159-161; Podlasъy I.P. Pedagogika. V 2 kn. Kn 1. – Moskva, VLADOS, 1998).

**2-ilova**

***Talabalarning mashg'ulot bo'yicha baholash mezonlari***

***Jami: 2 ball***

***Adabiyotlar bilan ishlash va konspekt qilish. – 0,5 ball.***

***Savol-javoblarda ishtirok etish va amaliy topshiriqlarni bajarish – 1,5 ball.***

**3-ilova**

***“O'qituvchimiz bizni qanday baholar edi?” mavzusida erkin yozish topshirig'i***

***Topshiriq:*** “O'qituvchimiz bizni qanday baholar edi?” mavzusida besh daqiqa mobaynida o'z fikrlaringizni daftarga yozing. O'ylagan fikrlaringizni hech qanday to'xtovsiz bayon eting.

### ***Erkin yozish ustida ishlashga doir ko'rsatma:***

1. Talabalardan besh daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo'yicha o'z fikrlarini yozish so'raladi.

2. Besh daqiqa tugagach, vaqt tuganganligi ma'lum qilinadi. Biroq bir minut sukut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug'iladi.

3. Talabalardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to'rt talaba o'z yozganlarini o'qib bergach, o'qituvchi qolgan talabalardan aytilganlariga o'xshamaydigan fikr kimda bo'lsa bildirishlarini so'raydi.

### **4-ilova**

#### ***Ta'lim olganlikni tashxis etishning tarkibiy qismlarini o'zlashtirilishiga doir blits-so'rov savollari***

Didaktik jarayonda tashxis deganda nima tushuniladi?

Ta'lim olganlikni tashxis etishning o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini an'anaviy tekshirish va baholashdan farqi nimada?

Tashxis etish jarayonining tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?

Nazorat deb nimaga aytiladi?

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, o'lchash, baholash nima deb ataladi?

Tekshirish deganda nima tushuniladi?

Aniqlash va o'lchash nima deb ataladi?

Tekshirishning qanday bo'g'inlari (zvenolari) mavjud?

Baholash deb nimaga aytiladi?

Baho deb nimaga aytiladi?

O'quv faoliyatini hisobga olish deganda nima tushuniladi?

### **5-ilova**

#### ***“O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari” mavzusidagi chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi***

1) og'zaki; 2) test; 3) uy vazifasi; 4) ommaviy; 5) o'z-o'zini nazorat qilish; 6) yozma; 7) individual; 8) amaliy; 9) joriy; 10) aralash; 11) oraliq; 12) guruhli; 13) yakuniy

**Topshiriqni bajarishga doir ko'rsatma:**

chalkashtirilgan holda berilgan ta'lim metodlari bilan tanishing;  
metodlarni jadvalda ko'rsatilganidek, mos ustunga yozib chiqing.

<i>Nazorat turlari</i>	<i>Nazorat shakllari</i>	<i>Nazorat metodlari</i>

**6-ilova**

***O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashga doir  
amaliy topshiriqlar***

***Quyidagi masalalar bilan tanishing va ularning echimini toping.***

**1-masala.** Talaba “Pedagogikaning asosiy kategoriyalari” haqida gapirayapti. Asosiy kategoriyalarni sanadi, lekin ularni to'liq aytib bera olmayapti. O'qituvchining yordamchi savollariga ehtiyoj sezdi. O'qituvchining savollari yordamida xatolarni to'g'rilay oldi. Unga nechchi baho qo'yish mumkin?

**2-masala.** Talabadan o'z yozma ishida metod va usul tushunchalarining mohiyatini ochib berish so'raldi. Talaba o'z yozma ishida metod va usul tushunchalariga to'g'ri ta'rif bergan. Quyidagicha misol keltirgan: “ma'ruza – bu metod. Mavzuni aniqlash rejasini tuzish, ularni bayon etish, umumlashtirib xulosalash esa usullari bo'la oladi”. Talabaning yozma ishini baholang.

**3-masala.** Talaba og'zaki metodlarni sanab bera oldi. Lekin ularning mohiyatini ochib bera olmadi. Biroq har biriga misol keltira oldi. Unga qanday baho qo'ysa bo'ladi?

**4-masala.** Talaba pedagogika fanidan seminarni to'liq va to'g'ri yozib kelgan. Lekin o'qituvchi savol berganida daftardan javobni o'qib berayapti. Unga “4” ball qo'ysa bo'ladimi?

**5-masala.** Mutaxassislik fanidan biror mavzuni tanlab oling hamda mazkur mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlarini ishlab chiqing.

**7-ilova**

***O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishga doir muammoli vaziyatlar***

***Quyidagi muammoli vaziyatlar bilan tanishing va ularning echimini toping.***

**1-muammoli vaziyat.** Siz ishlaydigan kollejdagi bir nechta o'quvchiga o'zingiz o'tayotgan fandan 1-semestr bo'yicha baho qo'ymadingiz. Biroq o'quv yili yakunida jurnalda mazkur o'quvchilarga baho qo'yilganining guvohi bo'ldingiz. Siz o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosariga uchrashdingiz. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari ularga bahoni guruh rahbari qo'yib yuborganini aytdi. Mazkur vaziyatda siz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?

**2-muammoli vaziyat.** Geografiya darsiga har doim tayyor bo'lib keladigan Sunnatni o'qituvchi doskaga chaqirdi. Biroq u tayyor emasligini aytdi. O'qituvchi unga ikki baho qo'ydi. Sunnat indamasdan joyiga o'tirdi. Sunnatning uch kun oldin buvisi vafot etgan edi, shuning uchun u darsga tayyorlana olmagan edi. Siz sababini bilgan va bilmagan holatda tutishingiz mumkin bo'lgan vaziyatni sharhlang.

**3-muammoli vaziyat.** Sergeli tumanidagi 268-maktabning biologiya fani o'qituvchisi "Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari" bo'lganligi uchun darslarni ham vaqtida o'ta olmas edi. Darslarni o'tgan vaqtida ham o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini nazorat qilib bormasdi. O'quv yilning birinchi choragi tugab, o'quvchilar ta'tilga chiqishganida o'qituvchi ularning choraklik baholrini qo'yib qo'ygandi. II chorak boshlangach o'quvchilar sinf rahbarlaridan biologiya fanidan qo'yilgan baholarni eshitib hayratlanib qolishdi. CHunki baholar o'quvchilar tomonidan olinmagan edi.

O'qituvchi to'g'ri ish qilgan deb o'ylaysizmi?

O'qituvchi ta'lim olganlikni tashxislashning qaysi tamoyillarini buzgan?

O'qituvchining o'quvchilarning o'quv faoliyatini bunday nazorat qilishi ularning bilim olishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadimi?



### 3.7. “O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimi” mavzusidagi amaliy mashg‘ulotning texnologik modeli

<b>Mashg‘ulot vaqti – 2 soat</b>	<b>Talabalar soni: 20-30 nafar</b>
<b>Mashg‘ulot shakli</b>	<b>Amaliy</b>
<b>Amaliy mashg‘ulotning tuzilishi</b>	<p>O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim sohasidagi davlat siyosati va uning me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda aks etishini o‘rganish va tahlil etish.</p> <p>Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va uning tarkibiy qismlarining o‘zaro aloqadorligini ko‘rsatib berish.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimi va turlariga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.</p> <p>Kichik guruhlarda ishlash: “O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimining afzalligi va o‘ziga xosligi shundaki...” mavzusida asoslangan esse yozish hamda taqdimot qilish.</p>
<b>Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:</b> talabalarining O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimiga doir nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ta‘lim tizimi va turlarining o‘ziga xosliklari haqida aniq fikr yuritish olish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O‘quv faoliyati natijalari:</b>
<p>1.O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim sohasidagi davlat siyosati va uning me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda aks etishi masalasini bayon yuzasidan talabalarga zarur ko‘rsatmalar berish.</p> <p>2.Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va uning tarkibiy qismlarining o‘zaro aloqadorligi yoritilgan chizmani taqdim etish va talabalarni chizmaga izoh berishga yo‘naltirish.</p> <p>3.Talabalarga O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimi va turlariga doir amaliy topshiriqlarni taqdim etish va ularni bajarishga doir tushuntirish berish.</p> <p>4.Talabalarining kichik guruhlardagi ishini tashkil etish va boshqarish.</p>	<p>1.O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim sohasidagi asosiy me‘yoriy hujjatlari – “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi hamda ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini tushuntirib beradilar.</p> <p>2.Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va uning tarkibiy qismlarining vazifalarini bayon etishadi hamda ularning bir-bir bilan bog‘liqligini izohlaydilar.</p> <p>3.“Ta‘lim tizimi” va “ta‘lim turlari” tushunchalarining alohida mazmunga egaligini farqlashadi; O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimi va turlari haqida aniq ma‘lumotga ega bo‘ladilar.</p> <p>4.O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimining afzalligi va o‘ziga xosliklarini qiyoslaydilar va umumiy xulosaga keladilar.</p>
Ta‘lim metodlari	Tushuntirish, suhbat, “Nima uchun?” chizmasi, “Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar” interfaol metodi, asoslangan esse.
O‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari	Individual va guruhlarda ishlash.
O‘quv vositalari	Uslubiy qo‘llanma, proektor, markerlar, tarqatma materiallar
Ta‘lim berish sharoiti	Texnik ta‘minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo‘ljallangan auditoriya

Nazorat va baholash	Yozma (topshiriqlarni daftarga yozish) va og'zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat; ikki ballik shkala asosida baholash.
---------------------	---

**“O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimi” mavzusidagi amaliy mashg‘ulotning texnologik kartasi**

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta‘lim beruvchi</i>	<i>Ta‘lim oluvchilar</i>
<b>Tayyorlov bosqichi</b>	Mavzuni aniqlaydi, ta‘limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta‘limiy maqsadlarga mos o‘quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi (1-ilova).	Amaliy topshiriqlari bilan tanishadilar, o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishadi.
	Talabalarning individual va guruhdagi ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi (2-ilova).	
<b>O‘quv mashg‘ulotiga kirish bosqichi (10 daq)</b>	1.1.Mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyati va dolzarbligini asoslaydi.	Mashg‘ulotga tayyorlanish jarayonida yuzaga kelgan savollar bilan murojaat qilishadi
	1.2.Talabalarni mashg‘ulotga chorlab olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimi bilan bog‘liqlikda “Nima uchun?” chizmasini taklif qiladi va ular bilan birgalikda to‘ldiradi (3-ilova).	O‘qituvchi taqdim etgan chizma bilan bog‘liqlikda savollarga javob berishadi va munozarada ishtirok etishadi.
<b>Asosiy bosqich (55 daqiqa)</b>	2.1.“Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi hamda ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillariga doir “Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi”ni taqdim etadi (4-ilova).	Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligini individual o‘z daftarlariga to‘ldirishadi va ommaviy tarzda taqdimotda ishtirok etishadi
	2.2.Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va uning tarkibiy qismlarining o‘zaro aloqadorligi yoritilgan chizmani taqdim etadi (5-ilova).	Chizma bilan tanishadilar hamda Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlariga izoh berishadi
	2.3.O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimi va turlariga doir amaliy topshiriqlarni bajarish tartibi va qoidasi bilan tanishtiradi (6-ilova).	Amaliy topshiriqlarni individual tarzda bajarishadi va jamoaviy ishda ishtirok etishadi
<b>Yakuniy bosqich (20 daqiqa)</b>	3.1.Mashg‘ulot yuzasidan umumiy xulosalarni chiqaradi va talabalar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatadi.	Tinglaydilar va o‘zlarining xatolarini daftarlariga tuzatadilar
	3.2.Talabalar tomonidan to‘plangan ballarni e‘lon qiladi va mashg‘ulotni yakunlaydi.	O‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishadi.

## **1-ilova**

### ***7-amaliy mashg'ulot. Mavzu: O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi. Mashg'ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun):***

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi asosiy me'yoriy hujjatlari – “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi hamda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari bilan tanishish hamda tahlil etish (“Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobining 20-60 betlari).

Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va uning tarkibiy qismlari (Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining 3-bo'lim, 3.1; 3.2; 3.3; 3.4; 3.5 bandlari)ning vazifalarini ajratib o'rganish.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va turlari (“Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning 9-10-11-12-13-14-15-16-17-18-19 moddalari)ni o'rganish va konspekt qilish.

## **2-ilova**

### ***Talabalarning mashg'ulot bo'yicha baholash mezonlari***


***Jami: 2 ball***

***Mashg'ulotga doir topshiriqlarni konspektlash. – 0,5 ball.***

***Amaliy topshiriqlarni bajarish – 1,5 ball.***

## **3-ilova**

***Quyidagi chizmaga e'tibor qarating. Muammo yuzasidan fikr yuriting.***



#### 4-ilova

### *“O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimi va turlari” mavzusidagi chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi*

*Quyida keltirilgan jumlar bilan tanishing. Ularni mos ravishda jadvalning kerakli ustuniga yozib qo‘ying.*

Beshta bo‘lim, o‘ttiz to‘rt moddadan iborat.

Ta‘lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish masalasi.

Shaxs.

Ta‘lim xizmati ko‘rsatish bozorini rivojlantirish.

Fan.

Ta‘lim-tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi.

Bilim olish huquqi.

Bilimli bo‘lishni va iste‘dodni rag‘batlantirish.

Ishlab chiqarish.


Xalqaro hamkorlik.

Ta‘lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi.

Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi.

<i>“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun</i>	<i>Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi</i>	<i>Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari</i>

**5-ilova**



*Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari*

***O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va turlariga doir amaliy topshiriqlar***

***1-topshiriq. Quyida keltirilgan jummalarni davom ettiring.***

O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganidan qat'iy nazar...  
Davlat ta'lim standartlari...  
Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagicha:...  
O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: ...  
O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi: ...  
Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar...  
Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash....  
Etim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarning vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish...  
Davlat ta'lim muassasalarini moliyalash...  
Nodavlat ta'lim muassasalariga qabul...  
Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:...

***2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'z yoki jumlani topib qo'ying.***

1. ... aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.
2. O'zbekiston Respublikasida ta'lim ... turda amalga oshiriladi.
3. ... bola shaxsini sog'lom va etuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.
4. Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ... uchun majburiydir.
5. ... yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi.
6. ... o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurtidir.

7. ... o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir.

8. ... umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

9. ... bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

10. O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va ...

11. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi ... tomonidan belgilanadi.

12. Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni ... asosida olishga haqlidirlar.

### 3.8. “Jamoaning shaxs tarbiyasiga ta’siri. Guruh rahbarining tarbiyaviy ishi” mavzusidagi amaliy mashg’ulotning texnologik modeli

<b>Mashg’ulot vaqti</b> – 2 soat	<b>Talabalar soni:</b> 20-30 nafar
<b>Mashg’ulot shakli</b>	<b>Amaliy</b>
<b>Amaliy mashg’ulotning tuzilishi</b>	Jamoa va uning o’ziga xosliklarini aniqlashtirish. O’quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari va bosqichlarini o’zlashtirish. Guruh rahbarining tarbiyaviy funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari va ish shakllarini o’rganish. Guruh rahbarining haftalik va yillik ish rejalari bilan tanishish va biror yo’nalish bo’yicha mustaqil ish reja tuzish.
<b>Amaliy mashg’ulotning maqsadi:</b> talabalarning o’quvchilar jamoasi va unga rahbarlik qilishg doir nazariy nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularda o’quvchilar jamoasini tashkil etish va boshqarish ko’nikma va malakalarini tarkib toptirish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> 1. Jamoa va uning o’ziga xos belgilarini ajratib ko’rsatish. 2. O’quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari va bosqichlarini aniqlashtirish. 3. Talabalar tomonidan guruh rahbarining funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari va ish shakllarining o’zlashtirilishiga erishish. 4. Guruh rahbarining ish rejasini tuzish va uni amalga oshirish ko’nikma va malakalarini tarkib toptirish.	<b>O’quv faoliyati natijalari:</b> 1. Jamoa va uning o’ziga xos belgilarini bilib oladilar. 2. O’quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari va bosqichlarini o’zlashtiradilar. 3. Guruh rahbarining funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari va ish shakllarini o’rganadilar. 4. Guruh rahbarining ish rejasini tuzish va uni amalga oshirish ko’nikma va malakalariga ega bo’ladilar.
<b>Ta’lim metodlari</b>	Tushuntirish, suhbat, aqliy hujum, blits-so’rov, muqobilini tanlab olish testi, asoslangan esse.
<b>O’quv faoliyatini tashkil etish shakllari</b>	Individual va guruhlarda ishlash.



O'quv vositalari	Uslubiy qo'llanma, proektor, markerlar, tarqatma materiallar
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
Nazorat va baholash	Yozma (topshiriqlarni daftarga yozish) va og'zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat; ikki ballik shkala asosida baholash.

**“Jamoaning shaxs tarbiyasiga ta’siri. Guruh rahbarining tarbiyaviy ishi” mavzusidagi amaliy mashg’ulotning texnologik kartasi**

<b><i>Ish bosqichlari va vaqti</i></b>	<b><i>Faoliyat mazmuni</i></b>	
	<b><i>Ta’lim beruvchi</i></b>	<b><i>Ta’lim oluvchilar</i></b>
<b><i>Tayyorlov bosqichi</i></b>	Mavzuni aniqlaydi, ta’limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta’limiy maqsadlarga mos o’quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi (1-ilova).	Amaliy topshiriqlari bilan tanishadilar, o’zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishadi.
	Talabalarning individual va guruhdagi ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi (2-ilova).	
<b><i>O’quv mashg’ulotiga kirish bosqichi (10 daq)</i></b>	1.1.Mashg’ulot mavzusi, uning maqsadi va kuti-layotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyati va dolzarbligini asoslaydi.	Mashg’ulotga tayyorlanish jarayonida yuzaga kelgan savollar bilan murojaat qilishadi
	1.2.Talabalarni mashg’ulotga chorlab olish maqsadida “Har qanday guruh jamoa bo’la oladimi?” mavzusida munozara o’tkazadi (3-ilova).	Munozarada ishtirok etadilar va o’z nuqtai nazarlarini asoslaydilar.
<b><i>Asosiy bosqich (55 daqiqa)</i></b>	2.1. Jamoa va uning o’ziga xos belgilarini o’zlashtirilishiga doir blits-so’rov o’tkazadi (4-ilova).	Savollarga javob berishadi va o’zlaridagi mavjudlariga tuzatishlar kiritishadi.
	2.2.O’quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari va bosqichlarini aniqlashtirish maqsadida toifalash jadvalini to’ldirishni taklif etadi (5-ilova).	Toifalash jadvalini to’ldirishadi va har bir fikrga izoh berishadi.
	2.3.Guruh rahbarining funktsiyalari, huquqlari, majburiyatlari va ish shakllarining o’zlashtirilishiga doir amaliy topshiriqlarni beradi va topshiriqni bajarish yuzasidan zaruriy ko’rsatmalar beradi (6-ilova).	Amaliy topshiriqlarni individual tarzda bajarishadi va unga kerakli tuzatishlar kiritishadi
	2.4.Ommaviy so’rov o’tkazish orqali talabalarning guruh rahbari ish rejasini o’rganganliklarini tekshiradi va ular	Guruh rahbarining ish rejasini yuzasidan berilgan savollarga javob berishadi

	tomonidan tuzilgan ish reja bilan tanishadi.	va o'zlari tuzib kelgan ish rejani taqdimot qiladilar
<b><i>Yakuniy bosqich (20 daqiqa)</i></b>	3.1.Mashg'ulot yuzasidan umumiy xulosalarni chiqaradi va talabalar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatadi.	Tinglaydilar va o'zlarining xatolarini daftarlariga tuzatadilar
	3.2.Talabalar tomonidan to'plangan ballarni e'lon qiladi va mashg'ulotni yakunlaydi.	O'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishadi.

## 1-ilova

### ***8-amaliy mashg'ulot. Mavzu: Jamoaning shaxs tarbiyasiga ta'siri.***

#### ***Guruh rahbarining tarbiyaviy ishi.***

#### ***Mashg'ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun):***

Jamoa va uning o'ziga xosliklarini o'rganish hamda tahlil etish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. – B. 187-190; Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. – B.116-117; Podlasyy I.P. Pedagogika. Kn.2. – M: VLADOS, 2003. – S.63-66; Lixachev B.T. Pedagogika. – M.: VLADOS, 2003. – S.191-196).

O'quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari va bosqichlarini o'zlashtirish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. – B. 190-198; Podlasyy I.P. Pedagogika. Kn.2. – M: VLADOS, 2003. – S.67-72; Lixachev B.T. Pedagogika. – M.: VLADOS, 2003. – S.196-205).

Guruh rahbarining tarbiyaviy funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari va ish shakllarini o'rganish ( Podlasyy T.P. Pedagogika. Kn.2. – M: VLADOS, 2003. – S.83-87; Lixachev B.T. Pedagogika. – M.: VLADOS, 2003. – S.225-230; G'oziev Z. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish. – T., 1997. – B.20-49).

Guruh rahbarining haftalik va yillik ish rejalarini bilan tanishish hamda taxminiy ish reja tuzish (G'oziev Z. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish. – T., 1997. – B.20-49. Mirxaitova S. Amaliy pedagogika. – Qo'qon, 2008. – B.37-38).

**Guruh rahbarining haftalik va yillik ish rejalarini tuzishda quyidagi chizmaga asoslaning.**

**Haftalik ish reja namunasi**

<b><i>Kunlar yoki sana</i></b>	<b><i>Rejalashtirilgan ishlar mazmuni</i></b>	<b><i>Izoh</i></b>	<b><i>Kunlar yoki sana</i></b>	<b><i>Rejalashtirilgan ishlar mazmuni</i></b>	<b><i>Izoh</i></b>
Dushanba (sana)			Payshanba (sana)		
Seshanba (sana)			Juma (sana)		
CHorshanba (sana)			SHanba (sana)		

**Yillik ish reja namunasi**

<b><i>/r</i></b>	<b><i>Ish yo'nalishlari va mazmuni</i></b>	<b><i>Muddati</i></b>	<b><i>Mas'ullar</i></b>	<b><i>O'tkazilish joyi</i></b>	<b><i>Izoh</i></b>

Tarbiyaviy ishlar rejasida yoritiladigan ishlar mazmuni quyidagi yo'nalishlar asosida bo'lishi mumkin.

Prezident I.A.Karimovning nutq va asarlarini o'rganish.

Milliy mafkura tarbiyasi.

G'oyaviy-siyosiy tarbiya masalalari.

Ma'naviy-ahloqiy tarbiya.

Huquqiy tarbiya.

Iqtisodiy va ekologik tarbiya.

Jismoniy va estetik tarbiya.

Giyohvandlik va OITSGa qarshi kurash.

Milliy bayramlar va tarixiy sanalarni nishonlash.

Oila va mahalla hamkorligi.

***Talabalarning mashg'ulot bo'yicha baholash mezonlari***

***Jami: 2 ball***

***Adabiyotlar bilan ishlash va konspekt qilish. – 0,5 ball.***

***Guruh rahbarining funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari va ish shakllarining o'zlashtirilishiga doir amaliy topshiriqlarni bajarish. – 1,5 ball.***

***“Har qanday guruh jamoa bo'la oladimi?” mavzusida munozarani o'tkazishga doir ko'rsatmalar***

O'qituvchi munozara uchun savolni muhokama qilish uchun o'rtaga tashlaydi va o'ylash uchun bir daqiqa vaqt beradi.

Talabalarning javoblari tinglanadi va doskaga yozib boriladi. Garchi takrorlanish holati mavjud bo'lsa ham, mazkur holatda hamma javoblarning yozib borilishi talab etiladi.

Hamma o'z fikrini bildirib bo'lgach, o'qituvchi doskaga yozilganlarini talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi va to'g'ri javoblar ajratib olinadi.

Jamoa va uning o'ziga xos belgilarini o'zlashtirilishiga doir blits-so'rov savollari

Jamoa deganda nima tushuniladi?

Jamoaning o'ziga xos belgilari nimalardan iborat?

Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsad deganda nima tushuniladi?

Jamoaning birgalikdagi umumiy faoliyati nimalarda aks etadi?

O'quvchilar jamoasining majburiy mas'uliyatli munosabatini yo'lga qo'yish nima uchun zarur?

Jamoaning rasmiy va norasmiy tuzilishidagi farqlar nimada namoyon bo'ladi?

## 5-ilova

### *O'quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari va bosqichlarini aniqlashtirishga doir toifalash jadvali*

<i>O'quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari</i>	<i>O'quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari mazmuni</i>	<i>O'quvchilar jamoasini shakllantirish bosqichlari</i>	<i>O'quvchilar jamoasini shakllantirish bosqichlari mazmuni</i>

## 6-ilova

### *Guruh rahbarining funktsiyalari, huquqlari, majburiyatlari va ish shakllariga doir amaliy topshiriqlar*

**1-topshiriq.** Quyida keltirilgan fikrlar bilan tanishing va ularni mazmunan guruh rahbarining qaysi funktsiyasini ifoda etishini aniqlang.

1) hududiy, mikromuhit, ta'lim muassasasi, o'quvchilarning o'zlarini rivojlantirish bilan bog'liq ulardagi ijobiy tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash;

2) o'quvchilar tarbiyasidagi mavjud holat va doimiy o'zgarishlarni aniqlab borish, tarbiyalanuvchi shaxsi hamda individual rivojlanishini tadqiq va tahlil etish, samarali natijalarga erishilmayotganligining sabablarini izlash;

3) o'quvchilar bilan birgalikda tarbiyaviy faoliyatga doir maqsadlarni aniqlashtirish, guruh rahbarining burchi o'quvchilarning yoshi va guruh jamoasining shakllanganlik darajasini hisobga olish;

4) o'z-o'zining va guruh jamoasi faoliyatini oqilona tashkil etishga yordam berish, pedagogik faoliyatning ketma-ketligini belgilash, pedagogik jarayonning ketma-ketligi, izchilligi, tizimligini ta'minlash;

5) tarbiyalanuvchilarning jismoniy, aqliy va ma'naviy-axloqiy jihatdan to'g'ri rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga muvafaqqiyatli moslashuvini ta'minlash.

### **2-topshiriq. Quyida keltirilgan muammoli pedagogik masalalar bilan tanishing va ularning echimini toping.**

**1-masala.** Guruhni bir necha yil davomida saylangan qat'iy faollar boshqarib, boshqa a'zolar ularga bo'ysunib kelishdi. Keyinchalik esa, ular bu holatga qarshi chiqq boshlashdi. YAngi guruh rahbari avvalgi o'qituvchining

xatosini to'g'rilash maqsadida qat'iy chora ko'rdi. Guruhda qat'iy saylov o'tkazilib, avvalgi faollar o'rniga o'quvchilar orasidan yangi faollar saylandi. Lekin oradan bir oz vaqt o'tib, saylov o'zini oqlamaganligini ko'rsatdi. Yangi saylangan faollarning bir qismi o'z vazifalarini bajarishdan bosh tortishsa, ikkinchi qismi kuch bilan tartib o'rnatishga harakat qilishdi. Guruhda yangi norasmiy guruhlar tashkil topib, befarq, mas'uliyatsiz o'quvchilar soni ikki barobar ortdi.

Sinf rahbari qanday xatoga yo'l qo'ydi? Mazkur vaziyatda qanday yo'l tutish kerak edi? Qanday yo'l bilan faolning jamoani jipslashtirishiga erishish mumkin?

**2-masala.** Guruh rahbari sotsiometriya metodini qo'llash orqali guruhdagi kamsuqum Aziza guruh sardori Dildoradan ko'ra katta obro'ga ega ekanligini aniqladi.

O'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra Didora guruh sardori sifatida noto'g'ri saylangan, uni Aziza bilan almashtirish kerak, degan xulosaga kelish mumkinmi? Guruh rahbari mazkur vaziyatda qanday yo'l tutishi kerak?

**3-masala.** Yosh o'qituvchini IX sinfga rahbar etib tayinlashdi. Bu sinf ancha murakkab bo'lgan va yaqinda qayta tuzilgan edi. Ana shu sababli sinf jamoa bo'lib uyushmagan, o'quvchilar tarqoq edi. Sinf rahbari ularni sinf va maktab ishlarini bajarishga chorlash bilan uyushtirishga harakat qildi. Bunga kuzgi ekskursiya ham yordam berdi. Bu o'qituvchiga har bir bolaning qiziqishi va imkoniyatini bilishga sharoit yaratdi. Sinfda o'tkazilgan har bir tadbir o'zaro sog'lom munosabatni o'rnatishga, yuqori sinf o'quvchilarining jamoadan talablarini qondirishga qaratilgan edi. Sinf o'quvchilaridan biri o'z inshosida shunday yozadi: "Men sinfga faqat o'qish uchun bormayman. Bu erda mening diomo yordamga tayyor do'stlarim bor. Ilgari mening faqat ko'chada do'stlarim bor edi. Ular bilan juda mazmunsiz hayot kechirgan ekanman. Meni unday hayotdan sinfim olib chiqdi. Men go'zallikni qadrlashga, odamlarni sevishga, ularning mehrini qozonishga, o'z xatti-harakatlarim uchun javob berishga o'rgandim. Men sinfimga biror zarar etkazishdan xavotirlanaman".  
Yosh sinf rahbari faoliyatini tahlil eting. Ancha jiddiy e'tiborni talab etadigan sinfda ijobiy natijalarga erishishga nima yordam berdi deb hisoblaysiz?

***3-topshiriq. Quyida keltirilgan fikrlarni o'qing va ularni ikki – guruh rahbarining huquqlari va majburiyatlari tarzida turkumlang.***

1. Tarbiyalanuvchilarning jismoniy va psixik rivojlanishi haqida ma'lumotlar olish.

2. Murakkab muammolarni hal etishda o'quvchilarga yordam ko'rsatish.

3. Har bir o'quvchining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini nazorat qilish.

4. O'quvchilarning o'quv mashg'ulotlariga qatnashishini nazorat qilish.
5. O'quvchilarning shaxsiy salohiyatining rivojlanishi uchun sinfda maqbul ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.
6. Mazkur guruhda dars beradigan o'qituvchilar ishini muvofiqlashtirish.
7. Maktab jamoasidan zarar pedagogik yordam olish.
8. Ota-onalar bilan aloqa o'rnatish va ularga tarbiyaviy ishda yordam berish.
9. Bolalar bilan individual ishlash tartibini aniqlashtirish.
10. "Kichik pedkengash", pedagogik konsilium, mavzuli va boshqa tadbirlar o'tkazish orqali guruh o'quvchilari bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.

<b><i>Guruh rahbarining huquqlari</i></b>	<b><i>Guruh rahbarining majburiyatlari</i></b>



**“Педагогика назарияси ва  
тарихи” фанидан  
маъруза машғулотининг ўқитиш  
технологияси  
(Педагогика тарихи бўлими)**

1-мавзу.	Педагогика тарихи фани ҳақида.
----------	--------------------------------

**1.1. Маъруза машғулотининг ўқитиш технологияси**  
**1.2.**

<i>Вақти – 2 соат</i>	<i>Талабалар сони: 50 нафар</i>
<i>Ўқув машғулотининг шакли</i>	<i>Кириш, визуал маъруза</i>
<i>Маъруза машғулотининг режаси</i>	<i>1.Педагогика тарихи фанининг предмети, вазифаси ва методологик асоси. 2.Президент И.А.Каримов тарихий меросимиздан фойдаланиш ҳақида. 3.«Маориф ва педагогика тарихи»ни даврлаштириш муаммолари</i>
<i>Ўқув машғулотининг мақсади:</i> “Педагогика тарихи ” фанининг предмети ва билиш усуллари, ривожланиш тарихи бошқа фанлар билан алоқаси тўғрисида билимларни ҳамда тўлиқ тасаввурни шакллантириш.	
<i>Педагогик вазифалар:</i> 1.Педагогика тарихи фанининг предмети, вазифаси ва методологик асоси билан таништириш. 2.Президент И.А.Каримов тарихий меросимиздан фойдаланишни тушунтириш 3.«Маориф ва педагогика тарихи»ни даврлаштириш муаммолари оид фикрлари билан таништириш.	<i>Ўқув фаолиятининг натижалари:</i> <i>Талаба:</i> 1.Педагогика тарихи фанининг предмети, вазифаси ва методологик асосини изоҳлайди. 2.Президент И.А.Каримов тарихий меросимиздан фойдаланишга таъриф беради. 3.«Маориф ва педагогика тарихи»ни даврлаштириш муаммолари изоҳлайди
<i>Ўқитиш услуби ва техникаси</i>	<i>Визуал маъруза,Қандай техникаси, баён қилиш,ФСМУ, “ҳа-йўқ” техникаси</i>
<i>Ўқитиш воситалари</i>	<i>Проектор, тарқатма материаллар, график органайзерлар.</i>
<i>Ўқитиш шакли</i>	<i>Жамоа, гуруҳ ва жуфтликда ишлаш.</i>
<i>Ўқитиш шарт-шароити</i>	<i>Проектор, компьютер билан жиҳозланган аудитория</i>

## Дарсинг технологик картаси

<i><b>Иш жараёнлари вақти</b></i>	<i><b>Фаолият мазмуни</b></i>	
	<i><b>Ўқитувчи</b></i>	<i><b>Талаба</b></i>
<i><b>1 босқич. Кириш (10 дақиқа)</b></i>	1.1.Маърузанинг мавзуси, режасини эълон қилади, ўқув машғулотининг мақсади ва ўқув фаолият натижаларини тушунтиради (1-илова)	Тинглайди, мавзу номини ёзиб олади
	1.2.Машғулотни ўтказиш шакли ва баҳолаш мезонларини эълон қилади (2-илова)	Ёзиб олади
<i><b>2 босқич. Асосий жараён (60 дақиқа)</b></i>	2.1.Мавзу режасининг биринчи пункти режаси бўйича маъруза қилади (3-илова) Маъруза бўйича «Б,Б,Б технологияси» усулидан фойдаланган ҳолда талабаларга қуйидаги савол билан мурожаат қилади: Педагогика тарихи фанининг предмети, вазифаси ва методологик асоси ҳақида нималарни биласиз?» (4-илова)	Ёзади, саволга жавоб беради.
	2.2.Мавзу режасининг иккинчи пункти бўйича маъруза қилади (5-илова). Маъруза бўйича «Вен» усулидан фойдаланган ҳолда талабаларга қуйидаги савол билан мурожаат қилади: “Президент И.А.Каримов тарихий меросимиздан фойдаланиш ҳақида маълумот беринг?” (6-илова)	Ёзади, саволга жавоб беради.
	2.2.3.Маориф ва педагогика тарихи»ни даврлаштириш муаммолари. «Кичик гуруҳларда ишлаш» орқали амалга оширилишини эълон қилади. (7-илова). “Кластер” техникасидан фойдаланган ҳолда гуруҳларга топшириқлар беради (8-илова) Гуруҳларда ишлашга ёрдам беради Кўшимча маълумотлардан фойдаланишга имкон яратади. Диққатларини кутиладиган натижага жалб қилади. Ҳар бир гуруҳ топшириқларини ватман - қоғозларга	Саволларга жавоб берадилар, эркин баҳс-мунозара юритадилар. Гуруҳларда ишлайдилар.

	тушириб, тақдимотини ўтказишга ёрдам беради, билимларини умумлаштиради, хулосаларга алоҳида эътибор беради. Топшириқларнинг бажарилишини қай даражада тўғри эканлигини диққат билан тинглайди Фикрларини тинглаб, умумлаштиради.	
<b>3 босқич. Якуний босқич (10 дақиқа)</b>	3.1 Мавзу бўйича умумий хулоса қилинади.	Тинглайдилар
	3.2. Талабаларнинг баҳолаш мезонларини эълон қилинади	Ёзиб олади
	3.3. Ўз-ўзини назорат қилиш учун саволлар беради (9-илова)	Жавоб ёзади
	3.4 Навбатдаги машғулотда кўриладиган мавзунини эълон қилади ва “инсерт” усулида жадвалга мустақил таълимга тайёргарлик кўришларини сўрайди (10-Илова).	”Инсерт” усулида жадвални тўлдиради.

## 1-илова

**МABЗУ: Педагогика тарихи фан ва предмети сифатида. Фаннинг мақсади ва вазифалари.**

### **Режа**

- 1. Педагогика тарихи фанининг предмети, вазифаси ва методологик асоси.**
- 2. Президент И.А.Каримов тарихий меросимиздан фойдаланиш ҳақида.**
- 3.«Маориф ва педагогика тарихи»ни даврлаштириш муаммолари.**

**Ўқув машғулотининг мақсади:** Педагогика тарихи фанининг предмети мақсади ва вазифалари тўғрисидаги билимларни шакллантириш.

**Ўқув фаолиятининг натижаси:** Талабаларга педагогика тарихи фан предмети, мақсади, вазифалари ҳамда Президент И.А.Каримов тарихий меросимиздан фойдаланиш ҳақида. ва энг қадимги ёдгорликларда инсон тарбиясига оид фикрларини изоҳлаб берилди

## 2-илова

### **Баҳолаш мезони ва кўрсаткичлари**

<b>Гуруҳлар</b>	<b>Саволнинг тўлиқ ва аниқ ёритилиши 0-5 балл</b>	<b>Мисоллар билан муаммога ечим топиши 0-5 балл</b>	<b>Гуруҳ аъзоларининг фаоллиги 0-5 балл</b>	<b>Жами балл</b>

**15 – 13 балл – «аъло».**

**12 – 10 балл – «яхши».**

**9 – 6 балл – «қониқарли».**

### **Педагогика тарихи фанининг предмети, вазифаси ва методологик асоси**

1991 йилга келиб Ўзбекистон халқи мустақилликка эришгач, ўзининг янги миллий Қомуси асосида ҳамма соҳада бўлганидек, ўзбек миллий фани ва маданияти, “Педагогика тарихи”га ҳам янгича ёндошиш имконияти туғилди.

Ўтмишда прогрессив педагоглар ва атоқли мутафаккирлар педагогикага доир муҳим фикрларни айтиб қолдирганлар, буларни ўрганиш педагогика тафаккурининг ўсишига, педагогик маданиятининг ортишига имкон беради.


Педагогика тарихи жамият тараққиёти қонунларига суянган ҳолда турли педагогик назарияларни, таълим-тарбиянинг мазмуни ва методларини ўргатади. Ўтмишнинг педагогик системаларида бўлган илғор ва прогрессив фикрларнинг ҳаммасидан ижодий фойдаланади.

Демак, педагогика тарихи ижтимоий фандир. У тарихий педагогика ходисаларига давр талаби асосида ёндошади, тарбия назарияси ва амалиётини турли босқичларда хилма-хил бўлганлигини очиб беради, илғор қарашларнинг тараққиёт йўлини кўрсатиб беради.

*1-ўқув топшириқ  
«Қандай» органайзерини тўлдириш*

**4-илова**

*Муҳим муаммонинг ечимини топишга ёрдам беради ва “Қандай” саволи орқали муаммо ҳал қилинади.*



**5-илова**

*Президент И.А.Каримов тарихий меросимиздан фойдаланиш ҳақида*


Ўзбекистон Президенти И.А.Каримов таъкидлаганидек, «Тарих хотираси, халқнинг, жонажон ўлканинг, давлатимиз ҳудудининг ҳолис ва ҳаққоний тарихини тиклаш миллий ўзликни англашни, тадбир жоиз бўлса, миллий ифтихорни тиклаш ва ўстириш жараёнида ғоят муҳим ўрин тутади». Дарҳақиқат, Юртбошимиз ўз нутқларида тарихимизнинг беқиёс ўрнини алоҳида ифтихор билан тилга олади. Жумладан, 1998 йил, 26 июнда Республикаимиз Президенти Ислоҳ Каримов бир гуруҳ таниқли тарихчи олимлар, журналистлар ва оммавий ахборот воситаси вакиллари билан учрашиб, тарих фани соҳасига тегишли бўлган ҳамда ҳал этилиши лозим бўлган долзарб муаммоларни ўртага ташлади. Ушбу учрашув натижасида тарих фанининг келажакдаги тараққиёти истикболларини ўзида мужассам этган «**Тарихий хотирасиз елажак йўқ**» асари дунёга келди. 1998 йил 27 июлда «Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси тарих

институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида» Вазирлар Маҳкамаси қарорининг қабул қилиниши тарих фанини ривожлантиришни давлат аҳамиятидаги устувор вазифалардан бирига айланганлигидан далолат беради.

**6-илова**

### «Қандай» органайзерини тўлдириш

*Муҳим муаммонинг ечимини топишга ёрдам беради ва «Қандай» саволи орқали муаммо ҳал қилинади.*



**7-илова**

### 2-ўқув топшириқ ФСМУ технологияси

Ушбу технология мунозарали масалаларни ҳал этишда ҳамда ўқув жараёнини бахс-мунозарали ўтказишда қўлланилади, чунки бу технология талабаларни ўз фикрини химоя қилишга, эркин фикрлаш ва ўз фикрини бошқаларга ўтказишга, очиқ ҳолда бахслашишга ҳамда шу билан бирга бахслашиш маданиятини ўратади. Тингловчиларга тарқатилган оддий қоғозга ўз фикрларини аниқ ва қисқа ҳолатда ифода этиб, тасдиқловчи далиллар ёки инкор этувчи фикрларни баён этишга ёрдам беради.

Ф – фикрингизни баён этинг

С – фикрингиз баёнига сабаб кўрсатинг

М – кўрсатган сабабингизни исботловчи далил келтиринг

У – фикрингизни умумлаштиринг

<b>Савол</b>	<b>«Маориф ва педагогика тарихи»ни даврлаштириш муаммоларини ёзиб чиқинг ва мазмунини изоҳланг.</b>
(Ф) Фикрингизни баён этинг	
(С) Фикрингиз баёнига сабаб кўрсатинг	
(М) Кўрсатган сабабингизни исботловчи далил келтиринг	
(У) Фикрингизни умумлаштиринг	

**9-илова**

**Жонлантириш учун саволлар**

1. Педагогика тарихи фанининг предмети, вазифаси ва методологик асоси.
2. Президент И.А.Каримов тарихий меросимиздан фойдаланиш ҳақида.
- 3.«Маориф ва педагогика тарихи»ни даврлаштириш муаммолари.

**10-илова**

**Инсерт усулидан фойдаланиб ишлаш қондаси**

1. Маъруза матнини ўқиб, матннинг четига қуйидаги белгиларни қўйиб чиқинг:  
В – биламан  
+ - мен учун янги маълумот  
- мен билган маълумотни инкор қилади  
? – ноаниқ (аниқлаштириш талаб қиладиган) қўшимча маълумот.
2. Олинган натижаларни жадвал шаклида расмийлаштиринг.

<b>Мавзу саволлари</b>	<b>В</b>	<b>-</b>	<b>+</b>	<b>?</b>
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
6.				
7.				



2-мавзу.	Энг қадимги даврлардан VII асргача таълим-тарбия ва педагогик фикрлар
----------	---

### 1.2. Маъруза машғулотининг ўқитиш технологияси

<b>Вақти – 2 соат</b>	<b>Талабалар сони: 50 нафар</b>
<b>Ўқув машғулотининг шакли</b>	<b>визуал маъруза</b>
<b>Маъруза машғулотининг режаси</b>	<b>1.Энг қадимги ёдгорликларда инсон тарбиясига оид фикрлар.</b>
<b>Ўқув машғулотининг мақсади:</b> “Педагогика тарихи ” фанининг предмети ва билиш усуллари, ривожланиш тарихи бошқа фанлар билан алоқаси, Энг қадимги ёдгорликларда инсон тарбиясига оид фикрлар тўғрисида билимларни ҳамда тўлиқ тасаввурни шакллантириш.	
<b>Педагогик вазифалар:</b> 1.Педагогика тарихи фанининг предмети, вазифаси ва методологик асоси билан таништириш. 2.Президент И.А.Каримов тарихий меросимиздан фойдаланишни тушунтириш 3.Энг қадимги ёдгорликларда инсон тарбиясига оид фикрлари билан таништириш.	<b>Ўқув фаолиятининг натижалари:</b> <b>Талаба:</b> 1. Педагогика тарихи фанининг предмети, вазифаси ва методологик асосини изоҳлайди. 2.Президент И.А.Каримов тарихий меросимиздан фойдаланишга таъриф беради. 3.Энг қадимги ёдгорликларда инсон тарбиясига оид фикрларини изоҳлайди.
Ўқитиш услуби ва техникаси	Визуал маъруза,Қандай техникаси, баён қилиш,ФСМУ, “ха-йўқ” техникаси
Ўқитиш воситалари	Проектор, тарқатма материаллар, график органайзерлар.
Ўқитиш шакли	Жамоа, гуруҳ ва жуфтликда ишлаш.
Ўқитиш шарт-шароити	Проектор, компьютер билан жиҳозланган аудитория

### Дарсинг технологик картаси

<i><b>Иш жараёнлари вақти</b></i>	<i><b>Фаолият мазмуни</b></i>	
	<i><b>Ўқитувчи</b></i>	<i><b>Талаба</b></i>
<i><b>1 босқич. Кириш (10 дақиқа)</b></i>	1.1.Маърузанинг мавзуси, режасини эълон қилади, ўқув машғулотининг мақсади ва ўқув фаолият натижаларини тушунтиради (1-илова)	Тинглайди, мавзу номини ёзиб олади
	1.2.Машғулотни ўтказиш шакли ва баҳолаш мезонларини эълон қилади (2-илова)	Ёзиб олади
<i><b>2 босқич. Асосий жараён (60 дақиқа)</b></i>	2.1.Мавзу режасининг биринчи пункти режаси бўйича маъруза қилади (3-илова) Маъруза бўйича «Б,Б,Б технологияси» усулидан фойдаланган ҳолда талабаларга қуйидаги савол билан мурожаат қилади: Энг қадимги ёдгорликларда инсон тарбиясига оид фикрларини изоҳлайди биласиз?» (4-илова)	Ёзади, саволга жавоб беради.
	2.2.Мавзу режасининг иккинчи пункти бўйича маъруза қилади (5-илова). Маъруза бўйича «Вен» усулидан фойдаланган ҳолда талабаларга қуйидаги савол билан мурожаат қилади: “Президент И.А.Каримов тарихий меросимиздан фойдаланиш ” (6-илова)	Ёзади, саволга жавоб беради.
	2.2. Энг қадимги ёдгорликларда инсон тарбиясига оид фикрларини «Кичик гуруҳларда ишлаш» орқали амалга оширилишини эълон қилади. (7-илова). “Кластер” техникасидан фойдаланган ҳолда гуруҳларга топшириқлар беради (8-илова) Гуруҳларда ишлашга ёрдам беради Кўшимча маълумотлардан фойдаланишга имкон яратади. Диққатларини кутиладиган натижага жалб қилади. Ҳар бир гуруҳ топшириқларини ватман - қоғозларга тушириб, тақдимотини ўтказишга ёрдам беради, билимларини умумлаштиради, хулосаларга алоҳида	Саволларга жавоб берадилар, эркин баҳс-мунозара юритадилар. Гуруҳларда ишлайдилар.

	эътибор беради. Топширикларнинг бажарилишини қай даражада тўғри эканлигини диққат билан тинглайди Фикрларинитинглаб, умумлаштиради.	
<b>3 босқич.</b> <b>Яқуний босқич</b> <b>(10 дақиқа)</b>	3.1 Мавзу бўйича умумий хулоса қилинади.	Тинглайдилар
	3.2. Талабаларнинг баҳолаш мезонларини эълон қилинади	Ёзиб олади
	3.3. Ўз-ўзини назорат қилиш учун саволлар беради (9-илова)	Жавоб ёзади
	3.4 Навбатдаги машғулотда кўриладиган мавзунини эълон қилади ва “инсерт” усулида жадвалга мустақил таълимга тайёргарлик кўришларини сўрайди (10-Илова).	”Инсерт” усулида жадвални тўлдиради.

**МАВЗУ: *Энг қадимги даврлардан VII асргача таълим-тарбия ва педагогик фикрлар***

***Режа***

***1.Энг қадимги ёдгорликларда инсон тарбиясига оид фикрлар.***

***Ўқув маишулотининг мақсади:* Энг қадимги даврлардан VII асргача таълим-тарбия ва педагогик фикрлар тўғрисидаги билимларни шакллантириши.**

***Ўқув фаолиятининг натижаси:* Энг қадимги ёдгорликларда инсон тарбиясига оид фикрларини изоҳлаб берилди.**

***Баҳолаш мезони ва кўрсаткичлари***

<b><i>Гуруҳлар</i></b>	<b><i>Саволнинг тўлиқ ва аниқ ёритилиши 0-5 балл</i></b>	<b><i>Мисоллар билан муаммога ечим топиши 0-5 балл</i></b>	<b><i>Гуруҳ аъзоларининг фаоллиги 0-5 балл</i></b>	<b><i>Жами балл</i></b>

***15 – 13 балл – «аъло».***

***12 – 10 балл – «яхши».***

***9 – 6 балл – «қониқарли».***

***Педагогика тарихи фанининг предмети, вазифаси ва методологик асоси***


1991 йилга келиб Ўзбекистон халқи мустақилликка эришгач, ўзининг янги миллий Қомуси асосида ҳамма соҳада бўлганидек, ўзбек миллий фани ва маданияти, “Педагогика тарихи”га ҳам янгича ёндошиш имконияти туғилди.

Ўтмишда прогрессив педагоглар ва атоқли мутафаккирлар педагогикага доир муҳим фикрларни айтиб қолдирганлар, буларни ўрганиш педагогика тафаккурининг ўсишига, педагогик маданиятининг ортишига имкон беради.

Педагогика тарихи жамият тараққиёти қонунларига суянган ҳолда турли педагогик назарияларни, таълим-тарбиянинг мазмуни ва методларини ўргатади. Ўтмишнинг педагогик системаларида бўлган илғор ва прогрессив фикрларнинг ҳаммасидан ижодий фойдаланади.

Демак, педагогика тарихи ижтимоий фандир. У тарихий педагогика ходисаларига давр талаби асосида ёндошади, тарбия назарияси ва амалиётини турли босқичларда хилма-хил бўлганлигини очиб беради, илғор қарашларнинг тараққиёт йўлини кўрсатиб беради.

*Муҳим муаммонинг ечимини топишга ёрдам беради ва “Қандай” саволи орқали муаммо ҳал қилинади.*



**Президент И.А.Каримов тарихий меросимиздан фойдаланиш ҳақида**

Ўзбекистон Президенти И.А.Каримов таъкидлаганидек, «Тарих хотираси, халқнинг, жонажон ўлканинг, давлатимиз худудининг ҳолис ва ҳаққоний тарихини тиклаш миллий ўзликни англашни, тадбир жоиз бўлса, миллий ифтихорни тиклаш ва ўстириш жараёнида ғоят муҳим ўрин тутади».


Дарҳақиқат, Юртбошимиз ўз нутқларида тарихимизнинг беқиёс ўрнини алоҳида ифтихор билан тилга олади. Жумладан, 1998 йил, 26 июнда Республикаимиз Президенти Ислам Каримов бир гуруҳ таниқли тарихчи олимлар, журналистлар ва оммавий ахборот воситаси вакиллари билан учрашиб, тарих фани соҳасига тегишли бўлган ҳамда ҳал зтилиши лозим бўлган долзарб муаммоларни ўртага ташлади. Ушбу учрашув натижасида тарих фанининг келажақдаги тараққиёти истикболларини ўзида мужассам этган

«Тарихий хотирасиз келажак йўқ» асари дунёга келди. 1998 йил 27 июлда «Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида» Вазирлар Маҳкамаси қарорининг қабул қилиниши тарих фанини ривожлантиришни давлат аҳамиятидаги устувор вазифалардан бирига айланганлигидан далолат беради.

6-илова

### «Қандай» органайзерини тўлдириг

*Муҳим муаммонинг ечимини топишга ёрдам беради ва “Қандай” саволи орқали муаммо ҳал қилинади.*



7-илова

### Энг қадимги ёдгорликларда инсон тарбиясига оид фикрлар

Энг қадимги маданий бойликларимизни ўрганишда қуйидаги уч гуруҳга ажратилган манбаларга таянамиз:

1. **Археологик қазилмалар натижасида топилган кўрғазмали ашёлар.**
2. **Халқ оғзаки ижоди материаллари ҳамда ёзма манбалар.**
3. **Буюк адиблар, алломаларнинг ижодий мероси.**

Туркий халқларнинг ёзма маърифий ёдгорликлари ўзига хос хусусиятга эга бўлиб, педагогика тарихи, хусусан, ёш авлод тарбиясида муҳим аҳамият касб этади. Булар “Урхун-Енисей ёдгорликлари”, “Ирқ ёзувлари” (“Таъбирнома”) каби манбалар бўлиб, улардан янги давр кишисини тарбиялашда фойдаланиш муҳим вазифалардан саналади. Энг қадимги туркий тилда яратилган ва турк-румий ёзувида битилган Урхун-Енисей битикларини “тошларга битилган китоблар” ҳам деб атайдилар. Ўзига хос хат (ёзув)да битилган бу битиклар эрамининг VI-VIII асрларда ёзиб қолдирилган. Тошларга битилган мазкур ёдгорликлар таълим-тарбияга оид қимматли маълумотларни беради.

**2-ўқув топшириқ**  
**ФСМУ технологияси**

